 *A. bu yoshning usib, tajribaning boyib borishi munosabati bilan tarbiya ishlar ta'sirida bolaning aqliy faoliyatida ruy beradigan mikdor va sifat uzgarishlarning majmuasidir
 B. bolaning kamolotidir S. muomala vositasidir
 D. bolaning rivojlanishidir
20. Maktabgacha yoshdagi bolaning axloqiy sifatlari necha yoshdan shaqllanadi?
 A. 1-2 yoshdan *B. 3-4 yoshdan
 S. 5-6 yoshdan D. 6-7 yoshdan
21. Tarbiyachi tortinchok bolalarni mashg'ulotga qanday jalb eta olishi kerak?
 *A. chora tadbirlar uylab topishi kerak. B. e'tibor qilmasligi kerak
 S. ajratib qo'yishi kerak D. urishishi kerak
22. Tug'ilgan bola qanday nomlanadi?
 A. shaxs B. inson
 S. embrion *D. gudak
23. Maktabgacha yoshdagi bolaning injiqligi, mashg'ulotlarga qatnashmasligi nima sababdan kelib chiqadi?
 *A. kasalligidan B. erkalikdan
 S. biror bir narsadan norozilikdan D. o'jarlikdan
25. Pedagogik texnologiyalar tasnifiga kura to'g'ri belgilangan katorni kursating:
 A. umumiy pedagogik texnologiya lokal
 B. xususiy predmetli
 S.) didaktik texnologiya
 *D. umum pedagogik texnologiya, xususiy predmetli, lokal pedagogik texnologiya
26. «Ilgor pedagogik texnologiyalar va tajribalarni aniklash xamda ommalashtirish chora tadbirlari to'g'risida» gi qaror qachon qabul qilingan?
 *A. O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi xay'at majlisining 1998 yil 19 dekabrda
 B. O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi xay'at majlisining 1997 yil 17 dekabrda
 S. O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi xay'at majlisining 1995 yil 21 dekabrda
 D. O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi xay'at majlisining 1997 yil 19 yanvarda
27. Bolalar bog'chasini urab turgan guzallik muxiti bolalarning xar tomonlama kamol topishiga, didli tarbiyalanishiga ta'sir e'tadigan tarbiya turini kursating
 A. jismoniy tarbiya *B. estetik tarbiya
 S. axloqiy tarbiya D. mexnat tarbiyasi
28. Davlat ta'lim standartining bosh talabi nimadan iborat?

- A. dars sifatini oshirish
 B. o'quvchilar tarbiyasini yaxshilash
 *S. ijodiy tafakkur soxibini yetishtirishdan iborat
 D. o'quvchilarga ta'lim berish
29. O'yin nima?
 *A. maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati
 B. bola uchun zarur bulgan faoliyat
 S. bola zerikmasligi uchun utiladigan mashgulot
 G) bolaning faoliyati
30. YAngi pedagogik texnologiyalarning asosi nima bulib xisoblanadi?
 *A. davlat ta'lim standartlari bulib xisoblanadi
 B. ukuv dasturlari bulib xisoblanadi
 S. ta'lim-tarbiya mazmuni bulib xisoblanadi
 D. o'qitish usuli bulib xisoblanadi
31. Motiv nima?
 A. darsga yangilik olib kirish
 B. o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish
 *S. kishini biror ish-xarakatni bajarishga undovchi da'vat, turtki.
 D. darsni noan'anaviy usulda olib borish
32. Maktabgacha tarbiya muassasasida kunning birinchi yarmida qanday mashgulotlar olib boriladi?
 *A. asosiy mashg'ulotlar B. zerikmaslik uchun tuzilgan mashgulotlar
 S. tarbiyaviy mashg'ulotlar D. jismoniy mashgulotlar
33. Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish va xisobga olish?
 A. pedagogik jarayonni rejalashtirish
 B. ta'lim-tarbiya ishlarini xisobga olish
 S. mashgulotlarni rejalashtirish
 *D. A va B javoblar to'g'ri.
34. «Sinkveyn» qanday ma'noni bildiradi?
 *A. fransuz tilida «5 katorli she'r» ma'nosini bildiradi.
 B. fransuz tilida «gujm, boglam» ma'nosini bildiradi.
 S. inglizcha «aqliy xujum» ma'nosini bildiradi.
 D. inglizcha «munozara» ma'nosini bildiradi.
35. I. A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining !X sessiyasida suzlagan nutkida asosiy urguni tarbiyaning kaysi jixatlariga karatdi?
 A. *Buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish to'g'risida tuxtalib utdi;
 B. Iqtisodiy isloxatlarni utkazish lozimligini uktirdi;
 S. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tilishi zarurligi to'g'risida fikr bildirdi;
 D. Sportni rivojlantirishga aloxida urgu berdi;
36. I.A. Karimovning o'tmish tariximiz va merosimiz ahamiyatini yorituvchi asari qanday nomladi?
 A. «O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat»
 *B. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q»
 S. «Buyuk kelajak sari»
 D. «Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori»

6. JORIY VA ORALIQ NAZORAT SAVOLLARI

1. Kirish. O`zbekiston Respublikasida xalq ta'limi tizimi va uning turlari.
2. Maktabgacha pedagogika fanining maqsad vazifalari.
3. Maktabgacha pedagogika fanning ilmiy tadqiqot metodlari
4. O`zbekistonda xalq ta'limi tizimi va taraqqiyotida maktabgacha ta'limning o`rni.
5. Tarbiya ijtimoiy xodisa va pedagogik jarayon sifatida
6. O`zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim to`g`risida Nizom va uning tarbiyadagi o`rni.
7. Ilk yoshdagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyasi
8. Bir yoshgacha bo`lgan bolalar tarbiyasi
9. Bolalar hayotining ikkinchi yilida rivojlanish va tarbiya
10. Bolalar hayotining uchinchi yilida rivojlanish va tarbiya
11. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini barkamol qilib tarbiyalash
12. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini sog`lom qilib tarbiyalash.
Jismoniy tarbiya
13. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish
14. Bola hayotida kun tartibi va uning pedagogik jarayondagi ahamiyati.
15. Ta'lim qoidalari
16. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishning mazmuni va metodlari
17. Ta'lim usullari
18. Bolalar bog`chasi va oilada sensor tarbiya berish
19. Barkamol shaxs tarbiyasida axloqiy va mehnat tabiyasining roli va ahamiyati
20. Maktabgacha yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiya berish usullari.
21. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jamoatchilik ruhida tarbiyalash.
22. Bolalarni axloqiy tarbiyalashda oila va mahallla hamkorligi
23. Mehnatsevarlik tarbiyasi

24. Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya)
25. Maktabgacha yoshdagi bolalarda intizomlilik va xulq-atvor madaniyatini tarbiyalash.
26. Maktabgacha yoshdagi bolalar-ga iqtisodiy tarbiya berish
27. Maktabgacha yoshdagi bola-larga huquqiy tarbiya berish
28. Maktabgacha yoshdagi bolalarga estetik tarbiya berish
29. Bolalar bog`chasida o`yin.
30. Bolalar bog`cha-larida bayram va ko`ngil ochish daqiqalari, ularning kun tartibidagi o`rni
31. Bolalara bog`chasi va maktab hamkorligi
32. Bog`chada va oilada ta`lim-tarbiya berishning o`ziga xos xususiyatlari. Tarbiyada oilaning o`rni.
33. Bolalarni tarbiyalashda oilaning o`rni
34. Maktabgacha ta`lim muassasa-larida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning mohiyati va mazmuni
35. Maktabgacha ta`lim muassasa-larining yillik ish rejasi, uni rivojlantirish shartlari va metodlari
36. Ijtimoiy maktabgacha tarbiyaning davlat xarakteri, uning xalq tizimida tutgan o`rni.
37. Maktabgacha ta`lim muassasalarining hujjatlari.
38. Maktabgacha ta`lim muassasalarini tashkil qilishning maqsad va vazifalari
39. Mudira va unga qo`yiladigan talablar.
40. Mudiraning ish mazmuni, uslubiy ishlarga rahbarligi.
41. Xalq ta`limi bo`limlari, ular-ning tuzilishi va maktabgacha ta`lim muassasa-lariga rahbarlik qilish.

7. YAKUNIY NAZORAT SAVOLLARI

1. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning bosh g`oyasi nimadan iborat?
2. Kadrlar tayyorlash milliy modeli nima?
3. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
4. Uzluksiz ta`lim tizimining mohiyatini yoritib bering.
5. Maktabgacha pedagogika fanining maqsad vazifalari
6. Maktabgacha pedagogika fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
7. Maktabgacha pedagogika fanning ilmiy tadqiqot metodlari.
8. Qanday fanlar pedagogik fanlar tizimiga kiradi?
9. Qanday metodlar pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari hisoblanadi
10. Shaxs faoliyati haqida so`zlab bering.
11. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini tavsiflang.
12. Shaxsning ijtimoiylashuvini qanday tushunasiz?
13. «Ta`lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyatlari» tushunchasini Siz qanday tushunasiz?
14. Ta`lim tamoyili nimani anglatadi? Misollar keltiring.
15. Sharq Uyg`onish davri allomalari – Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino) ilgari surgan ta`limiy qoida va tamoyillarini ta`riflab bering.
16. Ilk yoshdagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyasi
17. Ta`lim metodi nima?
18. Ta`lim vositalariga nimalar kiradi?
19. Ta`lim metodlarining tasnifi nima?
20. Ta`lim jarayonida suhbat metodini qo`llashda nimalarga e`tibor qaratish zarur?
21. Og`zaki bayon metodlarining afzalliklari nimalar ko`rinadi?
22. Ko`rgazmali metodlar turkumini nimalar tashkil etadi?
23. Amaliy metodlar mohiyati nimadan iborat?
24. Didaktik o`yinlar qanday maqsadda qo`llaniladi?
25. Tarbiyalanuvchilar faoliyatini hisobga olishning qanday metodlarini bilasiz? Ularning har biri haqida ma`lumot bering.
26. Sharq mutafakkirlarining shaxs dunyoqarashini shakllantirish borasida qarashlardan namunalar keltiring.
27. Aqliy tarbiya mohiyati nimalardan iborat?
28. Iqtisodiy tarbiya tarbiyalanuvchi dunyoqarashini shakllantirishda qanday o`rin tutadi?
29. Tarbiyalanuvchilarning dunyoqarashining shakllanishiga ekologik tarbiya qanday ta`sir ko`ratadi?
30. Mehnat tarbiyasining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
31. Mehnat tarbiyasining mazmuni haqida gapirib bering.
32. Sharq mutafakkirlari yosh avlodning mehnat tarbiyasi, kasb-hunar egallashi haqida qanday qarashlarni ilgari surganlar?

33. Tarbiyalanuvchilarning mehnat tarbiyasini tashkil etishda qanday shakl va metodlar samarali sanaladi?
34. Mehnat tarbiyasida ta'lim va tarbiya birligining ahamiyatini qanday baholaysiz?
35. Mehnat tarbiyasi va ijtimoiy tarbiyaning boshqa yo'nalishlari o'rtasidagi aloqadorlik haqida so'zlab bering.
36. Nafosat tarbiyasining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat ekanligi haqida so'zlab bering.
37. Nafosat tarbiyasining vositalarini ko'rsating.
38. Go'zallik va xunuklik tushunchalarining mohiyatini izohlang.
39. Badiiy jihatdan saviyasi past asarlarni qanday aniqlash mumkin?
40. Sizga manzur bo'lgan she'rlardan namunalar aytib bering.
41. O'zbek rassomlaridan kimlarni bilasiz?
42. Jismoniy tarbiya deganda nimani tushunasiz?
43. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
44. Mamlakatda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishiga berilayotgan e'tibor nimalarda ko'zga tashlanadi?
45. Tarbiyalanuvchilar gigiyenasi nima? Bu haqida buyuk pedagog Abdulla Avloniy qanday fikrlarni bildirgan?
46. Oila tarbiyasining mohiyati nimadan iborat?
47. Oila tarbiyasi qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etiladi?
48. Oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik mazmunidan nimalar aks etadi?
49. Sharq mutafakkirlarining oila va farzand tarbiyasini yo'lga qo'yish borasidagi qarashlarida qanday g'oyalar ilgari suriladi?
50. O'zbekiston Respublikasida oilalarning mustahkamligini ta'minlash, ularning moddiy farovonligini oshirish yo'lida qanday qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
51. Oila tarbiyasi borasidagi mavjud muammolar nimalardan iborat? Ta'lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarishga ta'rif berish?
52. Bolalar hayotining ikkinchi yilida rivojlanish va tarbiya
53. Bolalar hayotining uchinchi yilida rivojlanish va tarbiya
54. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini barkamol qilib tarbiyalash
55. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini sog'lom qilib tarbiyalash. Jismoniy tarbiya
56. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berish
57. Bola hayotida kun tartibi va uning pedagogik jarayondagi ahamiyati.
58. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishning mazmuni va metodlari
59. Maktabgacha ta'limga oid Internet yangiliklari.
60. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta'lim to'g'risidagi qonun» bo'yicha maktabgacha ta'limga oid sahifalarini o'rganib, tahlil qilish.
61. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim to'g'risidagi «Nizom»ni o'rganib tahlil qilish.
62. Tarbiya va bolaning yosh xususiyatlari. a) ilk yoshli bolalarni yosh xususiyatlari

b) maktabgacha yoshdagi bolaarni yosh xususiyatlari.YOsh avlodni milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi ruhida tarbiyalash.

- 63.Xukumatimiz tomonidan bolalar sportini rivojlantirishga qaratilgan g'amxo'rliklar.
- 64.Ibn Sino jismoniy tarbiyaning mazmuni haqida.
- 65.Uch yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni jismoniy tarbiyalash.
- 66.«Uchinchi ming yillikning bolasi» tayanch dasturidan jismoniy rivojlanishga doir sahifalarni guruhlar bo'yicha o'rganish.
- 67.O'yinda bolalarni aqliy tarbiyasi.
- 68.Mehnat faoliyati jarayonida bolalarni aqliy tarbiyalash.
- 69.Har bir guruh uchun mashg'ulot ishlanmasi tuzish.
- 70.Mashg'ulotlarni haftalar bo'yicha taqsimlash.
- 71.Ahloqiy tarbiya nazariyasida shaxs va jamoa haqidagi ta'limot.
- 72.MTMda «tarbiyasi og'ir» bolalarni tarbiyalash.
- 73.Xalq og'zaki ijodida mehnatsevarlik tarbiyasi.
- 74.Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni mehnat tarbiyasi. Bolalarni jamoa bo'lib mehnat qilishi.
- 75.«Bolalar huquqlarini himoya qilish konvensiyasi»ni o'qib o'rganish.
- 76.Bolalarni oilada, MTMda tejamkorlikka, ishbilarmonlikka o'rgatish.
- 77.«Avesto»da tabiatga mehr tarbiyasi.
- 78.O'yinning MTMda pedagogik jarayonda tutgan o'rni.
- 79.MTMda pedagogik jarayonni tashkil etish.
- 80.Hozirgi davrda maktabgacha muassasalarning zamonaviy tizimi.
- 81.Davlatga qarashli bo'lmagan maktabgacha muassasalarni tashkil etish.
- 82.Maktabgacha ta'limni moliyaviy ta'minlashning nazariy asoslari.
- 83.Taomnoma - tuzish metodikasi.
- 84.Bolalar bilimini diagnostika qilishning pedagogik asoslari.
- 85.Maktabgacha ta'lim tizimida monitoring tizimini tashkil etish.
- 86.Maktabgacha ta'lim muassasasining yillik ish rejasini tuzish metodikasi.
- 87.Halq ta'limi bo'limi nazoratchisining ish faoliyatining nazariy va amaliy asoslari.
- 88.Mudira – tomonidan maktabgacha ta'lim muassasasini boshqarish tamoyillari.
- 89.Katta – tarbiyachining metodik ishlariga rahbarligi.

8. TARQATMA MATERIALLAR

Nazorat uchun savollar.

1. Maktabgacha ta'lim pedagogikasining predmeti nima?
2. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi maqsad va vazifalari haqida nimalarni bilasiz?
3. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi qaysi fanlar bilan aloqador?
4. Ilmiy tadqiqot metodlaridan kimlar foydalanadilar, ular qaysilar?

Nazorat uchun savollar.

1. Rivojlanish nima?
2. Shaxsning rivojlanishi uchun zarur omillar qaysilar?
3. Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning roli qanday?
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni yosh xususiyatlarini izohlang.
5. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni jismoniy rivojlanishini aytib bering.

Nazorat uchun savollar

Ta'lim tizimida maktabgacha ta'limning tutgan o'rnini izohlang.

Ta'lim tizimi doirasida faoliyat ko'rsatuvchi muassasalar haqida nimalar bilasizq

Ta'lim tizimini boshqarishni qanday tushunasizq

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy bosqichlari qaysilarq

Ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim muassasalarining vazifalarini aniqlab bering.

Maktabgacha ta'limni asosiy turlari qaysilar

Nazorat savollari.

Tarbiyachi – pedagoglik kasbi qanday kasb va bunga sizning munosabatingizq

Tarbiyachining shaxsiy sifatlari va pedagogning odobi qanday bo'lishi kerakq

Hozirgi davr o'kituvchisiga quyilgan pedagogik talab nimalardan iborat q

Kasbiy layoqat deganda nimani tushunasiz?

Nazorat savollari.

Maktabgacha ta'lim dasturini yaratilishi tarixi haqida nima bildingizq

Uchinchi ming yillikni bolasi dasturini mazmunini asoslab bering.

Maktabgacha ta'lim tayanch dasturini asosiy bo'lim va mazmunini izoxlang.

Dasturni takomillashtirishga sizni fikringiz

Nazorat uchun savollar

Jismoniy tarbiyaning mazmuni.

Jismoniy tarbiyadagi asosiy tushunchalarning «jismoniy tarbiya», «jismoniy barkamollik», «badantarbiya», «jismoniy rivojlanish» mazmunini ochib bering.

Ilk yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasining vazifalari.

3 yoshdan 7 yoshgacha boʻlgan bolalarning jismoniy tarbiyalashning mazmunini ochib bering.

Rejim (kun tartibini) tashkil etish.

Turli yosh guruhlarida bolalarning ovqatlanishini tashkil etish.

Ilk yoshdagi bolalarda madaniy-gigienik koʻnikmalarni tarbiyalash.

3 yoshdan 7 yoshgacha boʻlgan bolalarda madaniy-gigienik koʻnikmalarni tarbiyalash.

Nazorat uchun savollar

1. Oʻyin faoliyatiga ta'rif bering.
2. Oʻyin turlari va ularning oʻziga xos xususiyatlarini yoritib bering.
3. Bolalar oʻyinchoqlariga qoʻyiladigan asosiy talablar nimalardan iborat?
4. Maktabgacha ta'lim tizimida oʻyin texnologiyasining maqsad va vazifalari nimadan iborat?
5. Interfaol oʻyinlarning oʻziga xos tomonlari nimalardan iborat?

Nazorat uchun savollar

1. Nazorat savollari.
1. “Yosh avlodni aqliy tarbiyalash mohiyatini ochib bering va uning hozirgi vazifalarni belgilang
2. Aqliy faoliyat koʻnikmalari va malakalarini shakllantirish bilish jarayonlari va qobiliyatlarini rivojlanishini ifodalaydi.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashni asosiy vositalarni ta'riflang.
4. Bolalarga ta'lim berish jarayoniga tarbiyachi tomonidan qoʻllaniladigan metod va usullarni ifodalang.

9. GLOSSARIY

Fan bo'yicha qisqacha izohli lug'at.

- Axloq** (lotincha «moralis» - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) - ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.
- Axloqiy ong** – shaxsga axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalari to'g'risidagi nazariy bilimlarni berish asosida hosil qilinuvchi ong shakli.
- Axloqiy tarbiya** – muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.
- Aqliy tarbiya** - shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.
- Baynalminallik** («inter» – orasida, o'rtasida, aro, «natio» – xalq)– o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon yetkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma'naviy-axloqiy fazilat.
- Bilim** – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.
- Bilim olish** – borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni.
- Vatanparvarlik** (lotincha «patriotes» – vatandosh, «patris» – vatan, yurt) - shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'sgan vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi hamda uning porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat.
- Davlat ramzlari** - muayyan millat, elatning etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari va maqsadi, hududiy, ijtimoiy-g'oyaviy birlik mohiyatini anglatishga xizmat qiluvchi tasviriyl belgilar majmui.
- Davlat ta'lim standarti** – 1) ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar bitiruvchilar erishishlari zarur bo'lgan ta'lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat; 2) o'quv fani bo'yicha ta'limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat; 3) ta'lim dasturlari mazmunining minimumi, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo'yiluvchi talablar.
- Didaktika (ta'lim nazariyasi)** – (yunoncha «didaktikos» “o'rgatuvchi”, «didasko» – “o'rganuvchi”) - ta'limning nazariy jihatlarini (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolari)ni o'rganuvchi fan.

- Didaktika tamoyillari** (lotin tilidan «principium» - har qanday nazariyaning asosiy, boshlang'ich, dastlabki holati) –ta'limni tashkil etishga qo'yilgan me'yoriy talablarni ifodalovchi, shuningdek, ta'lim jarayonining asosiy maqsadi va qonuniyatlariga muvofiq uning dastlabki holatini belgilovchi qarashlari.
- Didaktik o'yin** – o'rganilayotgan ob'ekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi.
- Dunyoqarash** - tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimi.
- Jazolash** - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berish usuli.
- Jamoa** (lotincha «kollektivus» so'zining tarjimasi bo'lib, yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh kabi ma'nolarni anglatadi) - bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh.
- Jamoa an'analari** – jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odat.
- Jamoaning norasmiy tuzilmasi** - jamoa a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy-psixologik munosabatlarning umumiy tizimi, shuningdek, jamoada mikroguruhni tashqil qiluvchi ayrim shaxslar o'rtasidagi tanlash munosabatlarining mazmuni.
- Jismoniy tarbiya** - o'quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi.
- Idrok** – aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni.
- Ijtimoiy adaptatsiya** (yunoncha adapto - moslashish) – anomal bolalar individual yoki guruhli xulqlarining ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidolari tizimiga mos kelishi.
- Ijtimoiylashuv** – ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi.
- Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar** - o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari.
- Individ** (lotincha “individuum” bo'linmas, yagona, alohida degan ma'nolarni anglatadi) – xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.
- Individuallik** - shaxsning o'ziga xos xususiyatlari.
- Institut** - bilimlarning bitta sohasi doirasida aniq yo'nalishlar bo'yicha oliy va qoidaga ko'ra oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.
- Iqtisodiy tarbiya** - o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oilaviy byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik jarayon.
- Iqtisodiy ta'lim** - o'quvchilarga xo'jalik yuritish tizimi (oilaviy byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish,

savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar) to'g'risidagi nazariy bilimlarni berishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Yosh xususiyatlari - muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash - mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirish maqsadida tashkil etiluvchi ta'lim bosqichi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» - «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili hamda ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish mazmunini belgilab beruvchi yuridik hujjat.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli - shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o'zaro hamkorligi, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik asosida «yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi» mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha Uning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

uzluksiz ta'lim – malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi;

ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgalik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilaydigan asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnikaviy jihatdan ta'minlash jarayonining faol ishtirokchisi.

Kategoriya - fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha.

Ko'nikma – shaxsning muayyan harakat yoki faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Ko'rgazmali metodlar - predmet, hodisa yoki jarayonlar mohiyatini tabiiy holatda namoyish qilish, ularning maketlarini ko'rsatishda qo'llaniluvchi usullar.

Loyihalashtirish (rejalashtirish) - o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish.

Logopediya (yunoncha «logos» – so'z, nazariya, ta'limot, «paideia» -tarbiyalash) - nutqiy nuqsonlarni o'rganish, ular kelib chiqishining oldini olish va ularni

qisman yoki to'liq tuzatish masalalarini o'rganuvchi fan; korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Madaniyat («cultura» so'zidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

Mazmun (ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida shaxs tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Maktabgacha ta'lim - bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlovchi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otuvchi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlovchi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriluvchi ta'lim bosqichi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

Maktabdan tashqari ta'lim - madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda yo'lga qo'yiluvchi, bolalar hamda o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim bosqichi.

Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Materialni og'zaki bayon qilish metodlari – o'quv materiali mohiyatini og'zaki (hikoya, tushuntirish, maktab ma'ruzasi kabi shakllarda) yoritishda qo'llaniluvchi usullar.

Mafkura (arabcha «mafkura» - naqtai nazar va e'tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, shuningdek, ma'naviy-axloqiy yuksaklik, ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarning rivojini ta'minlovchi, ularning maqsad va yo'nalishlarini aniqlashda yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar tizimi.

Mashq va o'rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari - muayyan mashqyordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirish usullari.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Ma'naviyat (arabcha «ma'naviyat» - ma'nolar majmui) – mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g'oyalar majmui.

Ma'rifat – shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni singdirish, ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, ularni targ'ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Ma'ruza – yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish shakli.

- Metod** - yunoncha tarjimasi «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li» kabi ma'nolarni anglatadi.
- Metodika** (fan sifatida)– xususiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.
- Mehnat tarbiyasi** - shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.
- Munozara** (tarbiya metodi sifatida) - tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli.
- Nazorat** (ta'lim jarayonida)– ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayoni.
- Nafosat didi** - shaxsning buyum yoki hodisaga nisbatan munosabat bildirish turi, ob'ektiv nafosat o'lchovi.
- Oila** – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.
- Oilaviy munosabatlar** – ota-onalar (yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar.
- Oila tarbiyasi** – ota-onalar (yoki bola kamoloti uchun mas'ul shaxslar) tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama yetuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.
- Oligofreniya** (yunoncha «olygos» – kam, «phren» - aql) - bu natal (tug'ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan aqliy yoki psixik rivojlanmaslik.
- Oliy ta'lim** - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriyat hamda magistratura)da tashkil etiladigan hamda mutaxassisliklar yo'nalishlari bo'yicha xalq xo'jaligining turli sohalariga oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlab beruvchi ta'lim bosqichi.
- Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim** - jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta'lim – kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida aspirantura, ad'yunktura va doktoranturada ta'lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladigan ta'lim bosqichi.
- Pedagogika** (yunoncha «paidagogike» bo'lib, «paidagogos» - bola, yetaklayman) – ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan.
- Pedagogika tarixi** – ta'lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda yetakchi o'rin egallagan pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalalarini o'rganadi.
- Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari** – shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, ob'ektiv va sub'ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari.

Pedagogik talab - turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari.

Pedagogik mahorat – ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur.

Pedagogik talab - turli harakatlarni bajarish, muayyan faoliyat jarayonida ishtirok etishda o'quvchi amal qilishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini ifodalovchi vazifa; tarbiyaning eng muhim usuli.

Rag'batlantirish - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usuli.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Reyting (baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash) - muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash.

Sinf - yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan, ma'lum o'quvchilar guruhi.

Surdopedagogika (yunoncha «surdus» – kar) - eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonini o'rganuvchi fan; korreksion (maxsus) pedagogikaning yana bir muhim sohasi.

Suhbat – savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi.

Tamoyil (yunoncha «principium») – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni - o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Tarbiya mazmuni - shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo'l) – tarbiya maqsadiga erishish yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari.

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

Ta'lim – o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon.

Ta'lim va tarbiya mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

Ta'lim vositalari – ta'lim samaradorligini ta'minlovchi ob'ektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproyektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va sub'ektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar.

- Ta'lim jarayoni** – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.
- Ta'lim metodlari** – ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui.
- Ta'lim muassasi Ustavi** – ta'lim muassasasiga rahbarlik mohiyatini yorituvchi hamda uning faoliyatini boshqarish tizimini aniqlovchi hujjat.
- Ta'lim konsepsiyalari** (lotin tilidan «conceptio» –tizim) – ta'lim-tarbiya mazmuni, istiqbolini yorituvchi yaxlit qarashlar tizimi; uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida ta'lim muassasalari faoliyati yo'nalishi, maqsad va vazifalarini belgilashning alohida usuli.
- Ta'lim mazmuni** – davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.
- Ta'lim maqsadi** (o'qish, bilim olish maqsadi) – ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya.
- Ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli)** – ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.
- Ta'limni boshqarish** – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollari belgilash masalalarini o'rganadi.
- Tizim** (mustaqil tushuncha sifatida) - o'zaro bog'langan ko'plab elementlar (tarkibiy qismlar) o'rtasidagi mustahkam birlik va o'zaro yaxlitlik.
- Tiflopedagogika** - (yunoncha typhlos – ko'r) – ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish muammolarini o'rganuvchi fan; korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.
- Test** - aniq maqsad asosida muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.
- Topshiriq** - o'quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladigan usul.
- Tushuntirish** - o'quv materialini mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilish.
- To'g'arak** - o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida sinfdan yoki maktabdan tashqari sharoitda uyushtiriluvchi qo'shimcha ta'lim shakli.
- Umumiy pedagogika** – maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalarini o'rganadi.
- Usul** - muayyan o'quv materialini o'zlashtirishda qo'llanilayotgan asosiy ta'lim metodi bilan birga ikkinchi bir ta'lim metodining ayrim elementlaridan foydalanish.
- Faoliyat** - shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi.
- Fuqaro** – fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxs.
- Fuqarolik** – huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik.

- Shaxs** - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.
- Shaxsni ijtimoiylashtirish** - uni jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me'yorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini o'zlashtirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayoni.
- Ekologik madaniyat** - o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.
- Ekologik ong** - tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongda ifodasi.
- Ekologik madaniyat** - o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.
- Ekologik tarbiya** - o'quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, ularning mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon.
- Estetik tarbiya** - o'quvchilarni tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go'zalligini idrok etish, to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallik olib kirish qobiliyatini tarbiyalash jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.
- O'quv dasturi** – muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtning mavzularni o'rganilishi bo'yicha taqsimlanishi, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish darajasini yorituvchi me'yoriy hujjat.
- O'quv rejasi** – ta'lim muassasida o'qitiladigan o'quv fanlarining tartibi, ularning o'quv yili bo'yicha taqsimlanishi, har bir o'quv faniga ajratiladigan haftalik va yillik o'quv soatlari, shuningdek, o'quv yili tuzilishini belgilovchi me'yoriy hujjat.
- O'quv fani** – ta'lim muassasalarida o'quvchilarning yosh, idrok etish imkoniyatlariga muvofiq ularga muayyan fan sohasi bo'yicha umumiy yoki mutaxassislik bilimlarini berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'minlovchi manba.
- O'quv qo'llanmasi** – 1) ma'lum o'quv fanlari bo'yicha metodik materiallar, tushuntirishlar, tavsiyalarni yorituvchi hamda o'qituvchi yoki o'quvchilar uchun mo'ljallangan manba; 2) muayyan fan bo'yicha tayyorlangan hamda metodik jihatidan o'quv-tarbiyaviy jarayonda bevosita foydalanish imkonini beruvchi qo'shimcha o'quv materiallari.
- Hikoya** – o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi.
- Huquqiy madaniyat** – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

10. REFERAT MAVZULARI

1. Kirish. O`zbekiston Respublikasida xalq ta'limi tizimi va uning turlari.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mazmun va mohiyati.
3. Pedagoglik kasbining jamiyatdagi o`rni.
5. Maktabgacha pedagogika fanining maqsad vazifalari.
7. Maktabgacha pedagogika fanning ilmiy tadqiqot metodlari
9. O`zbekistonda xalq ta'limi tizimi va taraqqiyotida maktabgacha ta'limning o`rni.
11. Tarbiya ijtimoiy xodisa va pedagogik jarayon sifatida
13. O`zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim to`g`risida Nizom va uning tarbiyadagi o`rni.
15. Ilk yoshdagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyasi
17. Bir yoshgacha bo`lgan bolalar tarbiyasi
19. Bolalar hayotining ikkinchi yilida rivojlanish va tarbiya
21. Bolalar hayotining uchinchi yilida rivojlanish va tarbiya
23. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini barkamol qilib tarbiyalash
25. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini sog`lom qilib tarbiyalash. Jismoniy tarbiya
27. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berish
29. Bola hayotida kun tartibi va uning pedagogik jarayondagi ahamiyati.
31. Ta'lim qoidalari
33. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishning mazmuni va metodlari
35. Ta'lim usullari
37. Bolalar bog`chasi va oilada sensor tarbiya berish
39. Barkamol shaxs tarbiyasida axloqiy va mehnat tabiyasining roli va ahamiyati

- 41.Maktabacha yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiya berish usullari.
- 43.Maktabgacha yoshdagi bolalarni jamoatchilik ruhida tarbiyalash.
- 45.Bolalarni axloqiy tarbiyalashda oila va mahallla hamkorligi
- 47.Mehnatsevarlik tarbiyasi
- 49.Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya)
- 51.Maktabgacha yoshdagi bolalarda intizomlilik va xulq-atvor madaniyatini tarbiyalash.
- 53.Maktabgacha yoshdagi bolalar-ga iqtisodiy tarbiya berish
- 55.Maktabgacha yoshdagi bola-larga huquqiy tarbiya berish
- 57.Maktabgacha yoshdagi bolalarga estetik tarbiya berish
- 59.Bolalar bog`chasida o`yin.
- 61.Bolalara bog`chasi va maktab hamkorligi
- 63.Bog`chada va oilada ta`lim-tarbiya berishning o`ziga xos xususiyatlari. Tarbiyada oilaning o`rni.
- 65.Bolalarni tarbiyalashda oilaning o`rni
- 67.Maktabgacha ta`lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning mohiyati va mazmuni
- 69.Maktabgacha ta`lim muassasalarining yillik ish rejasi, uni rivojlantirish shartlari va metodlari
- 71.Ijtimoiy maktabgacha tarbiyaning davlat xarakteri, uning xalq tizimida tutgan o`rni.
- 73.Maktabgacha ta`lim muassasalarining hujjatlari.
- 75.Maktabgacha ta`lim muassasalarini tashkil qilishning maqsad va vazifalari
- 77.Mudira va unga qo`yiladigan talablar.

11. ADABIYOTLAR RO`YXATI

I. RAG`BATLANTIRUVCHI ADABIYOTLAR

1. И.А.Каримов. Ўзбекистон буюк келажак сари. Т., «Ўзбекистон» 1998.

2. И.А.Каримов. Миллий истиқлол ғояси асосий тушунча тамойиллар. Т., «Ўзбекистон» 2000.
3. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Т.: “Ma'naviyat”, 2008.
4. I.A.Karimov Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oily maqsadimiz. – Т.: “O'zbekiston”, 2008
5. I.A.Karimov. Eng asosiy me'zon – hayot haqiqatn aks ettirish.- Т.: “O'zbekiston”, 2009
6. I.A.Karimov. Jahon moliyaviy – iqtisodiy nqirozi, O'zbekipston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.- Т.: “O'zbekiston”, 2009.
7. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni.// Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Т., “Sharq”, 1998 y.
8. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. .// Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Т., “Sharq”, 1998 y.

II. ASOSIY DARSLIK VA O'QUV QO'LLANMALAR

- 11.П.Юсупова. Мактабгача тарбия педагогикаси. -Т., «Ўқитувчи»1993.
- 12.О.У.Хасанбоева ва бошқалар. «Мактабгача таълим педагогикаси». Т., «Илм зиё», 2006.
- 13.«Учинчи мингйилликнинг боласи». Таянч дастури. Т., “Маърифат мададкор”, 2002 й.
- 14.«Учинчи мингйилликнинг боласи». Методик қўлланма. Т., 2000 й.
- 15.В.И.Логинова, П.Г.Саморуковалар тахрири остида «Мактабгача тарбия педагогикаси» . «Ўқитувчи» Т., 1991 й.
- 16.У.Оттавалиева.Бола тарбиясида боғча ва оила ҳамкорлиги. «Ўқитувчи» Т.,1994 й.
- 17.Н.У.Бикбаев, Х.Н.Косимова, З.Ибрагимова. Мактабгача ёшдаги болаларда математик тасаввурларни шакллантириш. «Ўқитувчи»Т., 1995 й.
- 18.Ш.Шодмонова. Мактабгача педагогика. Т., 2009 й
- 19.М.Даминов, Т.Адамбекова. Уйин машғулоти. «Ўқитувчи» Т.,1993 й.
- 20.Мактабгача ёшдаги болалар таълим- тарбиясига қўйиладиган давлат талаблари. Т., Ўз ПФИТИ,2000.Тузувчилар Расулова.М, Абдурахмонова.Х ва бошқалар.

III.QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

- 10.Maktabgacha tarbiya muassasasi to'g'risida Nizom. Т., 1995 y.
- 11.Ўзбекистон Республикаси мактабгача тарбия Концепцияси. Т. 1992.
- 12.Х.Ибрагимов, Ш.Абдуллаева. Pedagogika. Т.,”Fan”, 2008 yil
- 13.Sh.Abdullayeva, D.Axatova, B.Sobirov,S.Sayitov.Pedagogika. Ekspress-ma'lumotnoma.Т., “Fan”,2005 yil
- 14.Педагогика. Мунавваров тахрири остида. -Т., «Ўқитувчи», 1997.
- 15.О.Хасанбоева. Педагогика тарихидан хрестоматия. -Т., «Ўқитувчи», 1993.
16. О.У.Хасанбоева. Оила педагогикаси. “Алоқачи”. Т., 2007 й.
- 17.15. www.Ziyo.net
- 18.16. <http://www//uralrti.ru>.

12. TAYANCH KONSPEKT

**Mavzu: KIRISH. PEDAGOGIKA FANLARINI O'QITISH METODIKASI
FANINING BAHSI VA ILMIY-TADQIQOT METODLARI.**

Reja:

1. Pedagogika fanlarni o'qitish metodikasi fanining va uning mohiyati
2. Pedagogika fanlarni o'qitish metodikasi fanining predmeti va uning vazifalari
3. Pedagogika fanlarni o'qitish metodikasi fanining asosiy kategoriyalari.
4. Maktabgacha pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.
5. Maktabgacha pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.

Axborot manbalari:

1. П.Юсупова. Мактабгача тарбия педагогикаси. -Т., «Ўқитувчи»1993.
2. О.У.Хасанбоева ва бошқалар. «Мактабгача таълим педагогикаси». Т., «Илм зиё», 2006.
3. «Учинчи мингйилликнинг боласи». Таянч дастури. Т., “Маърифат мададкор”, 2002 й.
4. «Учинчи мингйилликнинг боласи». Методик қўлланма. Т., 2000 й.
5. В.И.Логинова, П.Г.Саморуковалар тахрири остида «Мактабгача тарбия педагогикаси» . «Ўқитувчи» Т., 1991 й.
6. У.Отавалиева.Бола тарбиясида боғча ва оила ҳамкорлиги. «Ўқитувчи» Т.,1994 й.
7. Ш.Шодмонова. Мактабгача педагогика. Т., 2009 й
8. Мактабгача ёшдаги болалар таълим- тарбиясига қўйиладиган давлат талаблари. Т., Ўз ПФИТИ,2000.Тузувчилар Расулова.М, Абдурахмонова.Х ва бошқалар.

Mavzu: МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALAR RIVOJLANISHINING UMUMIY QONUNIYATLARI

Reja:

1. Shaxsni rivojlantirish haqida tushuncha.
2. Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning roli.
3. Bolaning rivojlantirishda faoliyatning roli.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh hususiyatlari. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni jismoniy rivojlanishi

Axborot manbalari:

1. П.Юсупова. Мактабгача тарбия педагогикаси. -Т., «Ўқитувчи»1993.
2. О.У.Хасанбоева ва бошқалар. «Мактабгача таълим педагогикаси». Т., «Илм зиё», 2006.

3. «Учинчи мингйилликнинг боласи». Таянч дастури. Т., “Маърифат мададкор”, 2002 й.
4. «Учинчи мингйилликнинг боласи». Методик қўлланма. Т., 2000 й.
5. Ш.Шодмонова. Мактабгача педагогика. Т., 2009 й
6. М.Даминов, Т.Адамбекова. Уйин машғулоти. «Ўқитувчи» Т.,1993 й.
7. Мактабгача ёшдаги болалар таълим- тарбиясига қўйиладиган давлат талаблари. Т., Ўз ПФИТИ,2000.Тузувчилар Расулова.М, Абдурахмонова.Х ва бошқалар.

3-mavzu: MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI TARBIYACHISI VA DEMOKRATIK JAMIYATDA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR.

1. 1O'zbekistonda xalq ta'limi tizimi.
2. Xalq ta'limi tizimi va uning turlari.
3. . Maktabgacha ta'limning vazifalari va turlari

Axborot manbalari:

1. П.Юсупова. Мактабгача тарбия педагогикаси. -Т., «Ўқитувчи»1993.
2. О.У.Хасанбоева ва бошқалар. «Мактабгача таълим педагогикаси». Т., «Илм зиё», 2006.
3. «Учинчи мингйилликнинг боласи». Таянч дастури. Т., “Маърифат мададкор”, 2002 й.
4. «Учинчи мингйилликнинг боласи». Методик қўлланма. Т., 2000 й.
5. Ш.Шодмонова. Мактабгача педагогика. Т., 2009 й
6. М.Даминов, Т.Адамбекова. Уйин машғулоти. «Ўқитувчи» Т.,1993 й.
7. Мактабгача ёшдаги болалар таълим- тарбиясига қўйиладиган давлат талаблари. Т., Ўз ПФИТИ,2000.Тузувчилар Расулова.М, Абдурахмонова.Х ва бошқалар.

13. O'QUV MATERIALLARI (MA'RUZA MATNI)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA KAFEDRASI

PEDAGOGIKA FANLARINI O'QITISH METODIKASI

fanidan ma'ruzalar matni

**1 Mavzu: PEDAGOGIKA FANLARINI O'QITISH METODIKASINING
PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI.**

R e j a:

1. Pedagogika fanlarini o'qitish metodikasi ijtimoiy fan sifatida, uning maqsad va vazifalari
2. Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash.


3. Pedagogika fanini o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi.
4. Pedagogika fanini o'qitish metodikasining asosiy tushunchalari, ilmiy-tadqiqot metodlari.

Asosiy tushunchalar:

«O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risi»dagi qonun asosida ta'lim islohatlari, barkamol avlod tarbiyasi, pedagogika fanining nazariy amaliy va milliy asoslari, pedagogik bilimlar majmuasi, pedagogik mahorat, bilim, ko'nikma, malakalar, fanlararo bog'liqlik, ilmiy tadqiqot metodlari

«O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risi»dagi qonun, milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasi talablari asosida oliy o'quv yurtlarida bo'lg'usi mutaxassislarni aqliy, ahloqiy intellektual, estetik va jismoniy jihatdan komil insonlar qilib tarbiyalashda «Pedagogika fanlarni o'qitish metodikasi» fani ustuvor fanlardan biri hisoblanadi. Mazkur fanning dasturi oliy o'quv yurtining bo'lajak o'qituvchilarini pedagogika fanining nazariy amaliy va milliy asoslari, pedagogik bilimlar majmuasi, pedagogik mahorat, bilim, ko'nikma, malakalar va yangi pedagogik texnologiya asoslari bilan qurollantirishga xizmat qiladi. «Pedagogika fanlarni o'qitish metodikasi» predmetining dasturi yaxlit pedagogik jarayonni tashkil etishga, boshqarishga va ta'minlashga xizmat qiluvchi ta'lim tarbiyaning barcha qirralarini, mazmun, metod, shakl va vositalarini keng miqyosda yoritib beradi.

“Maktabgacha pedagogika fanini o'qitish metodikasi”ning predmeti xalq ta'limining asosiy bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim sohasi uchun tarbiyachilar tayyorlash vazifasini nazarda tutadi. “Maktabgacha pedagogika fanini o'qitish metodikasi” ta'lim berishning mazmuni, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtida amalga oshiriladigan o'quv-uslubiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni o'rganadi.



Ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash ta'lim va maorifni yuksaltirish milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Malakali kadrlarni talab etayotgan bugungi kunda talaba – yoshlarni pedagogika sohasidagi innovasion yangiliklardan xabardor etish maqsadga muvofiq bo'lib, bu borada pedagogika oliy o'quv yurtlari va fakultetlarda malakali o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogika fanini o'qitish metodikasining o'rni va roli benihoyat kattadir. Zero, pedagogik bilim, ko'nikma, malaka hamda tajribaga ega bo'lgan kishigina zamonaviy o'qituvchi bo'lishi mumkin.

Pedagogika fani yutuqlarisiz jamiyatni olg'a siljitish juda qiyindir. Pedagogika fanini hamma, ayniqsa, pedagogik ishini o'ziga kasb qilib olgan kishilar xam nazariy, xam amaliy jihatdan puxta o'rganishlari lozim. Pedagogika fanidan bexabar tarbiyachilar o'zlari bilmaganlari holda bolalarda kamchilik, nuqsonlarning vujudga kelishiga sabab bo'ladilar, ularning qobiliyatlarini bo'g'ib qo'yadilar, o'sishiga halal beradilar.

O'zbek pedagogikasining vazifasi respublikamizda yashovchi turli millat-elatlarning orzu-istaklariga monand ta'lim-tarbiyaning ham nazariy ham amaliy muammolarini milliy qadriyatlar asosida to'g'ri hal etib berishdir.

Har bir mustaqil fan o'zining predmeti va metodologik asoslariga egadir. Jumladan, pedagogika fan sifatida shakllanib, ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalari, ularning mazmuni, usullari hamda tashkil etish shakllarini o'rganuvchi sohaga aylandi

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qator vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi, jumladan kadrlar salohiyatini saqlash va takomillashtirishni, tarbiyachi o'qituvchi, muallim kasbini obro'-e'tiborini, o'qituvchi kadrlarning kasb-malaka, ma'naviy-ma'rifiy, iqtisodiy va huquqiy darajasini oshirishni ko'zda tutadi. Yangi turdagi o'rta maxsus o'quv yurti hisoblangan kasb-hunar kollejlari ta'lim bera oladigan pedagoglarni tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.


Mamlakatimiz ta'limi oldiga raqobatbardosh kadrlar tayyorlash vazifasi hamda o'quv yurtlarini ilmiy texnikaviy, moddiy va ma'naviy kadrlar salohiyatini va ta'lim dasturlarini jahon andozalari darajasiga ko'tarish vazifasi qo'yildi. Bunday vazifalarni hal etish yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash, dunyoqarashini milliy istiqlol g'oyalari asosida shakllantirish, ularni erkin fikrlaydigan ongli faoliyat yurita oladigan komil inson qilib tarbiyalash bilan belgilanadi. Bu esa talabalarni pedagogik amaliyotini mazmun va sifat jihatdan yuqori darajada o'tkazishni talab qiladi. Pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'qituvchi kadrlarni tayyorlash tizimini sifat jihatdan yangilashni, ularning dunyoqarashini milliy istiqlol g'oyalari asosida shakllantirishni ko'rsata oladigan, ya'ni keng ma'nodagi kasbiy pedagogik tayyorgarlikni nazarda tutadi.


Pedagogik kasbga tayyorgarlikning muhim milliy va nazariy asoslari mavjud bo'lib ularga quyidagilar kiradi;

- o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va kafolati;
- o'qituvchi ijodkorligi, izlanuvchanligi va shu asosda o'qituvchi tayyorlash jarayoniga tabaqalashtirilgan yondoshuvning mavjudligi;
- ta'lim tarbiya jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlik g'oyalari asosida uyushtirish;
- o'qituvchi shaxsini ijtimoiy axloqiy ma'naviy va umumma'daniy rivojlantirish;
- pedagogik ta'limning axborot texnologiyasini joriy qilish va undan foydalanishga erishish;


Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda umumpedagogik tayyorgarlik, professional(kasbiy)-pedagogik mohirlik, kasbiy-uslubiy(metodik) mohirlik masalalariga ham e'tibor qaratish lozim. **Umumpedagogik tayyorgarlik**- pedagogikaning kategoriyalari va metodologik asoslari haqidagi bilimlarni shakllantirish, psixologik-pedagogik sezgirlik, kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvurlar, tarshiklotchilik qobiliyatlari, talabchanlik, odamshavandalik, maqsadga intiluvchanlik, qat'iylik, vazminlik va o'zini tuta olish, bolalarning, o'spirinlarning hamda yosh yigit-qizlarning yoshiga ko'ra anatom-fiziologik rivojlanishining asosiy qonuniyatlari haqidagi bilimlarni, o'quvchilarning individual o'ziga xosliklarni, pedagogik ishlar bilan qiziquvchanligini shakllantirishdir. Professional(kasbiy)-pedagogik mohirlik har xil shart-sharoitlarda pedagogning o'z kasbiy faoliyatini bajarish qobiliyati bo'lib, uning asosida ijtimoiy-siyosiy, umummilliy, maxsus, psixologik-pedagogik, kasbiy-uslubiy bilimlar va malakalarning shakllangan tizimini qo'ulg'a kiritish, o'zlashtirib olish yotadi. Kasbiy-uslubiy(metodik) mohirlik- o'qituvchi, mazkur fanni olib boruvchining mavjud bo'lgan pedagogik va uslubiy bilimlar asosida malakaviy faoliyatni bajara olish qobiliyatidir. Shunday qilib, pedagog ikki turdagi: kasbiy va malakaviy tayyorgarlikka ega bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchini ta'lim beradigan fani yuzasidan malakasiga hamda kasbiga ko'ra haqli ravishda pedagog deb ataydilar.

Pedagogika fanining tarmoqlari keng va xilma xildir





Pedagogika fanlarini o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi. *Har qanday fan ham yakka holda o'zi mukammallikka erisha olmaydi. U boshqa fanlar bilan aloqada, ularning yutuqlaridan foydalangan holda mazmunan boyib boradi. Xuddi shuningdek pedagogika fani, jumladan uni o'qitish metodikasi ham hozirgi kunimizda umumbashariyat tomonidan yaratilgan bilimlar va kelajak haqidagi ma'lumotlarga tayanadi. U tabiat va jamiyat rivojlanishi qoidalari to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanadi, o'zi ham ijtimoiy fan sifatida rivojlanib, insonning ijtimoiy kamolotiga xizmat qiladi. U pedagogika, maktabgacha pedagogika, psixologiya, bolalar psixologiyasi, ijtimoiy pedagogika, ijtimoiy psixologiya, pedagogika tarixi, falsafa, tarix, iqtisod, etika va estetika, biologiya va gigiena, siyosatshunoslik va boshqa fanlar bilan uzviy aloqadadir*



Har bir o'qituvchi-tarbiyachi va o'quvchi o'z ona yurti tarixini bilishi, vatanparvar bo'lishi lozim. Ta'lim-tarbiya tarixi, pedagogika tarixi fanidan xabardor bo'lmay turib, o'qituvchilik qilish mumkin emas.

O'qituvchi o'quvchilarga bilim berish, ma'lumotli qilish, tarbiyalash maqsadida unga tizimli ta'sir ko'rsatadi. Bunda psixologiya va ijtimoiy omillarga asoslanadi. Ya'ni ta'sirning samarasini bilish uchun o'quvchining sezgi, idroki, tasavvur, diqqat va tafakkur - fikrlash jarayonining qanday kechayotganini bilishga asoslanib ta'sir ko'rsatish rejasini belgilaydi. Ayniqsa, yosh davrlari psixologiyasini o'qituvchi chuqur bilishi talab etiladi. Buni yaxshi bilgan o'qituvchi esa har bir bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda bolaga yondashadi va unga samarali ta'sir ko'rsata oladi. Ma'lum ma'noda o'qituvchilarga xizmat qiladigan psixologiya turkumidagi fanlarni ham pedagogika fanlari tizimiga kiritish mumkin.

Falsafa fani esa pedagogika o'qitish metodikasi fani uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Falsafa bu fanni ilmiy usullar bilan qurollantiradi, ta'lim va tarbiyaning ob'ektiv qonun-qoidalarini ishlab chiqishga manba bo'ladi.

Etika va estetika fanlari pedagogikaning tarbiya nazariyasi bo'limi bo'yicha ma'lumot beradi. Bu fan o'quvchining xulqi, odobi me'yorlarini aniqlash, belgilash hamda go'zallikni chin ma'noda tushuntirish, o'quvchi ongida hayotning jozibali, nafis qirralariga bevosita rag'bat uyg'otish borasida pedagogika fani bilan aloqadadir.

Fanlarni o'qitish yo'llari didaktikaga aloqador, chunki har qanday fanni o'qitilish usuli shu fanning mazmuni, tizimini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirib olinishiga xizmat qiladi. Demak, pedagogika fani bolalar anatomiyasi, fiziologiyasi, bolalar gigienasi va pediatriya kabi fanlar bilan ham mustahkam aloqada, bu fanlar bir-biriga chambarchas bog'liqdir.

Turli sohada bilim oluvchi o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashning nazariy hamda amaliy tomonlarini pedagogika fani tarmoqlari yoritib beradi. Pedagogikaning quyidagi tarmoqlari mavjud:

Umumiy pedagogika (maktab yoshidagi o'quvchilarni tarbiyalash va o'qitish haqida); maktabgacha tarbiya pedagogikasi (maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash bilan shugullanadi); madaniy-oqartuv pedagogikasi (madaniy - ma'rifiy ishlarni boshqarish muammolarini o'rganadi); kasb-hunar ta'limi pedagogikasi; harbiy pedagogika (armiya sardorlari va o'quvchilarini vatanimizning shon-sharafi va or-nomusi uchun yyetuk kurashchi, harbiy qurol-yarog'lardan samarali foydalana oladigan yoshlarni tarbiyalash yo'nalishi); oila pedagogikasi; maxsus pedagogika (Oligofreno-akli zaiflarga, tiflo-ko'zi ojiz bolalarga, surdo - kar-soqov bolalarga tarbiya berish); metodika.

Pedagogika o'qitish metodikasi fanining asosiy tushunchalari. Har bir fanning mazmun va mohiyatidan kelib chiqadigan, uning asosiy tomonlarini yoritishga xizmat qiladigan va eng ko'p ishlatiladigan asosiy tushunchalari bo'ladi. Xuddi shuningdek pedagogi o'qitish metodikasi fanining ham asosiy kategoriyalari mavjud. Shulardan biri va asosiysi sifatida «Pedagogika» atamasini olishimiz mumkin. Bu so'z «Pein»- bola va «agogein»- yetaklamoq degan ma'noni bildiruvchi yunoncha «paydagogos» so'zlaridan paydo bo'lgan. Buning izohi quyidagicha: Eramizdan oldingi III-I asrlarda qadimgi Yunonistonda quldorlarning bolasini ovqatlantiradigan, sayrga olib boradigan, tabiat qo'ynida o'ynatuvchi tarbiyachi - qullarni «pedagog» deb atashgan. Bugungi kunda «pedagog» so'zi keng qamrovli bo'lib, yangicha ma'no kasb etgan.

Pedagogikaning yana bir muhim tushunchalaridan biri «Didaktika» so'zidir. Qadimgi Yunonistonda quldorning bolasiga maktabda ta'lim beruvchi kishini «Didaskl» deb atashgan. «Didasko» o'qitish, o'rgatish, bilim berish ma'nolarini anglatadi. Pedagogika fanining Didaktika - ta'lim nazariyasi qismi xuddi shu qadimiy va yunoncha «o'qituvchi» nomi bilan atalishi bejiz emas.

Pedagogika faniga tavsif berilganda «ta'lim», «tarbiya», «ma'lumot», «shaxs», «rivojlanish», «shakllanish» so'zlari ishlatiladi. Bu so'zlar o'zaro bog'langan bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Ular pedagogikaning asosiy kategoriya-tushunchalari deb ataladi.

Bulardan tashqari «o'quvchi», «o'qituvchi», «pedagogik jarayon», «ta'lim jarayoni», «tarbiya jarayoni», «ta'lim-tarbiya mazmuni», «ta'lim-tarbiya metodlari», «ta'lim -tarbiya qoidalari», «tashkiliy shakllari» kabi tushunchalar ham ishlatiladi.

Tarbiya muayyan maqsadga yunaltirilgan tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi qo'shaloq jarayon bo'lib, bunda tarbiyachi o'zi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun ularning ruhiyatiga ma'lum maqsadga ko'ra tizimli ta'sir ko'rsatadi. Tarbiya bola tug'ilganidan boshlab umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir

Ta'lim- maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, bilim, qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir

Ma'lumot - ta'lim - tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmuidir.

Rivojlanish kishidagi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayon bo'lib, u barcha tug'ma va egallangan miqdor va sifat o'zgarishlarini o'z ichiga oladi. Rivojlanish deb bola vaznining oshishi, suyak va muskul tizimining, tanosil a'zolarining, nerv funksional faoliyatining kamol topishi, aql-zakovatining shakllanishiga aytiladi.

Shaxsning har tomonlama kamolga etishi- ma'lum bir real tarixiy shart-sharoitlarda amalga oshirish mumkin bo'lgan qobiliyatlar va iqtidorlarning, uning mohiyatini tashkil etadigan hamma kuchlarning to'liq va batamom rivojlanishidir. (I.Tursunov. Pedagogika kursi, T.1997y. 17 b)

Pedagogik faoliyat - estetik, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy maqsadlarga muvofiq ravishda yosh avlodni hayotga tayyorlashning aqlan o'ylab ko'rilgan, katta yoshdagilarning ijtimoiy zarur bo'lgan mehnatining o'ziga xos turidir.

Pedagogik jarayon - ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan kattalarning pedagogik faoliyati ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan hamda tarbiyachining yo'naltiruvchi va olib boruvchi rahbarlik roli natijasida bolaning o'z-o'zini taraqqiy ettirishidir.

Pedagogik muloqat- o'quv- tarbiya jarayoni davomida o'qituvchi (pedagog)ning o'quvchilar bilan kasbiy muloqoti hisoblanadi.


Kasbga yo'naltirish- o'quvchining o'z ehtiyojini oqilona cheklaydigan shaxs isfatida kamolotga etishining pedagogik jarayoni bo'lib, nafaqat pedagogik tashqi ijtimoiy-iqtisodiy, balki psixologik, tibbiy, huquqiy muammo hamdir.

Pedagogika o'qitish metodikasi fanining ilmiy-tadqiqot metodlari (usullari). Har qanday fan o'zining ilmiy-tadqiqot usullariga ega. Bu usullari orqali o'z mazmunini boyitib, yangilab boradi. Shu ma'noda pedagogika fanini o'qitish metodikasining ilmiy-tadqiqot metodlari

deganda yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish yo'llari, uslublari va vositalari majmuini tushunamiz.

Pedagogikada shunday maxsus metodlar mavjudki, ular yordamida ta'lim-tarbiya jarayoniga oid muhim faktlar, turli pedagogik vaziyatlar mohiyatlari, mexanizmlari, xususiyatlari o'rganiladi.

Hozirda pedagogikadagi kabi uni o'qitish metodikasida ham quyidagi ilmiy-tadqiqot usullari qo'llaniladi: kuzatish usuli; suhbat usuli; bolalar ijodini o'rganish usuli; test-surovnomalar usuli; maktab hujjatlarini tahlil qilish usuli; statistika ma'lumotlarini tahlil qilish usuli; matematika-kibernetika usuli.



Kuzatish usulidagi kuzatishlar faqat oddiy xodisalarni kuzatish, ayrim dalillarni yig'ish, hisobga olish, aniqlash uchungina emas, balki ta'lim tarbiya jarayonini yaxshilash maqsadida amalga oshiriladi. Ilmiy kuzatishlar nafaqat o'quvchilarning tabiiy faoliyatini, balki ularning ilmiy dunyoqarashlari shakllanishi, fikrlash jarayoning kuchini, xulosalar chiqarishdagi faolliklarini aniqlaydi, ularni tahlil etadi. Bunday kuzatishlar pedagogika fani mazmunini boyishiga sabab bo'ladi.

Suhbat usulidan ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash yoki yaratilgan ilmiy farazlarning qanchalik to'g'ri ekanligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Suhbat yakka yoki guruhli tarzda olib boriladi. Suhbatni o'tkazish rejasi tuziladi, uni amalga oshirish yo'llari belgilanadi, natijalar tahlil qilinadi va xulosa chiqariladi. Suhbatdoshning ruhiy holatini ham hisobga olish lozim bo'ladi.

Bolalar ijodini o'rganish orqali o'quvchining o'ziga xos individual faoliyatiga doir omillar tahlil qilinadi. Yoshlarning turli yozma daftarlari, kundaliklari, yozgan xatlari, she'r va hikoyalari, hayotiy rejalari, insholari, turli yozma hisobotlari ular ma'naviyatini o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Bolalar ijodini fan olimpiadalari, konkurslar, maktablar bo'yicha ko'rgazmalar, sayohatlar orqali o'rganish mumkin.

So'rovnoma, testlardan foydalanish pedagogikaning yyetakchi tadqiqot usullaridandir. Bunda oz vaqt ichida o'quvchilarning fikrini, bilimini yoppasiga aniqlash va tahlil etish mumkin.

Ta'lim muassasasi hujjatlarini tekshirish orqali o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasi, ularning pedagogik faoliyati haqida aniq ma'lumotlar olinadi. Ta'lim muassasasi hujjatlariga o'quvchi-o'qituvchilar soni, shaxsiy hujjatlari, sinf jurnallari, buyruq daftarlari, pedagogik kengash qarorlari, maktabning rejadagi pul xisobi, uning sarflanishiga oid hujjatlar kiradi.

Eksperimental tajriba ishlari asosan ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbqiqi jarayonlarini tekshirish,, aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Statistika usuli orkali nafaqat ilmiy izlanishlar borasidagi, balki xalq ta'limi sohasidagi mablag'lar, qurilishlar, darslik va qo'llanmalar yaratilishi, kadrlar tayyorlash kabilar xam aniqlanadi.

II Mavzu: Kadrlar tayyorlash milliy dasturini metodik ta'minlashda pedagogika fanining vazifalari

R e j a:

1. Pedagogika fanining paydo bo'lishi va taraqqiyoti.
2. Pedagogika fanining tarkibida maktabgacha pedagogikaning rivojlanishi.
3. Milliy pedagogikada maktabgacha ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limotlar.
4. Mustaqil O'zbekistonda maktabgacha ta'limni rivojlanish istiqbollari.

Asosiy tushunchalar:

Kishilik jamiyati taraqqiyoti, tarbiyaning paydo bo'lishi, qadimgi yunon faylasuflari Suqrot, Aflotun, Aristotel, Demokritlarning ta'lim-tarbiya to'g'risida, "Avesto" da va shaq mutafakkirlaridan Forobiy, Ibn Sino, Beruniylarning pedagogik qarashlari, maktabgacha pedagogika rivojlanishi, mutafakkirlar maktabgacha pedagogika to'g'risida, hozirda maktabgacha pedagogikani takomillashtirish to'g'risida.

XXI asr bo'sag'asida ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql zakovati va ma'naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun insonparvarlik bozor iqtisodiyoti asosida huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurishining bosh tamoyili sifatida bo'lib qoldi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida ta'lim davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilinishi pedagogika fani zimmasiga juda katta mas'uliyatli ulug'vor vazifalarni yukladi. Juda boy ilmiy, ma'naviy, madaniy, diniy merosimizni qayta tiklana boshlandi.

Prezidentimiz ma'naviyatni aql - axloq, ongli amaliy faoliyatida shakllanib rivojlanishi haqida: "Ma'naviyat - taqdirning ehsoni emas. Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak" - degan edilar.

Har bir mustaqil fan o'zining predmeti va metodologik asoslariga egadir. Jumladan, pedagogika fan sifatida shakllanib, o'zining predmetiga ega. Boshqa fanlar kabi pedagogika ham fan sifatida paydo bo'lar ekan, u avvalo jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida paydo bo'ladi. Shu sababli tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qarash lozim. Chunki tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib, jamiyatni, uning rivojlanishini tasavvur qilish qiyin.

Pedagogika fanining, ta'lim-tarbiyaning paydo bo'lishi tarixiga bir nazar tashlasak. Kishilik jamiyati paydo bo'lgach, ijtimoiy hayotda orttirilgan tajribalarni quyi avlodga o'rgatish ehtiyoji tug'ildi. Ta'lim-tarbiya ishlari bilan shug'ullanuvchi tarbiyachilar kasb-hunar xomiyarlari sifatida ajralib chiqa boshlashdi. Ularning ta'lim-tarbiya borasidagi faoliyatlari va to'plagan tajribalaridan o'rinli foydalanishlari pedagogika fanining vujudga kelishiga olib keldi. Pedagogika ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari, ularning mazmuni, usullari hamda tashkil etish shakllari haqida ma'lumot beruvchi fanga aylandi. Pedagogika o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun ta'lim-tarbiyaning mazmuni, umumiy qonuniyatlari va amalga oshirish yo'llarini o'rgunuvchi fandır.

Pedagogika atamasi qadimiy bo'lib, "bola etaklovchi" degan ma'noni bildiruvchi grekcha "paydogogos" so'zidan kelib chiqqan. Tarixiy manbalarda ko'rstilishicha, qadimgi Yunonistonda o'z xo'jayinlarini bolalarini sayr qildirgan, ehtiyot qilgan tarbiyachini, ya'ni qullarni "pedagog" ("bola yetaklovchi") deb atashgan. Keyinchalik esa maxsus o'qitilgan va pedagoglikni o'ziga kasb qilib olgan kishilarni pedagog deb atay boshlagan. Shu bilan birga ta'lim - tarbiya ishlari bilan shug'ullanuvchilar kasb - hunar homiyarlari sifatida ajralib chiqa boshlaydilar. Ularning ta'lim - tarbiya borasidagi faoliyatlari va to'plagan tajribalaridan o'rinli foydalanishlari pedagogika fanini vujudga kelishiga olib keldi. Shu asnoda dastlabki maktab ko'rinishidagi ta'lim - tarbiya muassasasi vujudga kelib taraqqiy eta boshladi.

Qadimgi yunon faylasuflari Suqrot, Aflotun, Aristotel, Demokritlarning falsafiy tizimlarida ta'lim-tarbiyaga muhim o'rin ajratildi, uni takomillashtirish to'g'risida takliflar ilgari surildi.

“Avesto” ta’limoti, “Qur’oni Karim sabog’i”, Al Buxoriy va at-Termiziy kabi hadis ilmining ulug’lari ta’lim-tarbiya jarayoni rivojiga katta hissa qo’shdilar. Sharq uyg’onish davrining yirik namoyondalaridan Abu Nosr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Kaykovus, Yusuf xos Xojib, Mahmud Qoshg’ariylar o’z ta’limotlari bilan pedagogika rivojida alohida o’rin egalladilar.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o’zining axloqiy-didaktik asarlari, ilmiy tafakkur va falakkiyot ilmi sohasida yetuk dunyoqarash sohibi bo’lgan Mirzo Ulug’bek, ma’rifiy qarashlari, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa adiblar o’zlarining o’lmas ijodiyoti bilan pedagogika fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo’shdilar.

Sharq uyg’onish davrining vakillaridan biri, yirik faylasuf va alloma **Abu Nosr Forobiy (879-950)**dir. Forobiy ko’plab fan sohalari bilan shug’ullanadi. U falsafa, psixologiya, musiqa, matematikaga oid ko’plab asarlar yaratgan. Uning ta’lim-tarbiyaga oid asarlari ham bor. «Yoshlarning aqli haqida kitob», «Ta’limning kelib chiqishi va tasnifi», «Baxt-saodatga erishuv haqida risola», «Fazilatli xulqlar» va boshqalar.

Forobiy o’z qarashlarida insonlarga doimiy ta’lim va tarbiya berish lozimligini ta’kidlagan. U o’z falsafiy qarashlarida insonparvarlik g’oyalarini ilgari suradi. O’zi madarasalarda dars beradi. O’z asarlarida fanlarning tasnifini beradi.

Forobiy asarlarida axloq tarbiyasiga alohida ahamiyat beradi. «Fozil odamlar shahri» asarida insonni barkamol bo’lishi uchun avvalo yuksak axloqli bo’lishi lozimligini o’qitiradi.

Insonga, ayniqsa, o’quv rahbarlarga xos bo’lgan asosiy sifatlarni ta’riflab beradi. Axloqni ezgu va yomon sifatlarga ajratadi. Inson doimo baxtga intilishi kerak. Allomaning inson kamolotiga oid g’oyalari hozirda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan.

O’rta asrning buyuk qomusiy olimi bo’lgan **Abu Rayxon Beruniy (973-1048)** ham tabiiy, ham ijtimoiy fanlar rivojlanishiga katta hissa qo’shgan.

Beruniyning mashhur asarlaridan: «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» (Al-osorul bokiya an il qurun ul holiya); «Turar joylar orasidagi oraliqni belgilash uchun joylarning chegaralarini aniqlash» («Geodeziya»); «Hindiston»; «Qimmatbaho toshlarni bilish haqida to’plam» («Mineralogiya»); «Kitob as-Saydona» («Tibbiyotda dorishunoslik»); «Yulduzshunoslikda boshlang’ich ma’lumotlarni anglash»; «Qonuni Mas’udiy» kabilardir.

Uning turli xajmdagi 150 ta asarlari hozirgi kunda aniqlangan, lekin shulardan 30 tasigina bizgacha etib kelgan. Ulug’ olimning turli fanlarga doir asarlari orasida uning ijtimoiy ta’limotlari, dunyoqarashi ifodalangan asarlari alohida o’rin tutadi. Masalan, «Kitob fi axborotil mubayyizot vilqaromita» («Oq kiyimliklar va karamatiylar xabarlar haqida kitob»), «Kitobul maqolot val-arz vad-diyonot» («Maqolalar, e’tiqodlar va dinlar haqida kitob»), «Geodeziya», «Mineralogiya» nomlari bilan tarjima qilingan asarlari ham ana shular jumlasidandir.

Olim «Mineralogiya» nomli asarida inson er yuzidagi barcha mavjudotlarga qaraganda mas’uliyatliroq vazifalarni bajarishi kerakligini quyidagicha ifodalaydi: «Inson tabiatning eng oliy zoti kamolotidir, inson zoti barcha hayvonlardan yuqori turadi... Insonga katta sharaf ko’rsatilgan — unga aql-zakovat va kuch armug’on etilgan. Shu sababdan, insonning ma’naviy qiyofasi uning oldiga qo’yilgan vazifalarga mos bo’lishi uchun u yuksak axloqli, bilimli, ma’rifatli bulmog’i darkor» (O.Hasanboyeva, J.Hasanboyev, H.Homidov. Pedagogika tarixi. T., «O’qituvchi», 1997 y. 47 b.

Beruniy o’z asarlarida ta’limning ko’rsatmali, izchil, maqsadga muvofiq bo’lishi kerakligini, shaxsning barkamolligi, kishilar o’rtasidagi ijobiy axloqiy munosabatlar va olijanoblik kabi yuksak fazilatlarining mohiyatini asoslab bergan;

Beruniy ilm-fanning muxlisi va buyuk homiysi sifatida mamlakatning obodonchiligi ilm-fanning gullashiga bog’liq, odamlarning baxti esa uning ma’rifatida deb bilgan. Ma’rifat dushmanlariga, yomon urf-odatlariga, adolatsizlikka qarshi bo’lgan. Inson kamoloti o’tmishdagi faylasuf-mutafakkirlar tomonidan ifodalangan bo’lsada, Beruniy uni yanada rivojlantirgan va to’g’ri asoslagan.

Beruniy bolalarni axloqiy barkamolligi va yomon fazilatlardan saqlashda quyidagi tarbiya usullarini olg’a surgan edi:

1. O'rnak olish: Donishmand va olimlar xulqlaridan o'rnak olish yaxshi xulqni rivojlantiradi, yomon odatlarni yo'q qiladi. U ko'proq ota-onalarni farzandlariga o'rnak bo'lishga chorlaydi.

2. Pand va nasihat. Beruniy pand-nasihat orqali bolalardagi ayrim nuqsonlarni anglatish zarur deb hisobladi: Va u quyidagi fikrlarni bayon qildi: «Odamlar o'rgangan, odatlangan va ko'pchilikka ma'qul bo'lgan narsaga qarshilik ko'rsatmasdan o'rganish kerak».

Olimning fikricha **axloqiylik komillikning eng muhim mezonidir**. Lekin bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilarning o'zaro muloqoti, ijtimoiy muhit- jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi.

U «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida shunday yozadi: «Yaxshilik xislatlari: taqvodorlik, to'g'rilik, odillik, insof, kamtarlik, lutf, sobitqadamlik, ehtiyotkorlik, saxiylik, shirinsuxanlik, siyosat va boshqarish ishlarida bilimdonlik, tadbirkorlik. To'g'ri taxmin qila bilish va bulardan boshqa aqlga sig'maydigan, kishi bayon etib tugata olmaydigan (yaxshi) sifatlardan iboratdir» (Beruniy. Tanlangan asarlar, 1-jild, T., 1968 y, 40 b.).

Yomon illatlarga esa hasadgo'ylik, baxillik, o'z manfaatini ko'zlash, mansabparastlik kabilarni kiritadi. U insonning ma'naviy qiyofasidagi barcha axloqiy xislatlarni yaxshi va yomonga bo'ladi.

Beruniyning pedagogik ijodida inson va uning baxt-saodati, ta'lim-tarbiyasi, kamoloti bosh masala bo'lgan.

Beruniyning didaktik qarashlari. Beruniy ilmni va ilm ahllarini ulug'laydi, insonlarni ham shunga chaqiradi. Barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikda deb biladi. U o'zining «Hindiston» asarida jamiyat taraqqiyotining ilmga bog'liqligini shunday tushuntiradi: «Ilmlar ko'pdir. Ular zamoni iqqbolli bo'lib, turli fikr va xotiralar ularga qo'shib borsa, ko'payadi. Odamlarning ilmga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o'sha iqqbolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko'payishiga sababa bo'ladi.. . Hukmronningilm ahlini ko'proq maqtab, ulardan xursand bo'lishi ham ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi» (Beruniy. Tanlangan asarlar, 1-jild, T., 1968 y, 125 b.).

Beruniy ilmlar insonning ehtiyojidan paydo bo'lgan deb hisoblaydi. «Ularni kishining turmushi uchun bo'lgan ehtiyojlari dunyoga keltirdi. Shunga muvofiq tarzda fan tarmoq otdi. Fanlarning foydasi- ular yordamida oltin va kumush to'plash emas, balki kerakli narsalar hosil qilishdir»¹, - deb yozadi u «Geodeziya» asarida va fanlarni quyidagicha ta'riflaydi: «**Musiq**a—insonga kuchli ta'sir etib, yoqimli kayfiyat bag'ishlaydi: **til** — nutqning tarozisi va muomala qurolidir: **geodeziya**—harakatsiz yulduz va kuyosh orqali shaharlarning joylashishini mukammal o'rgatadi; **geologiya**, **geografiya** va **gidrologiya**—er haqidagi fanlardir; **geometriya**— jismlarning shakllarini **falakiyot**—koinot sirlarini, **mineralogiya**— javohir va la'llapni o'rgatadi; **dorishunoslik**—tibbiyot ilmlaridan xabardor qiladi. Beruniy fanlarni ta'riflash bilan birga ularni o'qitish usullarini ham bayon etgan. O'quvchiga bilim berishda:

- o'quvchini zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'ragatvermaslik;
- uzviylik, izchillikka rivoya qilish; mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etish.

Beruniy ilmni quyidagi uch yo'l bilan hosil bo'lishini alohida o'qtirgan:

1. Har bir ilm va san'atning borib taqaladigan boshlanish joyi bor. Shuni to'g'ri boshlash zarur.

2. Ilm boshlanish joyiga yaqinlashgan sari to o'ziga borib etguncha soddalashtirib borish.

3. Ilm o'rganish vaqt va sabrni talab etadi. SHoshilish kerak emas.

Beruniy ilm ahlini hurmat qilinsagina, ilmlar yanada rivojlanib ketishini qayta -qayta o'qtirgan edi. O'zi esa juda ko'p olim va podshohlarga saboq ham bergan. Beruniyning tolmas zakovatidan Sulton Mas'ud ham bahra olgan, ya'ni undan falakiyotshunoslik ilmlni o'rgangan, Beruniy tahlilidagi darsliklar g'oyat tushunarli, sodda bo'lib, ilmga cheksiz muhabbat uyg'otgan.

Beruniyning pedagogik qarashlari faqat o'z zamonasida emas, hozirgi ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Beruniy. Tanlangan asarlar. 3-jild, T., 1966 y, 40 b.

Sharqda «Shayx ar-Rais» nomi bilan mashhur bo'lgan allomalardan biri o'rta asr buyuk mutafakkiri **Abu Ali ibn Sino (980-1037) dir.** U qomusiy olim sifatida matematika, astronomiya, fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot, dorishunoslik, ruhshunoslik, fiziologiya, falsafa, filologiya, mantiq, ta'lim-tarbiya sohalarida ijod etib, dunyoga mashhur yirik asarlarini meros qilib qoldirdi.

Ibn Sino 250 dan ortiq ilmiy asarlar yozgan bo'lib, ulardan ayrimlarini misol qilib keltiramiz: «Al-Qonun», «Xayy ibn Yaqzon», «Risolat at-tayr», «Risolat fi-l-ishk» («Ishq haqida risola»), «Risolat fi mohiyat as-salot» («Nomozning mohiyati haqida risola»), «Kitob fi ma'no ziyorat» («Ziyorat qilishning ma'nosi haqida»), «Risolat fi-daf al-gam min al mivt» («O'limdan keladigan gamni daf qilish haqida risola»), «Risolat al-kadr», «An-Najot», «Ash Shifo», «Donishnoma», «Kitob ash-ishorat» va at tanbixot» va boshqalar.

Ibn Sino o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog'liq holda ifodalagan, maxsus risolalarda talqin etgan. U fanlarni tasnif etadi. Yirik falsafiy asari «Kitob-ush-shifo» 4 qismdan iborat edi: 1) mantiq, 2) tabiiy fanlar, 3) matematika, 4) metofizika yoki ilohiyot. Mantiq qismi 9 bobdan iborat edi:

Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birchi mezoni sanalgan ma'rifatni egallashga da'vat etadi. Chunki ilm-fan insonga xizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib avlodlarga yetkazishi kerak.

Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yyetuk bo'lmagan kishilar qatoriga qo'shadi.

Ibn Sino bilim olishga, bolalarni maktabda o'qitish va tarbiyalashga katta ahamiyat berib, «Tadbir ul manozil» asarining maxsus bo'limini shu masalaga bag'ishlaydi. U ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligni ta'kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini inobatga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilai qo'shib olib borish. Bu talablar hozirgi davr ta'lim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir.

Talabaga bilim berish o'qituvchining mas'uliyatli burchidir. Shunga ko'ra ibn Sino o'qituvchining qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan shunday yo'l-yo'riqlar beradi. Bular quyidagilardan iboratdir:

1. bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish ;
2. berilayotgan bilimning talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish;
3. ta'limda turli metod va shakllardan foydalanishi;
4. talabani xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
5. fanga qiziqitira olishi;
6. berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish;
7. bilimlarni talabalarga tushunarli, uniig yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi;
8. har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishishi zarur, deydi olim.

(S.Rahimov. Abu Ali ibn Sino ta'lim va tarbiya haqida. T., «O'qituvchi», 1967 y, 75 b)

Ibn Sino isonning kamolga yetishida uning axloqiy kamoloti muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Ibn Sino insonning kamolga yetishida to'sqinlik qiluvchi nuqsonlar sifatida johillik, nodonlik, shafqatsizlik, takabburlik, nafratni ko'rsatib o'tadi. Johillikni — ilmga, nodonlikni- zehni o'tkirlikka, shafqatsizlik, takabburlikni adolatga, nafratni—sevgi-muhabbatga qarama-qarshi illat sifatida ta'riflaydi.

Ibn Sino yuksak axloqiy xislatlarga yana kishilarning bir-birlariga do'st bo'lib yashashi, hamkorlik qilishini ham kiritadi. Chunki har bir kishi jamiyatda, odamlar bilan birga yashar ekan, ular bilan dustona yashashga intiladi.

Ibn Sinoning yoshlarni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalash haqidagi fikrlaridan hozirgi ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish albatta ijobiy natija beradi.

Buyuk mutafakkir **Alisher Navoiy** (1441 - 1501) fan va san'atning turli sohalari: adabiyot, tarix, til bilimlari, musiqa, hattotlik, tasviriy san'at, me'morchilik rivojlantirish bilan birga ta'lim - tarbiya takomillashishiga katta e'tibor beradi. U o'zining "Hamsa", "Mahbub ul qulub" kabi ta'limiy axloqiy asarlarida, shuningdek "Munojat", "Vakfiya", "Majolisun nafois", "Muhokamat ul-lug'atayn" asarlarida, Jomiydan tarjima "Qirq hadis" kabilarda tarbiyaga oida qarashlarini ifoda etadi.

Uning pedagogik qarashlari insonparvarlik g'oyasi bilan sug'orilgandir. U xalq baxtini orzu qiladi, xalq manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yadi:

Yuz jafo qilsa menga bir katla faryod aylamam,
Elga qilsa bir jafo yuz qatla faryod aylaram. yoki

Odami ersang demagil odami
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.

Alisher Navoiy inson kamolotida ilmning o'rnini muhim deb biladi. U ilmni insonni, xalqni nodonlik, jaholatdan qutqaruvchi omil sifatida ta'riflaydi. Ilm olishni insoniy burch deb biladi. U bilimda barcha fanlarni o'rganishni targ'ib etadi.

Navoiy ilm - fanni yuksaltirish uchun Ixlosiya madrasasini tashkil etadi, uning yonidan maktab ochib, o'z vakfidan mablag' ajratadi. Madrasada qattiq intizomga amal qilingan.

Adib ustoz - murabbiylarga ham katta talablar qo'yadi, ularni avvalo o'zlari bilimli va tarbiyali bo'lishlari lozim deydi. Shu bilan birga ustozlarning mehnatini juda qadrlaydi:

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmiş ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila².

Shoirning "Xamsa"sig kirgan "Xayratul abror" dostoni va "Mahbubul qulub" asarlari axloqiy - didaktik asarlardan hisoblanadi.

«Hayratul abror» muqaddima qismiga oid bir necha boblardan tashqari 20 maqolat, har bir maqolatga oid 20 she'riy hikoyadan tashkil topgan bo'lib, maqolatning har birida navoiy o'z davri uchun zarur bo'lgan biror ijtimoiy-siyosiy yoki axloqiy masalani qo'yadi, uni o'z davridagi hayotdan, ijtimoiy y tabaqalarning ahvolidan kelib chiqib chuqur va atroflicha tahlil qiladi va unga insoniy munosabat bildiradi. "Hayratul abror"dagi masalalarni 3 turkumga ajratish mumkin:

1. Falsafiy masalalar.
2. Ijtimoiy - siyosiy masalalar.
3. Axloqiy - ta'limiy masalalar.

Asarning 5- maqoloti insoniy fazilatlardan biri - saxiylikka bag'ishlanadi, saxiylik qoidalarini ko'rsatib beradi. U saxiy insonni shunday ta'riflaydi: «Ey xushyor odam, sen shunday odamni saxiy deb bilki, baxt-davlat uning boshini yuqori ko'tarib, ahvoli yaxshi bo'lsa ham, yomon bo'lsa ham birovdan molu amal tama' qilmasa. . . u Qo'lida bor narsa bilan qo'li qisqa odamni xursand qiladi. . . birovning yarasini ko'rsa malhamini ayamaydi³».

6- maqolat tarbiyaga bag'ishlanadi. Bolaga dastlab yaxshi ot qo'yish, so'ngra yaxshi muallimga berish, yaxshi tarbiya berishni maslahat beradi. Bolalarni esa ota - onani hurmat etishga chaqiradi:⁴

Boshni fido ayla ato qoshiga,
Jismni qil sadaqa ano boshiga.
Ikki jahoningga tilarsen fazo,
Hosil et ushbu ikkisidan rizo.
Tun-kuningga aylagali nur fosh,
Birisin oy ayla, birisin quyosh.

Navoiyning «Mahbubul qulub» asari asosida insonparvarlik, xalqparvarlik g'oyasi yotadi. U inson haqida qayg'uradi, uning dardini chekadi. Insoniylikka yarashqli fazilatlarni madh etadi, unga zid bo'lgan illatlarni nafratlaydi. Asar uch qismdan iborat bo'lib,

- 1- qism «Haloyiq ahvoli va af'oli va ahvolining kayfiyati»,
- 2- qism «Yaxshi fe'llar va yomon xislatlar to'g'risida».
- 3- qism «Turli foydali masalaxatlar va makollar»deb

nomlanadi.

² Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub.T., G'.G'ulom nomidagi «Adabiyot va san'at» nashriyoti. 1983 y. 98 b.

³ Alisher Navoiy. Hayratul-abror. T., G'.G'ulom nomidagi «Adabiyot va san'at» nashriyoti.1989 y, 256 b.

⁴ O'sha asardan, 76 .

1- qismda feodal jamiyatidagi turli ijtimoiy tabaqalarning jamiyatda tutgan o'rnini va vazifasi haqida so'z yuritiladi. Dehqonlar va ularning mehnati ulug'lanadi.

2- qismda odob va axloqqa oid masalalar yoritiladi. Odobli insonlar ulug'lanishi, hurmatli bo'lishi ko'rsatiladi.

3- qismda saxiylik, oliyjanoblik, muruvvat, karam, vafo, xilm(muloyimlik) kabi insoniy xislatlar tahlil etiladi. Qator maqollar keltiriladi: «Tilga ixtiyorsiz- elga e'tiborsiz», «Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim», «Oz-oz o'rganib dono bulur, qatra-qatra yig'ilib daryo bulur»

Navoiy ilmni va ilm ahllarini ulug'laydi. Mamlakat oboldonligini ta'minlashda xalq ahvolini yengillashtirishda ilm ahliga katta umid bog'laydi.

Navoiyning ta'lim-tarbiya haqidagi o'gitlari, uning ma'rifatparvarlik g'oyalarining uzviy qismini tashkil qiladi. U butun umri davomida ilm-ma'riftni targ'ib qiladi. Navoiy merosini chuqur o'rganish va undan ta'lim-tarbiya jarayonida keng foydalanish hozirgi kunimizning muhim talablaridan biridir.

Ma'lum ma'noda didaktikaning asoschisi hisoblangan chex pedagogi **Yan Amos Komenskiy** (1592-1670)ning ta'lim tamoyillari, metodlari, uni tashkil etish shakllari haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. U yaxlit, mazmunli pedagogik tizim yaratdi. Uning "Buyuk didaktika", "Onalar maktabi" asarlari hozirgacha ham ibratli pedagogik bilimlar manbai bo'lib kelmoqda.

Ya.A.Komenskiy o'z pedagogik qarashlarida maktabgacha tarbiya tizimini yaratdi, bolalarning o'sib ulg'ayishi va tarbiyasi haqida qarashlarini bayon qildi. U 6 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun "onalar maktabi" bo'lishini taklif qildi. U bunday maktablarda bolalarni tarbiyalash va o'qitishni yosh avlodni tarbiyalashning dastlabki bosqichi deb hisobladi, chunki bunday maktablarda bolalarning jismoniy, axloqiy va aqliy rivojlanishlariga asos solinadi.

U o'zining "Onalar maktabi uchun qo'llanma" asarida maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va o'qitish dasturi va metodikasining asosiy prinsiplarini belgilab berdi hamda bu bilan maktabgacha tarbiya pedagogikasining fan sifatida yaratilishiga asos soldi.

Fransuz pedagogi **Jan-Jak Russo** (1712-1778) maktabgacha tarbiya pedagogikasining rivojlanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. U o'zining "Emil yoki Tarbiya to'g'risida" degan asarida bolani, o'z nazaricha, bekamu-ko'st tarbiyalash jarayonini ko'rsatib berdi kishini tug'ilgan kundan tobalog'at yoshiga etguncha tarbiyalash to'g'risida bir qancha ajoyib fikrlar va metodik masaxatlar berdi.

Shveytsar pedagogi **Iogann Genrix Pestalossi** (1796-1827)ning g'oyasicha, xalqning kelajakdagi baxt-saodati bolalarda ularning ilk yoshligidan boshlab to'g'ri tarbiyalanishlaridadir. U butun hayoti davomida shu g'oyaga xizmat qildi hamda bog'chagacha, maktabgacha tarbiya yoshidagi va maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va o'qitishda birlik, mustahkam aloqa, izchillik bo'lishini talab etdi. Pestalossi maktabgacha tarbiya pedagogikasining didaktik asoslarini, bolalarni oilada dastlabki tarbiyalash metodikasini ishlab chiqdi.

Rus pedagoglaridan K.D.Ushinskiy va L.N.Tolstoylar tarbiyada vatanparvarlik, insonparvarlik va xalqchillik sifatlarini asoslashga harakat qildilar.

XIX asrning oxirlarida Turkiston o'lkasidagi ilgor, taraqqiyparvar kuchlar birlashib, islohat, o'zgarishlar qilishga kirishdilar. Ular avvalo maktab, maorifni, keyin esa ijtimoiy turmushni isloh qilish g'oyalarini ilgari surdilar. Bular jadid nomini olgan bo'lib, jadid «yangi», yangilik tarafdori ma'nosini anglatadi. Jadidchilik oqimi XIX asrning 90- yillarida maydonga keladi.

Jadidlar o'rta asr o'qitish usuliga asoslangan ta'limga qarshi chiqib, yangi usulda o'qitishni, qator dunyoviy fanlarni o'quv jarayoniga kiritishni talab qildilar. Ular ilm-fan, texnika, teatr va matbuotni rivojlantirishga harakat qildilar. Ta'lim-tarbiya va maorif rivojiga Mahmudxo'ja Behbudiy, Ishoqxon Ibrat, Siddiqiy-Ajziy, Saidrasul Aziziy, Abdurauf Fitrat, Abdulqodir SHakuriy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi jadid ma'rifatparvarlari ham o'zlarining bebaho hissalarini qo'shdilar. Ular tomonidan maktablar ochildi, dastur va darsliklar ishlab chiqildi, parta va o'quv taxtasi, globus taomilga kiritildi.

Jadidchilikning asoschisi qrim-tatar ma'rifatparvari Ismoilbek Gaspirali hisoblanadi. U o'qitishning yangi usuliga asos soldi. 1884 yili 12 bolani «usuli jadid»da o'qita boshlaydi. Bolalar

40 kun ichida savodini chiqarishadi. Ular uchun «Xujai sibyon» («Bolalar muallimi») darsligini yaratadi. U 1883 yildan «Tarjimon» gazetasini ham chiqara boshlaydi.

Gaspiralining g'oyalari ta'sirida O'rta Osiyoda ko'plab jadid ma'rifatparvarlari etishib chiqadi.

Jadidlar xalqqa ma'rifat va madaniyat tarqatishga harakat qiladilar. Buning uchun maktab va madrasalarni isloh qilish g'oyalari bilan chiqadilar. Yangi usul maktablar ochadilar. Gazeta, jurnallar chiqaradilar, teatr, kutubxonalar tashkil etadilar.

Jadidlar «Taraqqiy», «Samarqand», «Sadoi Turkiston», «Oyna», «Buxoroi SHarif» kabi gazeta jurnallar chiqarganlar. O'z hisoblaridan darslik, o'quv qo'llanmalari chiqaradilar. Ko'plab teatr truppalari tashkil topadi. Dramaturgiya maydonga keladi. Publisistika rivojlanadi.

Jadidlar maktab va madrasalarda diniy va dunyoviy ilmlarni birga qo'shib olib borishga harakat qilishadi.

Jadidlarning yirik vakillaridan biri **Maxmudxo'ja Behbudiydir**. U Samarqandning Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. U adabiyot, tarix, geografiya, islom tarixi sohalari bilan shug'ullanadi. Yangi usul maktablarining birinchi tashkilotchilaridan biri edi. Abduqodir SHakuriy ochgan maktabga homiylik qiladi. O'zbek va tojik tillarida «Bolalar kitobi», «Islomning qisqacha tarixi», «Aholi geografiyasiga kirish», «Rossiyaning qisqacha geografiyasi» kabi kitoblar yozadi. «Behbudiy» nashriyotini tashkil etib, unda darsliklar, haritalar bosib chiqaradi. Kutubxonalar ochadi.

Dramaturgiya sohasi bilan shug'ullanib «Padarkush» drammasini yozadi. Bunda ham ilmsizlik, nodonlikni tanqid qiladi. «Samarkand» gazetasi, «Oyna» jurnalini chiqaradi.

Munavvar Qopi Abdurashidxonov (1872-1931) Toshkent shahrida ziyoli oilasida tug'iladi. Onasi otinoyi bo'ladi.

1901 yili birinchi jadid maktabini ochadi. Yangi maktablar uchun tovush usulida «Adibi avval» (1907), «Adibi soniy» darsliklarini yozadi. 1906 yili Ismoil Obid muharrirligida «Taraqqiy» gazetasini tashkil qiladi. Darsliklari qayta-qayta nashr qilinadi.

Abdurauf Abduraxim o'g'li Fitrat (1886-1938) Buxoroda tug'iladi. Dastlab maktabda, so'ngra Mirarab madrasasida o'qiydi. U adabiyot, tarix, falsafani chuqur o'rganadi. 1909 yili «Jamiyati xayriya» ko'magida Turkiyaga o'qishga ketadi. 4 yil o'qiydi. U erda «Munozara» va «Hind sayyohi qissasi» asarlarini yozadi. Bunda Buxorodagi o'quv-o'qituv ishlari, ularni tubdan o'zgartirish masalalariga e'tibor beriladi. «O'quv rahbari najot» (1913), «Oila» (1916) asarlari, «O'quv» (1917) darsligini yozadi. 1922-23 yillarda Buxoro xalq maorifi noziri bo'lib, chet ellarga o'qishga talaba va o'quvchilar yuborib o'quv rahbarlik qiladi. 1923-24 yillarda Moskva va Leningrad (Peterburg)da yashab ijod qiladi, professor bo'ladi. Keyin qator oliy o'quv yurtlari, tadqiqot institutlarida pedagogik va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanadi.

Abdulla Avloniy (1878-1934) Toshkentda hunarmand oilasida dunyoga keldi. Maktabda, so'ngra Abdumalikboy madrasasida o'qiydi. Yoshligidan she'rlar yozadi. 1904 yili Mirabodda yangi usul maktab ochadi. 1907 yili uning muharrirligida «SHuhurat» gazetasi chiqara boshlaydi. 1909 yili «Jamiyati xayriya» ochib, bolalar o'qishi uchun pul yig'ib maktablarga tarqatadi. Avloniy maktabining dovrug'i keng tarqaladi, chor hukumati talabi bilan o'lka ma'muriyati maktabni 1908 yil yopadi.

1909 yili Avloniy endi Degrez mahallasida maktab ochadi. Darsliklar yozishga kirishadi. 1909-1917 yillarda uning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy guliston yoxud axloq», «Maktab gulistoni», «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» to'plamlari nashr etiladi. 1917 yildan so'ng ham turli o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanadi. «Mehnat qahramoni» unvoni, «O'zbekiston xalq maorifi zarbdori» nomiga sazovor bo'ladi.

«Birinchi muallim»ni alifbe, «Ikkinchi muallim»ni xirestomatiya deb shartli ravishda atash mumkin. Kitoblarda tarbiyaga katta e'tibor qaratiladi. «Birinchi muallim»ga «Maktab», «Baxtli va baxtsiz bola», «Yaxshilik erda qolmas», «Qanoat», «Ittifoq» kabi hikaya va she'rlar kirgan, ularning oxirida esa tarbiyaviy xulosasi ham berilgan. Darsliklarga xalq og'zaki ijodidan olingan, zamon ruxi va o'quvchilarga molhlashtirilgan hikoya, rivoyatlar kiritilgan.

«Ikkinchi muallim ga «Saxiylik», «Baxillik», «Aqilli bola», «Kampir ila cho'l yalfizi», «Tama' bolasi» kabi hikoyalar kiritilib, ularda xushfe'llik, aql va donishmandlik sharaflanadi, qo'pollik, badnafslilik. Baxillik hajvga olinadi.

1913 yilda yozilgan «Turkiy guliston yoxud axloq» axloqiy va ta'lim-tarbiyaviy asar bo'lib, unda «insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm axloq» haqida fikr yuritiladi.

Avloniy bola kamolotida tarbiyaning roli juda kattaligini tushunadi va tarbiya "yo hayot, yo mamot, masalasi" deb biladi. Bu fikrga yurtboshimiz ham alohida munosabat bildirganlar:

«Men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot, , yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir» degan fikrini ko'p mushoxada qilaman.

Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdur» (I.A.Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. Barkamol avlod orzusi. T., «SHarq», 1999 y, 39-40 bb)

Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida barkamol insonning axloqiy tarbiyasiga alohida e'tibor beradi.

Axloq «Insonni yaxshilikka chaqiruvchi, yamonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir. YAxshi xulqlarning yaxshiligini, yamon xulqlarning yamonligini dadil va misollar bilan bayon qiladigan kitobni axloq deyilar. Axloq ilmini o'qub, er yuzida nima ish qilmoq uchun yurganini bilur. Kishi o'zidan xabardor bo'lmasa ilmni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas»⁵.

Abdulla Avloniy axloqiy fazilatlarni ikki turga bo'lgan edi; yaxshi xulqlar: mehr-shavqat, muxabbat, sadoqat, olijanoblik, iffat, hayo, do'stlik, mehribonlik sabrli, qanoatli, saxiylik. Yomon xulqlar: g'azab, buzuqlik, safoxtat, yalqovlik, xasislik, ta'magirlik kabilardir.

Abdulla Avloniy axloqiy tarbiyaning bosh masalasi insonning Vatanga muhabbatidir deb hisobladi va har bir yosh qalbni Vatanida yashashga, uning baxtidan quvonishga, shodligiga sherik bo'lishga o'rgatmoq va uni e'tiqodiga aylantirmoq lozimligini ta'kidladi. Vatanni sevgan xalqtilini ardoqlaydi, chunki «Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan hayot ko'zgusi-til va adabiyotdir», deb milliy til va adabiyotni o'rganishga alohida e'tibor berdi.

Abdulla Avloniy bolalarning aqliy ta'limiga ham alohida e'tibor beradi: fikrlash iqtidorini egallash olijanob g'oyalar tomon intilishdir, degan edi. Abdulla Avloniy bolalar fikrining «quvvati, ziynati, kengligi» jihatdan muallimlarni «diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan» vazifalardir deydi.

Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asari har bir xonadonga qut-baraka keltiruvchi, insonlarni yaxshi yo'lga boshlovchi asardir.

Mustaqil O'zbekistonimizda maktabgacha tarbiya taraqqiyotiga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Ta'lim to'g'risida» gi qonunning 11-moddasida «Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-etti yoshgacha oilada, boalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'i nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi» deyiladi. (Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori, T., «Sharq», 23 b)

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida maktabgacha tarbiyani rivojlantrish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozimligi ta'kidlanadi:

- malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;
- maktabgacha ta'limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;

⁵ Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. T., 1994 y, b.

- bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta'minlash;
- zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaraish hamda ularni ishlab chiqarish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlarni yaratish;
- maktabgacha muassasalarning har xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha masalalari bo'yicha malakali konsultasiya xizmat ko'rsatish imkoniyatini yaratish;
- maktabgacha tarbiya va sog'lomlashtirish muassasalari tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish (Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori, T., "Sharq", 46 b)

III Mavzu: Pedagogikaning umumiy asoslarini o'qitish metodikasi.

R e j a:

1. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi va uning zaruriy mazmuni.
2. Pedagogka va maktabgacha pedagogika kursining davlat ta'lim standartlari.
3. Maktabgacha ta'lim didaktikasi.
4. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar dasturi bilan maktabgacha pedagogika fanining mazmunini boyitish.

Asosiy tushunchalar

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi va uning zaruriy mazmuni, Pedagogka va maktabgacha pedagogika kursining davlat ta'lim standartlari, o'quv rejasi, o'quv dasturi, ta'lim mazmuni, maktabgacha ta'lim didaktikasi, maktabgacha pedagogika fanining mazmunini boyitish.

2002 yil O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan Nizomiy nomidagi ToshDPU hamkorligida Oliy ta'lim bakalavriat yo'nalishi uchun davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2002 yil 21 fevraldagi 54-sonli buyrug'i bilan tasdiqlandi va hayotga joriy qilindi. Bunga ko'ra 5141700-Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha kunduzgi o'qish me'yoriy muddati- 4 yil, malaka darajasi- "Bakalvar".

Standartda quyidagilar kursatiladi:

Yo'nalishning ta'lim sohasidagi o'rni. 5141700- Maktabgacha ta'lim- kasb-hunar kollejalri uchun maktabgacha ta'lim bo'yicha o'qituvchi tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig'indisidan iborat bo'lgan ta'lim yo'nalishidir.

Kasbiy faoliyat ob'ektlari. 5141700- Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrning kasbiy faoliyat ob'ektlari: kasb-hunar kollejlari va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, o'quvchilar, o'quv-tarbiya jarayoni, o'qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari.

Kasbiy faoliyat turlari. 5141700- Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr o'z psixologik-pedagogik, umumkasbiy va kasbiy tayyorgarligiga muvofiq quyidagi faoliyat turlarini bajarishi mumkin:

- **o'qituvchilik:** maktabgacha ta'lim mutaxassislari tayyorlovchi professional kollej va kurslarda ishlash;
- **tarbiyachilik:** oilalar va maktabgacha tarbiya muassasalarida;

- **o'quv-metodik:** shu yo'nalish bo'yicha ta'lim tizimini boshqaruvchi vazirlikning metodik kabinetlarida, uning tarmoq boshqarmalari va bo'limlarida metodist bo'lib ishlash;
- **boshqaruv ishlari:** maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktabgacha ta'lim psixologik xizmat markazlarida maslahatchi; ma'rifiy ishlar: ota-onalar uchun maslahat markazlari;
- **ilmiy tadqiqot** muassasalarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash va boshqalar.

Bakalavr o'rnatilgan tartib-qoidalar asosida oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, shuningdek, malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash kurslarida ishlashi mumkin.

Kasbiy moslashuvchanlik imkoniyatlari. **5141700- Maktabgacha ta'lim yo'nalishi** bo'yicha bakalavr o'uyidagi kasbga oid faoliyat turlariga moslashuvi mumkin:

- tarbiyachilik: kuni uzaytirilgan boshlang'ich sinflarda tarbiyachilik ishlari;
- ijtimoiy ishlar: amaliyotchi psixolog, ijtimoiy pedagog.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bakalavrining tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari. Bakalavr:

- dunyoqarash xarakteridagi tizimli bilimlarga ega bo'lishi, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;
- Vatan tarixini bilishi, ma'naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai-nazarga ega bo'lishi;
- Tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- Insonning boshqa insonga, jamiyaga, atrof-muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma'naviy mezonlarni bilishi va kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;
- Sog'lom hayot tarzini yuritish zaruriyati bo'yicha ilmiy tasavvur va e'tiqodga ega bo'lishi, o'z-o'zini jismoniy chiniqtirishi;
- Tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;
- Yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila olishi lozim.

Pedagogika fanlari sohasi bo'yicha bakalavr:

- pedagogika fani rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini;
- O'zbekiston va taraqqiy etgan mamlakatlar ta'lim tizimi;
- o'qitishning asosiy metod va texnologiyalari;
- shaxs madaniyati **haqida tasavvurga ega bo'lishi;**
- didaktika ta'limning qonuniyatlari va tamoyillari, tarbiya nazariyasi;
- Umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida davlat va xususiy ta'lim muassasalari hamda oilada ta'lim-tarbiya berish metodikasi;
- o'quv- tarbiya muassasalarini boshqarish va rahbarlik qilish;
- Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarning pedagogik merosi, "Qur'on" va "Hadis"ning ma'naviy qudrati;
- pedagogikadagi yangiliklar va yangi pedagogik texnologiyalar;
- pedagogik mahorat tamoyillari;
- korreksion pedagogika, pedagogik tajriba;

- texnik vositalardan foydalanish;
- psixologik ma'rifat ishlarini olib borish va o'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasini aniqlashni **bilishi va amalda qo'llay olishi**;
- ota-onalar bilan ishlash va o'quvchilar orasida o'quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish va olib borish;
- o'quv jarayonlarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash;
- ta'lim va tarbiya muassasalarini boshqarish;
- o'quvchilar bilimini nazorat qilish;
- o'quv-metodik tavsiyanomalar tuzish va ularni o'quv jarayonida qo'llash **bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.**

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bakalavrlarga umumkasbiy fanlar blokida Pedagogika nazariyasi va tarixi, Pedagogik mahorat, Pedagogik texnologiya fanlari, Kasbga oid fanlar blokida Maktabgacha pedagogika, Ijtimoiy va oila pedagogikasi, Pedagogika fanlarini o'qitish metodikasi fanlari o'qitiladi.

Pedagogika nazariyasi va tarixi fanining **umumiy asoslari**, fanlar tizimida pedagogikaning o'rni va ahamiyati, uning ilmiy-tadqiqot metodlarini o'rganish ko'zda tutilgan.

Didaktika bo'limida esa o'qitishning qonuniyatlari, prinsiplari, uning tashkiliy shakllari: dars, leksiya, amaliy mashg'ulotlar, seminar va boshqalar, o'qitish metodlari, reyting-nazoart tizimi kabi masalalar o'rganiladi.

Tarbiya nazariyasi bo'limida tarbiya metodlari, prinsiplari, tarbiya mazmuni va shakli, turli tarbiyalar, oila tarbiyasi, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari va maktabni boshqarish kabilarga e'tibor qaratiladi.

Bundan tashqari ta'lim ***muassasalari va maktabni boshqarish***, boshqarish prinsiplari, ***maxsus pedagogika*** turlari: surdo, tiflo, oligofrenopedagogika, logopediya, ularning maqsad va vazifalari, nogiron bolalar ta'lim-tarbiyasini o'rganish nazarda tutiladi.

Pedagogika tarixi bo'limida O'zbekiston Respublikasidagi pedagogikaning o'ziga xos tarixga ega ekanligi, O'rta Osiyo va Sharq pedagogikasi tarixi, Evropa pedagogikasi tarixi, rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi o'rganiladi.

Pedagogik mahorat fanida maktab amaliyoti va pedagogik fikr tarixida o'qituvchining mahorati masalalari, pedagogik qobiliyat va uning turlari, muloqat madaniyati, pedagogik texnika, darsda va tarbiya jarayonida o'qituvchi mahorati masalalari, mustaqil malaka oshirish va o'z-o'zini nazorat qilish, pedagogik muloqat, o'qituvchi faoliyatida sharqona muomala madaniyati va undan foydalanish yo'llari to'g'risida ma'lumot beriladi.

Pedagogik texnologiya fanida quyidagilarni o'rganish belgilangan: pedagogik texnologiya tushunchasi, O'zbekistonda ta'lim tizimining rivojlanishi va kadrlar tayyorlashning milliy dasturi, innovasion faoliyat tizimi va pedagogning innovasion faoliyati, pedagogik texnologiyaga yondashuvlar, unga berilgan ta'riflar, YUNESKO ta'rifi, ta'lim jarayonida pedagogik texnologiya: o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan texnologiya, muammoli o'qitish, dasturli o'qitish, mualliflik texnologiyasi, o'yinli texnologiyalar, modul texnologiyasi, interaktiv texnologiyalar, bilimlarni nazorat qilish texnologiyasi, texnologik karta.

Kasbga oid fanlardan biri maktabgacha pedagogika bo'lib, u 4 bo'limdan iborat.

Mutaxassislikka kirish: yosh fuqarni tarbiyalash ishining murakkabligi, talablarning kasbga bo'lgan qiziqish, kasb faoliyati maqsadini aniq tasavvur qilishga intilish, uning sosial ahamiyatini tushunish, kasbiy ijodiy tafakkuri, bilimlarini to'ldirish, bilimlarni mustaqil egallash malaka va ko'nikmalarin va ularda amaliy faoliyatda foydalanish.

Maktabgacha pedagogika: maktabgacha pedagogikaning predmeti va vazifalari, maktabgacha tabiya yoshidagi bolalarning tarbiyasi va rivojlanishi. Maktabgacha pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari. Ilk, kichik, o'rta va katta maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy, axloqiy, jismonimiy va estetik tarbiyalashda pedagogik texnologiyalar: o'yin, mehnat, o'quv faoliyatlarini tashkil etish va boshqarish. Bolalarni matabga tayyorlash. Tarbiya jarayonining uzluksizligi.

Maktabgacha tarbiyaning ilmiy asoslari. Ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni va vositalari, tashkil etishning metod va usullari. Bolaning rivojlanishida fanlar va predmetlararo aloqaning bog'liqligi.

Maktabgacha pedagogika tarixi: sivilizasiyaning rivojlanish davrida ta'lim va tarbiya. Sivilizatsiya davridagi tarbiya xususiyatlari. O'rta asrlarda SHarqda, Evropa va Rossiya ta'lim va tarbiya.

Maktabgacha muassasalarni tashkil etish va unga rahbarlik qilish: O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim muassasalari sistemasi, unga rahbarlik qilish va tashkil etishning zamonaviy usullari.

Ijtimoiy va oila pedagogikasi kursida esa ijtimoiy pedagogikaning manbalari, uning muammolari, fan sifatida rivojlanishi, ijtimoiy ishning usullari, ijtimoiy ishlar texnologiyasi; oila tarbiyasining maqsad, vazifa va usullari, ohla tarbiyasining shart-sharoitlari, shaxs shakllanishiga oila a'zolarining ta'siri, tarbiyaning milliy an'analari, tarbiyada ta'lim muassasalari va oilaning hamkorligi kabi masalalar o'rganilishi ko'zda tutiladi.

O'quv reja. Ta'lim mazmunini o'zida aks ettiruvchi asosiy normativ hujjatlardan biri o'quv rejasidir. Maktab o'quv rejasi — barcha ta'lim muassasalarida bajarilishi shart bo'lgan davlat hujjatidir. Unda kurslar bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv predmetlari tartibi va miqdori, u yoki bu o'quv predmetiga ajratilgan o'quv soatlari, o'quv yilining boshlanishi, davomi, semestrlar, yakuni, ta'tillar ko'rsatilgan bo'ladi. O'quv reja Oliy va o'rta maxsus yoki xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

O'quv rejasi deb, o'qitiladigan fanlar, o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatiga aytiladi.

O'quv rejasini tuzishda quyidagi omillarga asoslaniladi:

1. O'quv rejasi, o'quv-tarbiya ishining maqsad va vazifalariga asoslanadi. Maqsad — ilmiy bilimlar berish, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdir.

2. Ta'lim tizimining uzluksizligiga asoslanadi.

3. O'quv rejasiga kiritilgan fanlarning hajmi qaysi kursda o'qitilishi, ajratilgan soati, bolalarning yosh va bilim saviyasiga qarab beriladi. Fanning hajmi, og'ir-engilligi, didaktik ahamiyati ham e'tiborga olinadi. O'quv rejasiga kiritilgan fanlar, birinchi navbatda, umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgandir.

O'quv rejasida gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar, matematika va tabiiy ilmiy fanlar, umumkasbiy fanlar, ixtisoslik fanlari va qo'shimcha fanlar bloklari uchun soatlar ajratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limining me'yoriy hujjatlarida o'quv rejasiga shunday ta'rif beriladi: «O'quv rejasi - oliy ta'limning muayyan yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan normativ hujjat» (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limining me'yoriy hujjatlari. T. 2001y, 9 b.). Oliy ta'limda bakalavr yo'nalishlari va magistr mutaxassisliklari uchun alohida o'quv rejalarini tuziladi.

O'quv dasturi. O'quv dasturi ma'lumot mazmunini moddiylashtirishning o'ziga xos darajasi bo'lib, ular har bir o'quv predmeti uchun alohida-alohida tuziladi. **O'quv dasturi** o'quv rejasi asosida ishlab chiqilgan davlat hujjati bo'lib hisoblanadi. O'quv dasturining kirish qismida u yoki bu o'quv predmetini o'qitishning maqsadi, vazifalari, yunalishlari, dasturni amalga oshirishga oid metodik maslahatlar beriladi.

Dasturning asosiy qismida o'quv predmetlarining mazmuni, tushuncha va terminlar tizimi, o'rganiladigan nazariy va amaliy materiallar, ular o'rtasidagi aloqadorlik, o'rganiladigan bilimlarning ko'lam, mazmuni qayd etiladi.

O'quv dasturining uchinchi qismida u yoki bu mavzular bo'yicha shakllantiriladigan malakalarning hajmi belgilab beriladi. Dasturda har qaysi o'quv fanlarining mazmuni izchillik bilan yoritiladi va ma'lum mavzular orqali ko'rsatiladi.

O'quv dasturi quyidagi bir qator qoidalarga amal qilgan holda tuziladi.

1. Dasturning kat'iyligi. O'quv dasturlari jamiyatimiz taraqqiyotining har bir bosqichida fan, texnika, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy munosabatlar sohasida erishilgan darajani aks ettirishi lozim. Hamma o'quv fanlariga oid dasturlarning bir necha yillar mobaynida kat'iy bo'lishiga

erishmoq darkor. Dasturning kat'iyligi kat'iy darsliklar ishlab chiqish uchun katta ahamiyatga egaki, bu darsliklar uzoq yashashi va o'quv jarayonida uzoq foydalanishi kerak.

2. O'quv dasturida ilmiylik qoidasi. Dasturga borliqni aniq, haqqoniy aks ettirgan, ilmiy jihatdan tekshirilgan ishonchli materiallar kiritiladi. O'quv dasturidagi ayrim eskirgan masalalar o'quv fanlaridan chiqarib tashlanadi.

3. O'quv materiallari mazmunini to'g'ri tanlash, fan materiallarini tanlashda unda isbotlar, misollar, mantiqiy umumlashma va xulosalarning to'g'ri uyg'unlashuviga alohida e'tibor beriladi. Aniq misollar bo'lmasa o'rganilayotgan hodisalarni nazariy jihatdan tushunish mumkin emas.

4. Nazariyaning amaliyot bilan birligi qoidasi. O'quv dasturida nazariyaning amaliyot bilan birligi qoidasi, birinchi navbatda, eng avvalo, ilmiy bilimlarning turmushda, ishlab chiqarish amaliyotida tutgan o'rni ko'rsatib beriladi.

5. O'quv dasturlarida tarixiylik qoidasi. O'quv dasturlari tarixiylik qoidasiga asoslangan holda tuziladi. Bunda o'quv fanlarining xarakteri nazarda tutiladi. Masalan, tarix fanini o'qitishda tarixiy voqealar izchillik va xronologik tarzda bayon etilsa, matematika, informatika, fizika va boshqa qator fanlarni o'qitishda fan olamidagi ma'lum bir ilmiy hodisa, qoida va qonunlarning paydo bo'lishi, uning kelajak istiqboliga oid ma'lumotlar berib o'tiladi.

6. Dastur ikki usul bilan: ketma-ket (muntazam) va konsentrik (markazlashgan) tarzda joylashtirilishi mumkin. Dasturning markazlashgan tuzilishida mazkur fanga tegishli o'quv materiali o'qitishning keyingi bosqichlarida murakkablashgan ko'rinishda takrorlanadi.

Maktab va hunar -texnika bilim yurtlari dasturining tuzilishi uch bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'limda mazkur dasturga amal qilish yuzasidan yo'l-yuriqlar — qisqacha o'qtirish xati; ikkinchi bo'limda — o'quv materiallarining mazmuni; uchinchi bo'limda esa o'quvchilarning qo'shimcha ravishda o'rganishlari lozim bo'lgan adabiyotlar ro'yxati beriladi.

Oliy ta'limda «ta'lim dasturi» va o'quv fani dasturi» tushunchalari ishlatiladi. **Ta'lim dasturi-** o'quv fanlarining bakalavriat yunalishlari yoki magistratura mutaxassisliklariga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq kadrlarning zaruriy va etarli darajadagi tayyorgarligini ta'minlovchi, bloklarga jamlangan ro'yxati (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limining me'yoriy hujjatlari. T.. 2001y, 9 b.).

O'quv fani dasturi- ta'lim mazmuni, uning talabalar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari ko'rsatilgan normativ hujjat.

Oliy ta'limning birinchi bosqichida ta'lim dasturlari ta'limdagi uzviylik ta'minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabaning quyidagi fanlar bloklarini o'zlashtirishini nazarda tutadi:

- gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy;
- matematik va tabiiy ilmiy;
- umumkasbiy;
- ixtisoslik;
- qo'shimcha.

Magistratura ta'lim dasturida esa quyidagi majburiy bloklar o'zlashtirilishini nazarda tutadi:

- umummetodologik fanlar;
- mutaxassislik fanlari;

ilmiy faoliyat. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limining me'yoriy hujjatlari. T.. 2001y, 13 b)

Pedagogika fanlarini o'qitishda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar dasturidan keng foydalaniladi. Pedagogika fanining umumiy asoslari bo'limida Kadrlar tayyorlash milliy dasturining milliy modeli va ularning, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish bosqichlari va bosqichlarning maqsad, vazifalari, “Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning tuzilishi, unga ko'ra O'zbekistonda ta'lim tizimi va turlari kabi masalalar keng o'rganilishi nazarda tutilgan.

Pedagogika fanlarining tarbiya nazariyasi bo'limida esa milliy istiqlol g'oyasini talaba yoshlar ngiga singdirish va undan ta'lim tarbiya jarayonida foydalanish masalalariga alohida e'tibor beriladi. Buni quyidagi pedagogika fanida o'rganiladigan materiallarda ko'rish mumkin:

Milliy istiqloq mafkurasida komil inson tarbiyasi

O'zbekistonning milliy istiqloq mafkurasini, o'z mohiyatiga ko'ra, xalqimizning asosiy maqsad va muddaolarini ifodalaydigan, uning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog'laydigan, asriy orzu-istaklarini amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalar tizimidir.

«Milliy mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masalalar, jamiyatni sog'lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o'z muddaolariga erishishi uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo'lib kelgan. U har bir kishining oilasi, jamiyat, el-yurt oldidagi burch va ma'suliyatini qay darajada ado etayotganini belgilaydigan ma'naviy mezondir»⁶.

Milliy istiklol mafkuramizning bosh g'oyasi - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Uning asosiy g'oyalariga yana quyidagilar kiradi: Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik.

Milliy istiqloq mafkuramizning asosiy g'oyalaridan biri komil inson g'oyasi bo'lib, u ham milliy ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzotga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni xamisha ezgulikka undaydigan olijanob g'oyadir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'zda tutilgan asosiy maqsadlardan biri xam insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan bog'lik bo'lgan uzluksiz ta'lim, ya'ni maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy uquv yurtlaridan keyingi ta'lim tizimi orqali har tomonlama yetuk - komil insonni shakllantirishdan iboratdir. Komillik uch bosqichdan iborat bulib, ular quyidagilardir:

1. Jismoniy salomatlik.
2. Axloqiy poklik.
3. Aqliy yetuklik.

Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga etkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q. Bunday xalq va millat tanazzulga mahkum.

Komil inson g'oyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, uning ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da halol mehnat komillikning asosiy mezoni sifatida talqin etilgan. Komil inson g'oyasi islom falsafasidan oziqlanib yanada kengroq ma'no-mazmun kasb etgan. Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Navoiy kabi mutafakkirlarning komil insonni tarbiyalash haqidagi fikrlari jamiyat taraqqiyotiga yangi ma'naviy imkoniyatlar izlash maqsdlari bilan bog'langan. Forobiy fozil shahar aholisi haqidagi g'oyalarini ilgari surar ekan, shaxsning ma'anviy kamolotini adolatli jamiyat qurishning asosiy sharti deb hisoblagan.

Komil inson bu- ozod shaxs, erkin fikr yurituvchi, o'z xalqining ideallari uchun kurashuvchi inson, o'z Vataniga halol xizmat qiluvchi kishidir.

«**Komillik** - mehr muruvvat, adolat, to'g'rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi ko'plab asl insoniy hislat va fazilatlarining majmuidir»⁷. Komil inson - qullik, mutelik, boqimondalikdan batomom xolos bo'lgan shaxsdir.

Tariximizda komillik timsollari ko'pdur. Alpomish- xalqimizning ideal kahramoni. Navoiy uchun ideal -Farxod obrazi. Oybekning «Navoiy» romanida esa Navoiy- ideal obraz. Ayni paytda u real tarixiy shaxs, komil insondir.

Prezident I.A.Karimov milliy mafkura va unga qo'yilgan talablar haqida

«Mafkura (arabcha mafkura - nuqtai nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmui) - jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalar majmui»⁸. Mafkurasiz jamiyat, ijtimoiy guruh yoki millat bo'lishi mumkin emas. Jamiyat ma'naviyati ichida turli mafkuralar bo'lishi mumkin. Lekin bir jamiyat, ijtimoiy guruh yoki millatning mafkurasini boshqa jamiyat, ijtimoiy guruh yoki millatga majburan qabul qildirish mumkin emas.

⁶ Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. «Yangi asr avlodi», 2001, 131-b.

⁷ Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. «Yangi asr avlodi», 2000, 131-b.

⁸ Mustakillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at.T. «SHarq», 1998, 106 b

Yurtboshimiz o'zining ko'plab asarlarida mafkura va milliy mafkura mohiyatini yoritishga harakat qilgan. «Tafakkur» jurnali muxbiri savollariga javobida mafkurning zarurligi va ahamiyatini asoslab beradi: «Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi mumkin. Ikkinchidan, qaerdaki mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha erda begona mafkura hukmronlik qilishi tayin». SHu nutqida Prezidentimiz mafkuraning yaratilishi masalasiga ham to'xtab o'tganlar : «Albatta mafkurani bir kun yoki bir yilda yaratib bo'lmaydi. Chunki mafkura shakllantirib boriladi. Uning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish mumkin. Ammo bu tamoyillar real hayotda o'z o'rnini topmasa, bunday mafkura faqat qog'ozda bo'ladi xolos».⁹

Yurtboshimiz milliy mafkura va u nimalarni o'zida mujassamlashtirishi va qanday talablarga javob berishi kerak degan masalaga ham alohida to'xtalib o'tadi. Ular quyidagilardan iborat :

Milliy mafkura, birinchidan, o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart.

Ikkinchidan, jamiyatimizdagi mavjud fikrlar va g'oyalar, erkin qarashlardan, har qanday toifa va guruhlarining intilishlari va umidlaridan, har qanday insonning e'tiqodi va dunyoqarashidan qat'i nazar, ularning barchasini yagona milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, davlatimiz dahlsizligini asraydigan, xalqimizni buyuk maqsadlar sari chorlaydigan yagona mafkura bo'lishi darkor.

Uchinchidan milliy mafkuramiz har qanday millatchiliklardan holi bo'lib, jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda o'zimizga munosib hurmat va izzat qozonishda poydevor bo'lishi lozim.

Turtinchidan, milliy g'oya yoshlarimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadokat ruxida tarbiyalashi, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek oliyanob ishlarimizda madadkor bo'lishi lozim.

Beshinchidan, milliy mafkura, Vatanimizning shonli o'tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog'lab turishga, o'zimizni ulug' ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga , jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo'l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da'vat qiladigan g'oya bo'lishi kerak.

«Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» asarida yurtboshimiz milliy mafkuramizning bosh g'oyasi - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdan iborat ekanligini ko'rsatadi. Milliy istiklol mafkuramizning asosiy g'oyalari sifatida esa quyidagilar belgilangan: Vatan ravnaki; yurt tinchligi; xalk farovonligi; Komil insonni tarbiyalash; millatlararo totuvlik va dinlararo bagrikenglik (tolerantlik).

Milliy istiqlol mafkurasini yoshlar ongiga singdirishda ta'lim-tarbiya muassasalari va oilaning roli

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng jamiyatimizning barcha sohalari qatori ma'naviy-mafkuraviy hayotimizda ham ulkan o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbekistonning milliy istiqlol mafkurasini yaratildi. Chunki o'z kelajagi haqida qayg'uradigan millat hech qachon milliy g'oya va milliy mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi.

Milliy mafkuramiz xalqimizning maqsad-muddaolarini ifodalaydi, tarix sinovlaridan o'tishda uning ruhini ko'tarib, suyanch va tayanch bo'ladi, shu millat, shu jamiyat duch keladigan ko'plab hayotiy va ma'naviy muammolarga javob izlaydi.

Milliy istiqlol mafkuramiz ko'p millatli O'zbekiston xalqining ezgu g'oya - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu-intilishlarini aks ettiradi. Ta'lim-tarbiya muassasalari, oila, mahalla qo'mitalari, ijtimoiy institutlarning asosiy vazifasi - Milliy istiklol g'oyamizni yurtimizda yashayotgan barcha kishilarning ma'naviy boyligiga,

⁹ I.A.karimov. Jamiyatimiz mafkurasini xalqni-xalq, millatni -millat bilishga xizmat etsin.// Tafakkur, 1998 y, № 8, 10 b.

dunyoqarashining negiziga aylanishiga ko'maklashish, uning mohiyatini keng jamoatchilikka har tomonlama tushuntirishdan iborat.

Milliy istiqlol mafkurasini yoshlar ongiga singdirishda ta'lim-tarbiya muassasalari va oilaning urni ayniqsa muhimdir.

Milliy istiqlol mafkurasini yoshlar ongi va qalbiga singdirish ta'lim-tarbiyaning turli shakllari orqali amalga oshiriladi. Bunda quyidagi vazifalarni nazarda tutish lozim:

- ta'lim muassaslarida bolalar va talabalarning yoshiga mos ravishda milliy istiqlol mafkurasini singdirishning differensial pedagogik-psixologik dasturini yaratish;
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o'quvchi-talabalar ongida milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish ishlarini uzluksiz tarzda olib borish;
- O'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarda milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarini teran aks ettirish;
- Maktab, litsey, kollej, institut va universitetlarda mafkuraviy tarbiyani bugungi kun talablari darajasiga ko'tarish;
- Pedagog kadrlarning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish.

Hozirgi kunda barcha o'quv dastur va darsliklariga milliy istiqlol mafkurasi g'oyalari keng aks ettirilgan, shuning uchun har bir fanni o'qitish davomida ham o'quvchilarimizga milliy istiqlol g'oyasi singdiriladi. Bu masala dars maqsadini belgilashda alohida milliy istiqlol g'oyasini singdirish bo'yicha ham maqsad belgilanayotganligida yana bir bor o'z ifodasini topadi. Turli ijtimoiy fanlarni, jumladan mustaqilligimizdan keyin ta'lim jarayoniga kiritilgan Odobnoma, Vatan tuyg'usi, Ma'naviyat asoslari, Konstitutsiya asoslari, Inson va jamiyat kabi fanlarning milliy istiqlol g'oyasini singdirishdagi imkoniyatlari yana ham beqiyosdir.

Turli tarbiyaviy tadbirlar, sinfdan tashqari ishlar jarayonida ham milliy istiqlol g'oyasi o'quvchilarimizga chuqur o'rgatilib borilmoqda.

Oila mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e'tiqodga oid ko'nikmalari majmui asosan oilada shakllanadi. Milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar inson qalbi va ongiga avvalo oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibрати, ona mehri orqali amalga oshiriladi.

Oila, uning asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan muqaddas an'analar orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, imyon e'tiqod, ma'suliyat, insonparvarlik, ilmga ishtiyoq va madaniyat ko'nikmalari shakllanadai. Bolalarda yoshlikdan xalq va yurt taqdiri uchun fidoiyluk tuyg'usini shakllantirish mafkuraviy tarbiyada muhim o'rin tutadi. Buning uchun bola hayotining dastlabki yillaridan boshlab, uni narsalar olami bilan tanishtirishning milliy an'analarimizga xos shakllarini qo'llash lozim. Sharqona odob va bashariyatning ezgu intilishlarini aks ettiruvchi o'yinlar, o'yinchoqlar, rasmiy kitoblar, milliy ertaklar asosida yaratilgan multfilmalar bolalardagi ilk yoshlikdagi mafkuraviy qarashlarning to'g'ri shakllanishiga qo'l keladi.

Oilaviy munosabatlar doirasida milliy urf-odat va an'analarimizni eng nodirlarini turmushga singdirish orqali bolalarda milliy qadriyatlarga mehr-muhabbatni uyg'otish, ularni mustaqil fikrlaydigan kishilar qilib tarbiyalash mumkin.

Oilalarimizda bolalarga mafkuraviy tarbiya berishda oiladagi katta kishilarning, ayniqsa, bobo va buvilarning o'rni kattadir. Bunday tarbiya an'anasi buyuk ajdodlarimiz taqdirida muhim o'rin tutgan. Masalan, Amir Temurning nevaralari tarbiyasi bilan ularning onalari emas, balki buvilari shug'ullanishgan.

Xullas, oila, ota-ona va bobo-buvilar o'z bolalarining axloqi va huquqiy madaniyati uchun jamiyat oldida javobgar ekanliklarini unutmasliklari lozim.

IV Mavzu : Ta'lim nazariyasini o'qitish metodikasi.

R e j a:

1. O'zbekistonda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari.
2. Ta'lim jarayoni, uning ikki tomonlama xususiyati, tuzilishi (bosqichlari).

3. Ta'lim qoidalari va ularning aloqadorligi.
4. Ta'lim va tarbiyaing birligi qoidasi mohiyati.

Asosiy tushunchalar:

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari, ta'lim jarayoni, uning ikki tomonlama xususiyati, tuzilishi (bosqichlari), ta'lim qoidalari va ularning, aloqadorligi, ta'lim va tarbiyaing birligi qoidasi mohiyati.

O'zbekistonda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari.

1997 yil 29 avgustda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida» gi qonun fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan.

Ushbu qonunning 3-moddasi Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplariga bag'ishlangan. Unda ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilinadi va ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat ekanligi ko'rsatiladi¹⁰:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqdigi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Ta'lim jarayoni, uning ikki tomonlama xususiyati, tuzilishi (bosqichlari).

Har qanday jarayon- harakatdir, moddiy dunyodagi narsalar yoki hodisalarning asta-sekin o'zgarishidir. O'qitish jarayoni ham yosh avlodda aqliy kuchlarni rivojlantirishga va axloqiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan harakatdir.

Bilish -ta'lim jarayonining metodologik asosidir. Bilish jarayoni kabi ta'lim jarayonida ham kishi bilmaslikdan bilishga, noto'g'ri va noaniq bilishdan tobora to'liqroq va aniqroq, chuqurroq bilishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi. Bu jarayonda hissiy idrok etish ham abstrakt tafakkur ham amalda sinab ko'rish ham bo'ladi.


Ta'lim bilish faoliyatining turi sifatida pedagogika fanida bir necha asosiy ma'noni anglatadi. Ya'ni bu: o'quvchilarda bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish; o'quvchilarni muayyan darajada o'qimishli, madaniyatli, tarbiyali, har tomonlama yetuk inson bo'lishiga erishish; ularni qobiliyatlarini o'stirishdan iborat.

Ta'lim-maxsus tayyorlangan kishilar o'quv rahbarligida o'tkaziladigan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, bilim, qobiliyatlarini o'stiradigan, ularni dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir. Ta'lim-insoniyat tajribasining ma'lum tomonlarini, ya'ni o'quvchilar ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan faoliyatdir.

Ta'lim jarayonining mazmunini bilim, ko'nikma va malakalar tashkil etadi.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1998 y, 20 b.

Ta'lim jarayoni o'qituvchi bilan o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, ikki tomonlama xarakterga egadir (chizmaga qarang).



O'qituvchining faoliyati tufayli ta'lim puxta o'ylab chiqilgan, maqsad, mazmun va dasturlar asosida olib boriladigan jarayonga aylanib, kutilgan natijalarni beradi. O'qituvchining faoliyati o'quv materiallarini bayon qilishdan, o'quvchilarda fanga qiziqishni tarkib toptirishdan, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga o'quv rahbarlik qilishdan, ularning bilim, ko'nikmalarini tekshirish, o'quv ishlariga moyilligini uyg'otish, rag'batlantirish, bilim darajalarini xolis baholashdan iboratdir. O'qituvchining faoliyati ta'lim jarayonining tashqi tomonini tashkil qiladi, chunki u o'qitadai, ta'lim beradi. O'qitish jarayonining ikkinchi tomoni o'quvchi faoliyati bo'lib, u ta'limning ichki jarayonini tashkil qiladi, chunki u o'qituvchi bergan bilimni o'qib, fan materiallarini o'zlashtirib oladi. Ilmiy bilimlarni egallash- muayyan fanlar o'rtasidagi bog'lanishlarni idrok qilish, ularni izohlay bilish, mustaqil ravishda umumlashtirish, xulosalar chiqarish demakdir. O'qish jarayonida insoniyat erishgan barcha bilimlarni o'rganish kerak, degan xulosa kelib chiqmaydi. Ta'lim jarayonida fanning eng zaruriy, eng muhimlari- asosi o'rganiladi.


O'qituvchi o'quvchi - talabaning bilish faoliyatlarini tashkil qilish maqsadida o'quv ishlarni olib borar ekan, avvalo ta'lim jarayoni orqali uch vazifani, ya'ni bilim berish orqali uch maqsadni hal qilish lozimligini unutmasligi kerak. Bu maqsadlar o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini birlashtiradi

1. Ta'limiy maqsad - o'quv materialining mazmunini bilish, ya'ni ushbu fanga tegishli ilmiy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tadbiq qila olishdir.
2. Tarbiyaviy maqsad - fan asoslarini o'zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g'oyalar, dunyoqarashlar ta'sirida o'zining shaxsiy sifatlarini, imon - e'tiqodlarini shakllantirishdir.
3. Rivojlantiruvchi maqsad - ta'lim jarayoni ta'sirida shaxsning aqliy kamolatini bilish qobiliyatini o'qishga, mehnatga bo'lgan munosabatini rivojlantirishdan iborat.

Bu maqsadlarni amalga oshirish natijasida o'quvchi - talabda mustaqil ishlash iste'dodi paydo bo'ladi. Uni o'ylashga o'rgatadi, ta'lim jarayonida tafakkur hukmronlik qiladi.

O'quvchilarning o'qituvchi sabog'ini o'zlashtirish jarayoni bilimlarni idrok qilish, tushunish, mustahkamlash hamda ularni amalda qo'llash bosqichlaridan iborat bo'ladi. Bilimlarni o'zlashtirish voqe'likdagi narsa va hodislarni sezish va idrok qilishdan boshlanadi. Ta'lim quyidagi bosqichlar asosida o'zlashtirib olinadi (chizmaga qarang) :

idrok



Birinchi bosqich - o'quv materiallarini idrok qilishdan iborat. Bunda o'quvchi talaba ta'limning mazmuni bilan tanishib, o'zining bilish vazifalari nimadan iborat ekanligini tushunib oladi. Bunda sezgi, idrok tasavvur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi.

Ikkinchi bosqich - ular o'quv materiallarini tushunib oladilar, uning mohiyatini anglaydilar va umumlashtiradilar. Natijada ularda yangi bilimlar paydo bo'ladi. Buning uchun ular analiz, sintez, taqqoslash, xulosa chiqarishdan foydalanadilar.

Uchinchi bosqich - yangi bilimlar, mashqlar, mustaqil ishlar, o'qituvchining qo'shimcha izohlari orqali mustahkamlanadi.


Turtinchi bosqichda - ular o'zlashtirib olgan bilimlarni imkoniyatga qarab amaliyotga tatbiq qiladilar.


Bularni bilish orqali o'qituvchi ta'lim - tarbiya jarayonini samarali boshqarish mumkin. Shuning uchun o'quv jarayonining hamma bosqichlarida o'qituvchi yetakchilik va boshqaruvchilik rolini o'ynaydi. Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, o'qitish jarayoni bilish faoliyatining muhim tarmog'i sifatida qator vazifalarni bajaradi. Jumladan:

1. O'quvchi va talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qiladi.
2. Ularda dunyoqarash, ishonch va e'tiqodlarni o'stiradi.
3. Yoshlarni muayyan darajada o'qimishli, tarbiyali kishilar bo'lib etishishlariga zamin yaratadi.

Ta'lim jarayoniga ta'sir etuvchi omillar:

32%





Ta'lim qoidalari va ularning aloqadorligi.

Ma'lumki, qonuniyat— bu barqaror, zaruriy, u yoki bu hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi mutanosiblik va muhim aloqa. Ijtimoiy ehtiyojlar va sharoitlar o'quv jarayonining harakteri, uning vazifalari, mazmuni, shakllari, usullari va vositalari qonuniy ravishda aniqlab beradi. Agar o'qitish jamiyat talablarini e'tiborga olmasa, u holda uni, albatta, qayta qurish, takomillashtirish kerak.

Demak, ta'lim berish, tarbiyalash va o'quvchilarning umumiy rivojlanishlarini bir butunlikda amalga oshirish zarur.

Ifodalangan qonuniy didaktik aloqalarni va o'qitish qoidalarini ilmiy asoslangan o'zaro bog'lanishda qo'llash ko'nikma va malakalarni chuqur, puxta, ongli va ta'sirli o'zlashtirilishini ta'minlaydi. O'qitishni aynan shunday natijaga qaratish uning ongliklik, puxtalik, ta'sirchanlik qoidalarini harakterlaydi.

Ta'limning mazmuni hayot, hozirgi zamon fani bilan bog'langan bo'lganligi uchun ham, vazifalarda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish muammolari, ishlab chiqarishni mexanizasiyalash, avtomatlashtirish, komp'yuterlash kabilar asosida intensivlash o'z aksini topishi kerak.

Har bir o'qituvchi shuni anglab etishi muhimki, o'quv jarayonini samarali qurish bu, ishda o'zini oqlagan pedagogik qonuniyatlar, qoidalar, didaktik qoidalarni hozirgi zamon sharoitidagi yangi masalalarni hal qilishda ijodiy foydalangan holda, ulardan butunlay va o'zaro aloqada foydalanish demakdir.

O'qitishning muqobil tomonlarini tanlash uchun butun qonuniyatlar birligini va didaktik qoidalarini e'tiborga olish zarur.


O'qitish qonuniyatlaridan uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan muhim talablar kelib chiqadiki, buni o'qitish qoidalari deb ataydilar. O'qitish qoidalarini bilish o'qitishning zarur usullarini yanada ishonchliroq tanlashga imkon beradi.

Ta'lim qoidalari — o'qituvchining faoliyatini va o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonun va yo'l-yo'riqlarini o'z ichiga oladi. SHu bilan bir vaqtda ta'lim qoidalari har ikkala faoliyatni, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi tomonidan o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini beradigan bir qancha talablarni ham umumlashtirib beradi. SHunga ko'ra ta'lim qoidalari o'qitishning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

«**Ta'lim qoidalari deb** umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonlarining yo'nalishi, o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning

o'zlashtirilishi, bilim va malakalar hosil qilishning asosiy qonun va qoidalarining yig'indisiga aytiladi»¹¹.

So'nggi yillarda olimlar tomonidan yaratilgan pedagogik adabiyotlarda didaktik qoidalar turlicha guruhlashtirilmokda. Ana shularga asoslangan holda quyidagicha ta'lim qoidalari (tamoyillari) ni ko'rsatib o'tish mumkin (chizmaga qarang):



Ta'limning ilmiyligi qoidasi o'quvchining o'quv materialidagi qonuniyatlarni aks ettirishi, tushunishi va o'zlashtirishi uchun to'g'ri sharoit yaratish maqsadida zarurdir. Ilmiylik qoidasi barcha yosh guruhlaridagi va turli o'quv yurtlaridagi o'quvchilarga o'rganish uchun ilmiy jihatdan ishonarli, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi. Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e'tiqod tarkib topadi. Tafakkur rivojlanadi. Ta'limning ilmiy bo'lish qoidasi ta'lim jarayonida o'quvchilarni hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti darajasiga muvofiq keladigan ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, yoshlarni ilmiy-tadqiqot usullari bilan tanishtirib borishni ta'minlashga qaratilgan.

Ta'limning tizimli va izchil bo'lishi qoidasi. Ijtimoiy taraqqiyotning har bir davridagi maktabning tarixiy tajribasi ta'lim vazifasini ma'lum bir tizimsiz bajarib bo'lmasligini ko'rsatadi. Ta'limda izchillikka rioya qilib o'qitish lozim, toki bugun o'rganilgan bilimlar kecha o'rganilganlarni mustahkamlasin, ertaga o'rganiladiganlarga zamin hozirlasin. Tizimlilik va izchillik o'quvchilarda har qaysi o'quv fanlarining bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lishini ko'rsatishda ham muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim va tarbiyaning birligi qoidasi- ta'lim tizimida asosiy va yetakchi qoidalardan biri hisoblanadi. U didaktik qonunlarning o'qish va o'qitish borasidagi tub mohiyatini ifodalaydi. Binobarin, o'quv fanlarining har biri, hatto, ayrim mavzu va mavzuchalari ham shubhasiz tarbiyalovchilik harakteriga ega.

O'qitish jarayonida **onglik va faollik qoidasi** o'quvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash usullarini ongli va faol egallab olishini, ularda ijodiy tashabbuskorlik, o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, ilmiy dunyoqarash, e'tikod tarkib toptirishni nazarda tutadi.

Ta'limda nazariyani amaliyot bilan bog'lab o'qitish qoidasi didaktikaning yetakchi qoidalaridan biridir. Bu qoida dastavval o'quv faninig mazmuni va o'ziga xos xususiyatiga bog'liq holda o'qish jarayonida amalga oshiriladi. Inson ilmiy bilimlarni o'zlashtirib olishigina emas, balki

¹¹Pedagogika. A. Munavvarov tahriri ostida. T., «O'qituvchi», 1996 y, 75 b.

bu bilimlarni amalda qo'llay bilishi ham kerak. Ta'lim jarayonida nazariya bilan amaliyotning birligi qoidasining izchillik bilan amalga oshirilishi natijasida o'quvchilar o'quv materialining tub mohiyatini, tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini ilmiy asosda atroflicha to'g'ri, chuqur tushunib oladilar va kelajak amaliy faoliyatlari uchun zarur bo'lgan mahorat, ko'nikma va malakalar hosil qiladilar.

Ta'limning ko'rsatmalilik qoidasi o'qitish jarayonining sifatini orttiradi, o'quvchilarning bilim olishlarini osonlashtiradi. Bu qoida o'qitish jarayonida ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri, muskul-harakat kabi sezgi organlarining bir yo'la ob'ekt ustida safarbar qilinishini talab etadi. Ta'limda ko'rsatmalilikning samarali natijalar berishi uchun ko'rsatmali qurollar o'quvchilarning yoshi, umumiy tayyorgarligi- saviyasiga mos bo'lishi, mavzu mazmunini ochib berishga yordam berishi, undan foydalanish uchun ta'lim usullari to'g'ri tanlangan bo'lishi lozim.

Ta'limning o'quvchilarga mos bo'lishi qoidasida ta'limning ikki tomoni e'tiborda tutiladi: a) o'quv materialining xarakteri, mazmuni va hajmi sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos bo'lishi; b) bilim hajmi o'quvchilarning saviyasiga mos bo'lishi lozim. Ta'limning o'quvchilarga mos bo'lishi quyidagi qoidalarga asoslanadi: «Osondan qiyinga qarab borish», «Ma'lumdan noma'lumga qarab borish», «Soddadan murakkabga qarab borish».

Ta'lim va tarbiyaning birligi qoidasi mohiyati.

Maktab o'quvchilariga ta'lim berish, tarbiyalash va ularning umumiy rivojlanishlarini bir butunlikda amalga oshirish zarur. Ta'lim tizimida ta'lim va tarbiyaning birligi qoidasi asosiy va yetakchi qoidalardan biri hisoblanadi. U didaktik qonunlarning o'qish va o'qitish borasidagi tub mohiyatini ifodalaydi; Binobarin, o'quv fanlarining har biri, hatto, ayrim mavzu va mavzuchalari ham, shubhasiz, tarbiyalovchilik harakteriga ega.

Ta'lim jarayonida o'tilayotgan katta va kichik mavzularning mazmunidan kelib chiqadigan tarbiyaviy tomonlarini to'g'ri belgilash va uni ta'lim bilan birga, bir butunlikda amalga oshirishni ta'minlash juda muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Demak, bir butun ta'lim jarayonida ikki o'zaro bog'liqlik: hayotni bilish va unga bo'lgan munosabatni tarkib toptirish jarayoni ajralib turadi. Maktabda beriladigan ta'lim bilan tarbiya o'rtasidagi pedagogik jarayonning butunligini ta'min etuvchi uzviy birlik hamisha mavjud.

Maktab ta'limida o'quvchilar tabiiy fanlarni—matematika, ximiya, biologiya, astronomiya va boshqa fanlarni o'zlashtirish orqali ilmiy e'tiqodlari shakllana boradi. Ular dunyoni o'rganish mumkinligini ilmiy asosda anglab oladilar, haqiqatga ishonch bilan, yolg'on narsalarga nafrat bilan qaray oladigan bo'ladilar. Ular ustidan haqqoniy hukm chiqaradigan aqlli, idrokli, iymonli inson bo'lib yetishadilar.

Maktab ta'limida gumanitar fanlarning ham tarbiyaviy mohiyati juda muhimdir. Tarix fanini o'rganish orqali o'quvchilar (yangi taklif etilgan fani dasturi asosida) jumhuriyatimiz tarixi, uning rivojlanish bosqichlari, moddiy-madaniy, ilmiy-siyosiy, ma'naviy jihatdan rivojlanishi, adabiy-badiiy merosi, bobokalonlarimiz tomonidan qoldirilgan qimmatli xazinalarimiz, hozirgacha o'rganilmay qolgan xalq pedagogikasi durdonalari bilan tanishadilar. Qo'ying-chi, sharqona udumlar, odatlar dunyosiga kirib boradilar, tarixning chin ijodkori xalq ommasi ekanligi haqida aniq bilimga ega bo'ladilar. Adabiyot va san'atni o'rganish o'quvchilarni chin inson qilib tarbiyalashdagi eng zarur shartlardandir.

Ta'lim-tarbiyaning birligi ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil qilish va o'qitishning xilma-xil usul va uslublaridan foydalana olishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Ayniqsa, ta'lim bilan tarbiyaning birligini ta'minlamoq uchun (Pedagogika. A. Munavvarov tahriri ostida. T., «O'qituvchi», 1996 y, 78-79 bb):

- bayon qilinayotgan o'quv materiallarining mazmuni ham ilmiy, ham g'oyaviy jihatdan to'g'ri tashkil qilinishi;
- o'qitilayotgan temaning ilmiy va tarbiyaviy mohiyati ochib berilishi, ta'lim jarayonida hadislardan foydalanish imkoniyatini yaratilishi;
- bayon qilinayotgan ilmiy bilimlarning puxta va mustahkam o'zlashtirilishi va turmushda unga amal qilinishi;
- ta'limda muammoli jarayonni vujudga keltirish, o'quvchilarning qiziqishlari, aktivlik va Tashabbuskorliklarini ta'minlashga e'tiborning kuchaytirilishi;

- ta'lim jarayonida o'quvchilarning uyushqoqlik, intizomlilik va javobgarlikni sezish, o'zaro yordam hislarini tarbiyalashni ta'minlamoq zarur.

V-Mavzu: Tarbiya nazariyasini o'qitish metodikasi

Reja:

1. Oliy o'quv yurti va KXXda pedagogika fanlarini o'qitish shakllari.
2. O'qitish samaradorligini oshirishda innovasion texnologiyalardan foydalanish.
3. Talaba va o'quvchilarni mustaqil fikrlashga chorlovchi interfaol metodlardan foydalanish.
4. Pedagogik amaliyotni tashkil etish mazmuni, samaradorligini oshirish yo'llari.

Asosiy tushunchalar

Pedagogika fanini o'qitish shakllari: leksiya, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'uloti, o'qitishda innovasiyaon texnologiyalardan foydalanish, talaba va o'quvchilarni mustaqil fikrlashi, pedagogik texnologiyalar, pedagogik amaliyot.

Oliy o'quv yurti va kasb-hunar kollejlari o'quv jarayoni shakllariga leksiya, seminar va Amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv anjumanlari, ekskursiya, ekspedisiya, o'quv ishlab chiqarish pedagogik amaliyoti, kurs va diplom ishlari, talabalarning mustaqil tahsili kabilar kiradi. Pedagogika fanlarini o'qitishning asosiy shakllaridan biri bu- leksiya (ma'ruza)dir. Leksiya (ma'ruza)- u yoki bu ilmiy masalani to'g'ri, mantiqiy izchillikda va aniq izohlab berish. S.I.Arxangelskiyning ta'kidlashicha, ma'ruza o'qituvchi shaxsining barcha boyligi: ongi, hissiyoti, irodasi, tuyg'usi, e'tiqodi orqali talabalar ichki dunyosi bilan muloqatda bo'lishning eng samarali, jonli shaklidir. Bu shakl o'qituvchining yo'naltiruv, axborot berish, metodologik va tarbiyalov funksiyalarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi.(N.N.Azizxo'jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogi mahorat. T., 2003, 14 b)

Ma'ruzaning yo'naltiruv funksiyasida talabalarning diqqati o'quv materialining asosiy qoidalari, uni o'rganishdagi hamda bo'lg'usi kasbiy faoliyatidagi roli va ahamiyati, uni o'zlashtirish metodlariga jalb qilinadi.

Ma'ruzaning axborot berish funksiyasi o'qituvchi tomonidan asosiy ilmiy faktlar, qoidalar, xulosalarning mohiyatini ochish chog'ida amalga oshiriladi.

O'qitishning metodologik funksiyasini qo'llash tadqiqot metodlarini qiyoslash, chog'ishtirishga, ilmiy izlanishning tamoyillari va yondashuvlarini aniqlashga yordam beradi.

O'qitishning tarbiyalov funksiyasi ma'ruza jarayonida o'quv materiallariga hissiy baho berish munosabatlarini uyg'otish, qiziqishlarini o'stirish, mantiqiy fikrlash va isbotlashni oydinlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

N.Azizxo'jaeva leksiyada hal qilinadigan asosiy vazifalarni quyidagicha belgilaydi:

- ilmiy bilimlarning muayyan miqdori bayon qilinadi;
- talabalarga fan va tadqiqotlarning metodologiyasi tanishtiriladi;
- o'quv faoliyati va o'quv mashg'ulotlarining barcha turlari orasidagi metodik aloqalar ko'rsatiladi. (N.N.Azizxo'jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogi mahorat. T., 2003, 15 b)

Didaktik maqsadiga ko'ra kirish, tematik va yakuniy ma'ruzalar farqlanadi.

Kirish ma'ruzada kurs (bulim, mavzu)ning ilm-fan tizimidagi o'rni, ushbu materialni amaliyotda qo'llash imkoniyatlari, kurs, mavzu mazmunini o'rganish metodlari ochib beriladi.

Tematik ma'ruzalar amaliyotda keng qo'llaniladi. Bunday ma'ruza u yoki bu mavzuga bag'ishlangan bo'lib, unda faktlar, ularning tahlillari, xulosalar mazmuni bayon qilinadi, aniq ilmiy qoidalar isbotlanadi.

Umumiy- yakuniy ma'ruza avval o'rganilgan materiallarni qaytadan umumlashtirishga qaratilgan bo'ladi.

Pedagogika fanlarini o'qitishda foydalaniladigan amaliy mashg'ulotlar ta'limiy, tarbiyaviy hamda nazariyani amaliyot bilan bog'lash funksiyasini bajaradi. «Amaliy mashg'ulot» termini pedagogikada keng va tor manlardanq' nolarda izohlanadi. U keng ma'noda mashq, seminar va

laboratoriya mashg'ulotlarini umumlashtiradi. Amaliy mashg'ulotlarda birgalikdagi harakat namoyon bo'ladi. Ma'ruzada ilmiy bilimlar asosi bayon qilinsa, Amaliy mashg'ulotlarda bilimlar chuqurlashtiriladi va kengaytiriladi.

Seminar mashg'ulotlari quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ma'ruzada bayon qilingan nazariy qoidalarni mustahkamlaydi;
- fan bo'yicha bilimlarni kengaytiradi va chuqurlashtiradi;
- talabalarning ilmiy-tadqiqot, bilish qobiliyatlarini o'rtiradi;
- nazariyada olingan bilimlar amaliyotda qo'llaniladi.

Seminarlar seminaroldi mashg'uloti, seminar va maxsus seminar shakllarida o'tkaziladi. Seminaroldi mashg'ulotlari talabalarni mustaqil ishning xususiyatlari bilan tanishtirish maqsadida o'tkaziladi. Unda adabiyotlar va boshqa manbalar bilan ishlash usullari o'rgatiladi. Seminarga tayyorgarlik ko'riladi. Bunda o'qituvchi yetakchilik qiladi.

Seminar mashg'ulotlarida kurs chuqur o'rganiladi, biror mavzu yoki kursning alohida, muhim bo'lgan mavzularini metodologik jihatdan ishlab chiqiladi.

Maxsus seminarlar ma'ruza mavzulariga aloqador bo'lmaydi va biror fanning dasturi mazmuniga kirmaydi. Odatda fanning xususiy masalalarini chuqur o'rganish maqsadini ko'zlaydi.

Seminar mashg'ulotlarida talabalarni faollashtirish maqsadida ularga referatlar yozish hamda muhokama qilish va taqrizdan o'tkazishga jalb etiladi.

Laboratoriya mashg'ulotlarining asosiy tavsifi shundaki, unda talabalar mustaqil ravishda vazifa bajaradilar yoki eksperiment o'tkazadilar. Laboratoriya mashg'ulotlari talabada tadqiqot o'tkazish ko'nikmalarini shakllantiradi, eksperimentning umumiy metodikasini egallashga imkon beradi.

Pedagogika fanlarini o'qitishda mustaqil ishlar ham muhim o'rin egallaydi. Mustaqil ishda bilimlar egallanishi bilan birga, ko'nikmalarni shakllantirish ham mustaqil tashkil etilishi ta'minlanadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda mustaqil ishlarning quyidagi turlari qayd etiladi:

- namunalar bo'yicha mustaqil ishlar;
- rekonstruktsiya-variantiv;
- evristik (qisman ijodiy);
- ijodiy tadqiqot.

Ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim ham tashkil etiladi. Uning maqsadi talabalarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini o'rtirishdir. Mustaqil ta'limning vazifalari: shaxsning intellektual imkoniyatlarini yangilash, ularning g'oyaviy-nazariy saviyasini oshirish, kasbiy mahorati va madaniyatini takomillashtirish.

Mustaqil ta'lim jarayoni uning aniq shakli, metodlari va usullarini qamrab olishi shart. Mustaqil ta'limning asosiy metodi adabiyotlar ustida individual ishlashdir. Mustaqil ta'limga Amaliy vazifalarni bajarish va audiovizual uskunalar bilan ishlash ham kiradi. Bu ta'limning asosiy maqsadi talabalarni ijodiy izlanishga, o'z ustida ishlash, har tomonlama tadqiqot yuritishning mohiyatini anglashga tortishdir.

Mamlakatimizning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun aholi ta'limini jadallashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadi ham ilg'or pedagogik tadbirlardan, texnologiyalardan keng foydalanishimizni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish kelajakda yosh avlodni yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy faollik, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil qatnasha olish, erkin fikr yuritish qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Bu esa o'z navbatida talaba va o'quvchilarning ilmiy bilim darajasini va faolligini kengaytirishni talab qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning darsga nisbatan qiziqishlarini orttirishga, mustaqilligi va faolligini rivojlantirishga, tanqidiy tafakkurini o'rtirishga qaratilgan interaktiv ta'lim olishlariga ko'mak beruvchi innovasion usullardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Chunki innovasiyalar uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonida ma'lum o'zgarishlarga, ta'lim mazmuni, sifati boyishiga va

samarali tashkil etilishiga sabab bo'ladigan turli tuman tashabbus va yangiliklarning yaxlit tizimida namoyon bo'ladi.

Innovasiyalar muhim ahamiyatli bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib ta'lim tizimi rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bunday innovasion usullarga kichik guruhlarda ishlashning «Aqliy hujum», «Rolli o'yinlar», «O'yinli sudlar», «Munozara», «Echimlar daraxti», «Muzyorar», «Ikki kismlik kundalik», «Sinkveyn», «Klaster», «Kubiklar», «B-B-B», «Venn diagrammasi», «T- chizma», «Birgalikda o'qitish», «Zigzag», «Keys», «Pinbord» va boshqa shakllarini misol qilib keltirish mumkin.

Innovasion usullardan biri bu dars jarayonida **B-B-B** (bilamiz, bilishni xohlaymiz, bildik) jadvali bilan ishlashdir. «B-B-B- (bilamiz, bilishni xohlaymiz, bildik) usuli mashg'ulot jarayonida matnni tushunishni kuzatishdagi grafik tashkilotchi hisoblanadi»¹².

B-B-B chizmasi

Taxminan nimani bilamiz?	Nimani bilishni xohlaymiz?	Nimani bildik?
---------------------------------	-----------------------------------	-----------------------

Talabalar guruhlariga bo'linish qoidalari yoki biror didaktik o'yin asosida kichik guruhlariga bo'linishadi. O'tilayotgan mavzu yoki tushuncha yuzasidan har bir guruh o'zaro hamkorlikda «Taxminan nimani bilamiz?» ustunini to'ldirishadi. Doskadagi birinchi ustunga esa barcha guruhlarining javoblari jamlanadi. Berilgan javoblar toifalar bo'yicha guruhlanadi. Masalan, ta'lim metodlari tahlil etilayotgan bo'lsa, javoblardagi og'zaki bayon, ko'rgazmali, amaliy, muammoli va boshqa metodlarga oid tushunchalar alohida toifalanib chiqiladi.

Keyin har bir guruh a'zolari o'zaro kelishilgan holda «Bilishni xohlayman» ustuniga mavzu yuzasidan o'zini qiziqtirgan savollarni yozib chiqishadi. Doskadagi ikkinchi ustunga esa barcha guruhlarining savollari jamlanadi. SHundan so'ng talabalar mavzu yuzasidan matn (ma'ruza) bilan to'liq tanishib chiqadilar va jadvalning ikkinchi ustuniga qaytib, o'zlari bilishni xohlagan savollardan qaysilariga javob topganligini belgilab chiqishadi. Savollarga topilgan javoblar uchinchi «Bildik» ustuniga yoziladi. Talabalarni qiziqtirgan qaysidir savolga javob chiqmay qolgan bo'lsa, uni o'qituvchi to'ldirishi yoki uyga vazifa sifatida bilib kelishni topshirishi mumkin.

Masalan, Pedagogika nazariyasidan «Kadrlar tayyorlash milliy modeli. O'qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o'rni» mavzusida Ta'lim qonuni va Milliy dasturni o'rganish uchun «B-B-B chizma»dan foydalanishimiz mumkin. Ta'lim qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yuzasidan har bir guruh o'zaro hamkorlikda «Taxminan nimani bilamiz» ustunini to'ldirishadi. Doskada chizilgan jadvaldagi birinchi ustunga esa barcha guruhlarining javoblari jamlanadi. Berilgan javoblar toifalar bo'yicha guruhlanadi. Masalan, ta'lim turi, tizimi, boshqarish va boshqalarga oid javoblar. Keyin har bir guruh a'zolari o'zaro kelishgan holda «Bilishni xohlayman» ustuniga mavzu yuzasidan o'zini qiziqtirgan savollarni yozib chiqishadi. Doskadagi ikkinchi ustunga barcha guruhlarining savollari jamlanadi. SHundan so'ng talabalar Ta'lim qonuni va Milliy dastur matni bilan tanishib chiqadilar va jadvalning ikkinchi ustuniga qaytib, o'zlari bilishni xohlagan savollardan qaysilariga javob topganlarini belgilab chiqishadi. Savollarga topilgan javoblar uchinchi «Bildik» ustuniga yoziladi.

«B-B-B» chizma usulidan boshqa mavzularni va fanlarni o'qitishda matn bilan ishlash jarayonida keng foydalanish mumkin.

Usul mohiyatini yanada kengroq tushuntirish maqsadida quyidagi misolni keltiramiz. Masalan, Pedagogika fanidan «Ta'lim mazmuni» mavzusini o'tayapmiz. «Aqliy hujum» usuli qo'llanilib, dastlab har bir talaba, keyin esa kichik guruh o'zaro kelishib jadvalning birinchi bo'limini to'ldirishadi, ya'ni ta'lim mazmuni deganda ularning xayoliga nima kelsa, u haqda qanday tushunchaga ega bo'lishsa ularni yozib chiqishadi, . bu quyidagicha bo'lishi mumkin:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bildim
----------------	---------------------------	---------------

¹² Xalqaro ochiq jamiyat institutining «Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari» dasturi.- T., 2002, 20-bet.

1. Ta'lim mazmuni DTSlarida aks etgan. 2. Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim mazmuni bir-biridan farq qiladi. 3. Turli davlatlarda ta'lim mazmuni turlicha. 4. Ta'lim mazmuni turli fanlarni o'qitish orqali beriladi. 5. Ta'limni dars-liklar va boshqa adabiyotlar orqali bilib olamiz. 6. Qator yangi fanlar o'qitila boshlandi	1. Ta'lim mazmuni nimaga qarab belgilanadi? 2. Ta'lim mazmuni o'zi nima? 3. Ta'lim mazmuniga ilgari qanday yondashilgan? 4. Ta'lim mazmuni bizda qanday rivojlanyapti? 5. Ta'lim mazmunini aks ettiruvchi asosiy hujjat nima? 6. O'quv reja va dastur nima? 7. Umumiy o'rta ta'lim va kasb-hunar ta'limining farqi? 8. Darsliklarni kim yaratadi? 9. Darslikni yaratishda nimalar e'tiborga olinadi? 10. O'zbekiston ta'limida qaysi sohalarga e'tibor katta?	(3-ustunni javoblarini quyida beramiz)
---	--	--

«Bilaman» ustunidagi javoblar toifalanib chiqiladi, ya'ni bir-biriga bog'liq yoki yaqin bo'lgan masalalar ajratiladi, masalan,

Ta'lim mazmunining o'ziga xos tomonlari- 1,2.

Ta'lim mazmuni aks etuvchi hujjatlar- 1,4,5.

Ta'lim turlari va ta'lim mazmuni- 2.

Ta'lim mazmuni taraqqiyoti- 3, 6.

So'ngra ikkinchi ustunga shu masala yuzasidan nimani bilishni xohlashlarini yozib chiqishadi.

SHundan so'ng mavzu matni (yoki ma'ruza) bilan tanishib chiqiladi.

Mavzu o'tib bo'lingandan yoki matn bilan tanishib chiqilgandan so'ng talabalar «B-B-B» jadvalining uchinchi ustuniga o'tishadi. Ular ikkinchi ustunda qo'yilgan savollarga olgan javoblarini uchinchi ustunga yozib chiqishadi. Bular quyidagicha bo'ladi (3-ustunga yoziladi):

1. Ijtimoiy ishlab chiqarishning zarur ehtiyojlari; davlatning o'quv yurti oldiga qo'ygan maqsad va vazifalari; o'quvchilarning imkoniyatlarini e'tiborga oluvchi didaktik qoidalar.
2. Ta'lim mazmuni-yoshlarni ma'lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalash maqsadida ma'lumot mazmunidan tanlab olinib, ta'lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko'nikma, malaka, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat va tafakkur hodisalarini emosional baholashga doir munosabatlardir.
3. Ta'lim mazmuni tanlashga oid nazariyalar uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ulardan real va klassik ta'lim nazariyalari, moddiy va formal ta'lim nazariyalarini misol qilib keltirish mumkin.
4. Ta'lim mazmuni quyidagi yo'llar bilan takomillashib boryapti: fan va tajribadagi eng yangi muvaffaqiyatlarni aks ettirish; ikkinchi darajali materiallardan qutulish; fanga oid asosiy tushuncha va yetakchi g'oyalarni aniq bayon qilish; o'quvchilarda pedagogik texnologiyalar va O'TV dan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish.
5. Ta'lim mazmunini aks ettiruvchi asosiy normativ hujjatlar: DTS, o'quv reja, o'quv dastur va darslikdir.
6. O'quv rejasi - davlat hujjatidir. Unga barcha umumta'lim maktablari so'zsiz amal qiladi. Bu hujjatda sinflar bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv fanlari va shu fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari ko'rsatiladi. Bu hujjat maktabning yagona o'quv rejasi hisoblanib, u xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. O'quv dasturi - har bir alohida fan uchun tuziladi. Dastur o'quv rejasiga asoslanadi. Dasturda fanning mazmuni, mavzu ketma - ketligi, ikkinchi mavzu birinchisini to'ldirishi, izchilligi bilan yoritiladi va ma'lum mavzular orqali ko'rsatiladi. O'quv dasturida mavzu maqsadi qisqacha izohlanadi.

7. Umumiy o'rta ta'lim quyidagi ikki bosqichdan iborat: 1) boshlang'ich ta'lim-1-4 sinflar; 2) umumiy o'rta ta'lim-5-9 sinflar. «Umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turdir. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishi — akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi»¹³. 1998 yil 13 mayda Vazirlar Mahkamasining «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida»gi 204-sonli qarori va qarorga ilova tarzida «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida Nizom» e'lon qilindi. Nizomda ko'rsatilganidek: «Kasb-hunar bo'yicha chuqurlashtirilgan, tabaqalashtiriggan ta'lim berish, o'quvchilarning intellektual rivojlanishi va ularning o'z qobiliyatlari va moyilliklariga muvofiq tanlagan kasb-hunar bo'yicha mutaxassisliklarni egallashini ta'minlash o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining maqsadi hisoblanadi»¹⁴.
8. Darslik. Darslik o'quv jarayonining asosi. O'quvchining uydagi muallimi, yordamchisi. Darslikni ilg'or tajribali metodist o'qituvchilar va olimlar yaratishadi
9. Darslik quyidagi talablarga amal qilgan holda yaratiladi: darslikda aks etgan ilmiy bilimlar sinfi o'quvchilarining yosh xususiyatiga mos kelishi kerak; darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asosi, g'oyalari tizimli va izchil bo'lishi talab qilinadi. Ular hayotdan olingan, ishonarli bo'lishi lozim; nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'langan bo'lishi kerak; darslikda mavzu sodda ravon tilda yozilishi hamda tegishli qoida va ta'riflar beilishi kerak. Darslik ichidagi va muqovasidagi rasmlar va bezatilishi o'quvchining yoshiga mos, fanning xarakteriga monand bulishi kerak; mavzulardagi fikrlar aniq va qisqa bo'lishi, ilmiylikka asoslanishi kerak.
10. Bu savol uyga vazifa sifatida beriladi. Har bir talaba adabiyotlardan foydalanib va o'z fikrlariga asoslanib savolga javob yozib kelishadi.

Talablarning uchinchi savolida ta'lim mazmunini tanlashga oid nazariyalar haqida gap ketgan edi. Ulardan moddiy ta'lim nazariyasi va formal ta'lim nazariyalarining mohiyatini talabalar o'rganib, tahlil qilishlari lozim bo'ladi.

Moddiy ta'lim nazariyasi XIX asrning keyingi choragida kirib keldi. (1879 y, F.Doerfeld. «Didaktik materializm» kitobi). Moddiy ta'lim nazariyasi asoschilari maktabning vazifasi bolalarga imkoniyati etguncha ko'proq bilim o'rgatishdan iborat deb hisoblardilar.

Formal ta'lim tushunchasi 1791 yili (E.Shmidtning «Empirik psixologiya» kitobida) ishlatilgan.

Formal ta'lim nazariyasi tarafdorlari maktabning vazifasini bolalar taraqqiyotida ko'rishadi. Ular maktabning ishi bilim berish emas, aksincha, bolalarda turli qobiliyatlarni rivojlantirishdan iborat, deb bilishadi. Bilimlarni esa har kim o'zi istagancha, o'z qobiliyatiga yarasha o'rganadi.

Moddiy ta'lim va formal ta'lim nazariyalari g'oyalarini interfaol usullardan biri bo'lgan «T-chizma» asosida solishtirish, tahlil etish natijasida quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Moddiy ta'lim nazariyasi		Formal ta'lim nazariyasi	
Ijobiy tomonlari	Salbiy tomonlari	Ijobiy tomonlari	Salbiy tomonlari
Bolaning imkoniyati etganicha ko'p bilim berish; Barcha sohalarga oid bilimlar tayyor holda beriladi; Ensiklopedik bilimli kishi o'zini-o'zi rivojlantiradi; SHarq pedagogikasida ham qomusiy	Bola taraqqiyotiga kam e'tibor berilishi; Ta'lim va taraqqiyot o'rtasidagi aloqadorlikni e'tirof etmaslik; Darslik va qo'llanmalarining kengayib ketishi; Darsliklarda ikkinchi darajali axborotlarning	Bolaning taraqqiyotiga birinchi darajali ish deb qaralishi; Bolaning turli qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor berish; Bolani fikrlashga o'rgatish tarbiyadan orqada qolmasligi; Ta'lim bolaning	Barcha fanlar bo'yicha umumiy asoslarni ham to'liq berilmasligi; Tafakkurni formal rivojlantirishga e'tibor qaratib, tafakkur bilimlarni o'zlashtirish natijasida rivojlanishiga e'tibor bermaslik; Ilmning ko'plab

¹³ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq». 1998 y, 47 b.

¹⁴ O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida Nizom. // «Xalq ta'limi», 1998 y, 4-son, 13 b.

bilimlarga intilishgan.	ko'payib ketishi.	qobiliyati va qi-ziqish doirasiga mos bo'lishi; Taraqqiy ettiruvchi ta'lim metodlaridan foydalanish.	sohalaridan bexabar qolish.
-------------------------	-------------------	--	-----------------------------

Oliy o'quv yurtlarida Pedagogika fanlarini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish talabalar faolligini oshirish bilan birga, bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlikni, pedagogik mahoratni shakllanishiga ham yordam beradi.

Bu esa o'z navbatida o'quvchi va talabalarning darsga nisbatan qiziqishlarini orttirishga, mustaqilligi va faolligini rivojlantirishga, tanqidiy tafakkurini o'stirishga qaratilgan g'uruhli ta'lim shakllaridan keng foydalanishimizni talab qiladi.

Ta'limni kichik guruhlar asosida tashkil etish «ta'lim beruvchi- ta'lim oluvchi» dialogidan voz kechishni va «ta'lim beruvchi- guruh- ta'lim oluvchi» ko'rinishidagi uch tomonlama o'zaro munosabatga o'tishni nazarda tutadi. O'quv guruhi tarkibi buyicha harakatchan kichik guruhlariga bo'linadi va ularning har-biri o'zicha o'quv materialini o'zlashtiradi. O'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatiladi, shaxsiy va bir vaqtning o'zida jamoaviy ruhiy holat kuchayadi.

Guruhli ta'limni tashkil etishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

a) Mashg'ulot uchun ajratilgan vaqtga.

b) Mashg'ulot o'tkaziladigan joyga. Guruhli o'qitish odatdagi sinf xonasiga o'zgartirish kiritishni talab qiladi. Bunda quyidagilarni hisobga olish lozim:

- guruh qanday ish bilan mashg'ul bo'ladi;
- o'quvchilar sinfda aylanib yura olishlariga imkoniyat yaratish;
- guruh o'quvchilari bir-birlarini ko'rib, tinglay olsinlar;

v) Mashg'ulotda foydalaniladigan materiallarga. Mashg'ulot uchun kerakli materiallarni tayyorlash va tarqatish. Bunda yozma materiallarning o'quvchi imkoniyati darajasidan murakkab bo'lmasligi talab etiladi.

g) Yozma yo'riqnomalar tayyorlash. Guruhning topshiriqni va uni bajarish usulini anglab etishi ana shu yozma yo'riqnomalarga bog'liq bo'ladi. Yo'riqnoma:

- har bir o'quvchiga tushunarli tilda yozilgan bo'lishi kerak;
- guruh o'qituvchi yordamisiz foydalana olishi uchun aniq va mufassal bo'lishi kerak;
- topshiriq bilan birga bir necha nusxada berilishi mumkin;
- kutiladigan natijalar aniq ko'rsatilishi kerak.

Guruh bilan ishlaganda guruh a'zolarining majburiyatlarini belgilab quyilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'quvchilar bir-birlarini va boshqa guruh a'zolarini hurmat qilishlari lozim;
- javob berayotgan kishining so'zini bo'lmasdan, oxirigacha tinglash;
- topshiriqni bajarishda guruhning har bir a'zosi ishtirok etishini ta'minlash;
- kimki qiynalib qolsa sheriklaridan yordam so'ray olsin;
- har bir o'quvchi agar undan yordam berish so'ralsa imkoniyati darajasida yordam bersin.

Ta'limning guruhli shakli quyidagi jihatlari bilan ahamiyatlidir. Bunda

- O'quv-bilish jarayoni faollashadi;
- Har bir ta'lim oluvchining potensial imkoniyatlarini rivojlanishi va amalga oshirilishi ta'minlanadi;
- O'quvchi ishga qo'shadigan hissasini o'zi belgilaydi va shuning uchun ham unda bajonidil ishtirok etadi;
- O'quvchilar o'zlariga ko'prq ishonadilar;
- Hamkorlik o'zaro xayrixohlikni rag'batlantiradi.

Bundan ko'rinadiki ta'limning guruhli shakli o'quvchilarni faollashtirib, ularning bilimga va bilishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi.

Talabalarni erkin fikrlarini bayon etishga, umuman notqlikka, o'z qarashlarini himoya qilishga o'rgatadigan turli usullaran ta'lim-tarbiya jarayonida ham foydalanishimiz kerak. Ayniqsa, darslarda munozara va debatlarini qo'llash orqali ularning notqligini o'stirishga erishish mumkin deb hisoblayman.

Debatlar o'zi nima? Debatlar- bu argumentlashgan bahs, munozaradir. Debatlar asosida darslarni tashkil etishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad muammoning echimini topishda o'quvchi o'zgalarni o'z yondashuvining to'g'riligiga ishontirishdan iboratdir. O'z fikrini aniq va mantiqiy bayon etish, buning uchun esa ishonarli dalillar va xulosalar topish ko'nikmalarini shakllantirishda debatlar o'tkazish samarali metod hisoblanadi. Ular o'quvchilarda ijtimoiy fikrni o'zgartirishga ta'sir etish qobiliyati mavjudligiga ishonch tuyg'ularini rivojlantiradi.

Debatlar rasmiy va norasmiy shaklda bo'ladi. Rasmiy debatlarida o'ziga xos tuzilish, qoida va reglament bo'ladi. Ular o'quvchilarni rostgo'ylikka, bir-birini hurmat qilishga, tanqidiy ifkrlashga, o'rgatadi, hamda ularning tashkiliy malakalarini, nutq boyligini, tinglay olish va yozma qayd qilish malakalarini oshiradi.

Debatlarning asosiy elementlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Mavzu- u tasdiqlovchi shaklda ifodalanishi
2. Jamoalar:
 - a) Tasdiqlovchi tomon- mavzu bilan rozi bo'lib, hakamlarni o'z qarashlarining to'g'riligiga ishontirishga harakat qiladilar;
 - b) Inkor etuvchi tomon- hakamlarni tasdiqlovchi tomonning fikri (qarashlari) noto'g'riligiga ishnotirishi kerak, shu bilan birga tasdiqlovchi tomonning fikrlari noto'g'riligini dalil, faktlar bilan asoslashga harakat qiladi;
 - v) Hakamlar- toq sonda bo'ladi (1-11 tagacha). Debatlarning borishini qayd etib boradi, qaydnomalar asosida g'alaba qozonganligi haqida qaror chiqaradi;
 - g) Taym-kipper(vaqt ko'rsatuvchi va belgilovchi). U jamoa spikerlarini nutq tugashiga (tayyorlanishiga) echa daqiqa qolganligi haqida ogohlantirib turadi va vaqt tugaganligi haqida signal beradi.
- e) Argumentlar, ularning qo'llab-quvatlanishi va dalillar.

Argumentlar yordamida hakamlarni o'z g'oyalari kuchliroq ekanligiga ishontiriladi. Argumentlar sust yoki kuchli bo'lishi mumkin, lekin opponentning hujumiga qarshi tura olishi kerak. Qo'llab-quvatlash va dalillar bu: sitatalar, faktlar, statistika ma'lumotlari va ekspertning fikrlari
- j) Chaparasta savollar. «Chaparasta savollarga tutish» raundi- mazkur savollar orqali o'z fikr va nuqtai-nazarlarini aniqlash hamda qarshi jamoa a'zolari nutqidagi xatolarni aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Bu raundda olingan ma'lumotlarni navbatdagi spikerning chiqishida foydalanilishi mumkin.

Debatlarda o'quvchilarni shunday dalil-isbot topish ko'nikmalarini egallashga o'rgatish kerakki, natijada bildirilgan fikrni qarshi tomonning muhokama qilishiga o'rin qolmasin. SHundagina o'quvchilar tengdoshlarining qarashlarini hurmat qilishga yoki xususiy tasavvurlarini sinfdoshlarining fikri oldida ojiz ekanligini tan olishga o'rganadi, eng asosiysi, ularda erkin fikr yuritish ko'nikmalari shakllana boradi.

Debatlarni o'tkazish tartibi¹:

2. Qulay bo'lishi uchun rezolyusiyaning qo'llab-quvvatlaydiganlar o'qituvchining o'ng tomoniga, qarshilar esa chap tomoniga joylashganlari ma'qul.
3. O'qituvchi muhokama mavzusni va ikkala rezolyutsiya variantlarini bayon qiladi, so'zga chiquvchilar uchun vaqtni belgilaydi.
4. O'qituvchi dastlab rezolyusiyaning qo'llaydiganlarning birinchisiga so'z beradi va undan konstruktiv argumentlarni bayon qilishni so'raydi.
5. Rezolyutsiyaning qo'llamaydigan guruh o'quvchilaridan birinchisiga so'z beriladi va o'z fikrini argumentlar bilan asoslab beradi.
6. So'ngra birinchi guruhning ikkinchi raqamli o'quvchisiga va ikkinchi guruhning ikkinchi raqamli o'quvchisiga so'z beriladi. Shu holat barcha debat ishtirokchilari navbatma-navbat chiqish qilgunlariga qadar davom etadi.

7. Keyingi bosqichda har bir ishtirokchi qarshi tomonning dalillarini inkor etib tashlashga va ular tanqidiga javob berishiga imkoniyat tug'diriladi.
8. Masala talashish davomida yangi argumentlarni keltirish mumkin. Bahsni doim rezolyusiyaga qarshi tomon vakillari boshlashadi.
9. Ishtirokchilar shunday argumentlarni ko'rsatishi kerakki, 1-dan, ularning qarashlari muammo echimiga zid bo'lishi mumkin, 2-dan, barchani o'ylashga majbur etsin, 3-dan, hayratda qolarli darajada ifodalanishi lozim.
10. Debat so'ngida o'quvchilar qarshi tomon qabul qilgan rezolyusiyaning joriy etilishi oqibatlarini baholashi kerak. SHuningdek, har ikki tomondan o'rta tashlangan qarashlarni hayotga tadbiq etish jamiyat uchun qanchalik foydali yoki zararli ekanligini ham muhokama qilinishi mumkin.

Shu usullardan ayrimlarini pedagogika darslarida qo'llash yo'llari to'g'risida fikr yuritsak.

«Klaster»¹⁵ usuli

Klasterlarga bo'lish- talabalarga biror-bir mavzu to'g'risida erkin va ochiq tarzda fikr yuritishda yordam beradigan pedagogik strategiyadir. U fikrlar haqida mulohaza yuritishni rag'batlantirishga imkon beradigan tizimlarni yaratishni talab qiladi.

Klasterlarga bo'lish tartibi:

1. Katta varaq qog'ozning o'rtasiga yoki sinf doskasiga yohud yozish uchun foydalanish mumkin bo'lgan sathga ochqich so'z yoki gap yoziladi.
2. Mavzuga oid xayolga kelgan so'z yoki gaplar yozilaveradi.
3. Fikrlar paydo bo'lganda va ularni yozganda fikrlar, tushunchalar o'rtasida mumkin bo'lgan bog'lanishlarni belgilash lozim bo'ladi.
4. Barcha fikrlar tugamaguncha yoki vaqt tamom bo'lguncha xayolga kelgan barcha fikrlar yozilaveradi.
5. Tushunchalar mazmun-mohiyati, xususiyatiga qarab toifalanadi, ortiqcha so'zlar chiqarib tashlanadi.


Pedagogika nazariyasiga oid «SHaxs kamoloti ijtimoiy biologik xodisa, pedagogik jarayon ob'ekti va sub'ekti sifatida» mavzusini o'tishda talabalarni 4 guruhga bo'lib, ularga «Irsiyat», «Muhit», «Ta'lim-tarbiya», «Faoliyat» tushunchalariga, «Tarbiya qoidalari» mavzusida «Maqsadga qaratilganlik», «Insonparvarlik va demokratiya», «Qadriyatlar ustuvorligi», «Izchillik-tizimlilik» tushunchalariga klaster tuzdirish mumkin.

Talabalarga axloq, vatanparvarlik, mehnat, iqtisodiy, jismoniy, ekologik, huquqiy estetik tarbiya berishga oid mavzularda ham har bir tarbiya turiga oid klaster tuzib, sung uning mohiyatini keng ochib berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

«Ta'lim nazariyasi» bo'limining «Ta'lim mazmuni» mavzusida «Ta'lim mazmuni», «O'quv reja», «O'quv dastur», «Darslik» tushunchalariga, «Ta'lim tamoyillari» mavzusida har bir tamoyilga, ta'lim metodlari va dars turlarining har biriga ham avval klaster tuzilib, keyin muhokama qilinsa talabalarining fikrlashi va mustaqilligi yanada ortadi.

Klasterga «ta'lim-tarbiya» tushunchasiga tuzilgan quyidagi misolni keltirish mumkin:

¹⁵ Klaster- innovatsion uslub bo'lib, «toifalarga, turkumlarga ajratish ma'nosini bildiradi».



Yuqoridagi pedagogik kategoriyalar mohiyati ochib berilganidan so'ng, talabalarga mazkur tushunchalarga oid Sinkveyn usulida fikr yuritishga imkoniyat yaratish maqsadga muvofiqdir.

«Sinkveyn» larni har bir darsda va har bir o'tilgan tushunchaga tuzish mumkin. Sinkveyn¹⁶ (fransuzcha besh qator) usulida mavzu yoki tushuncha mohiyati besh qatorli ochiq she'rda yoritiladi. Bu usul qoidasi:

- 1-qator: Mavzu (bir so'z tanlanadi, odatda u ot bo'lishi shart);
 - 2-qator: Mavzuni ikki suz bilan ifodalash (ikkita sifat tanlanadi);
 - 3-qator: Mavzu bo'yicha harakatlarni ifodalash (uchta fe'l yoki ravishdosh tanlanadi);
 - 4-qator: Mavzuga munosabat, his-hayajon bildiriladi (to'rtta suzdan iborat jumla);
 - 5-qator: Mavzu sinonimi bir so'z bilan ifodalanadi.
- Sinkveynga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

Ta'lim

Uzluksiz, ixtiyoriy (majburiy).
O'rgatadi, yo'l ko'rsatadi, ruhlantiradi.
Hayotdagi eng yorug' chirog'! (Beshikdan to qabrgacha ilm izla!)
O'qish.

O'qish

Qiziqarli, tushunarli.
Bilim bermoq, tushunmoq, yutuqqa erishmoq.
Ruh, aql, hissiyotni farqlash.
O'rganish.

Odob

Go'zal, yaxshi.
Insonni bezaydi, ulug'likka ko'taradi, yashnatadi.
Inson odobi bilan go'zal!
Axloq.

Ko'rib turganimizdek, sinkveyn usuli bilan ishlash talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

¹⁶ Sinkveyn- frans. «besh qatorli she'r» ma'nosini bildiradi.

Pedagogik amaliyotning tarkibi, maqsad va vazifalari

Hozirgi kunda jamiyatimizda yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash masalasiga alohida ahamiyat berilayotgan ekan oliy ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan malakaviy pedagogik amaliyotning o'zni ham o'ziga xosdir. Oliy ta'limning me'yoriy hujjatlarida amaliyotga shunday ta'rif beriladi: «malaka amaliyoti - o'quv jarayonining nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikma va o'quv hosil qilish, ta'lim dasturining ma'lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo'yicha materiallar to'plash bo'yicha o'tkaziladigan bir qismidir»¹⁷.

Pedagogik amaliyot bo'lajak pedagoglarni mustaqil faoliyatga kasbiy tayyorlashda eng muhim bosqichlardan biri sifatida tan olingan. Bakalavr yo'nalishidagi talabalarning pedagogik amaliyotlari uchun 504 soat ajratilgan, bu o'n o'rt hafta davom etadi.

Talabalar o'quv amaliyotini o'rta maktablarda o'tadilar. Bu amaliyot talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, pedagogik faoliyat bilan amalda yaqindan tanishishga yo'naltirilgan.

Pedagogik amaliyotning maqsadi:

- Institutda olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga zamin yaratish, mazkur bilimlarning o'quv-tarbiyaviy, ilmiy- tekshirish va metodik ishda qo'llanilishi amalda kuzatish va talqin qilish;
- Mutaxassislikka doir fanlardan dars berish tajribasini o'rganish;
- Pedagogika va dars berish metodikasi fanlaridan davlat attestatsiyasiga amaliy tayyorgarlik ko'rish;
- O'quvchilar psixologiyasini o'rganish tajribasini oshirish.

Pedagogik amaliyotning asosiy vazifalari:

1. Sinf rahbari tarbiyaviy ishlarining shakli va uslublari bilan keng tanishish, o'quv sinflarida turli tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish tajribasini oshirish.
2. Zamonaviy pedagogika va uslubiyotning yutuqlarini qo'llagan holda turli xil o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishga doir, boshlang'ich ko'nikma va malakalarni hosil qilish.
3. Ilmiy tekshirish ishlarining ko'nikma va malakalarini shakllantirish.
4. Mavjud normativ va tavsiyanomalarga asoslangan holda turli xil o'quv-uslubiy hujjatlarni tuzish va ko'nikmalarini hosil qilish.

Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar o'qituvchining asosiy ishini bajaradilar, sinf rahbariga yaqindan yordam beradilar, o'quv muassasasining hamda o'quv - uslubiy va tashkiliy - uslubiy ishlarida to'liq qatnashadilar, psixologik-pedagogik kuzatish va tekshiruv ishlarini olib boradilar, maktab ijtimoiy hayotida ishtirok etadilar. O'quv-tarbiyaviy ishlarni olib borish uchun amaliyotchilar sinflarga berkitiladilar.

Amaliyotning birinchi haftasi talabalar uchun moslashish haftasi bo'lib hisoblanadi. Talaba o'quv yurti, uning an'analari, pedagogik jamoa, sinf o'quvchilari bilan tanishadi. O'qituvchilarning ish dastur va rejalarini o'rganadi, darslarni kuzatadi. Shu davr ichida amaliyot jarayonida bajaradigan ishlarining rejasini tuzib, tasdiqlatib oladi.

Pedagogik amaliyotni tashkil qilish yo'l va uslublari.

Bakalavr yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarining pedagogik amaliyoti o'quv rejasiga ko'ra o'n o'rt hafta davom etadi.

Talabalar o'quv amaliyotini o'rta maktablarda o'taydilar. Bu amaliyot talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, pedagogik faoliyat bilan amalda yaqindan tanishishga yo'naltirilgan.

Pedagogik amaliyotning maqsadi bo'lib quyidagilar xizmat qiladi:

- Institutda olingan bilimlarni o'quv-tarbiyaviy, ilmiy tekshirish va metodik ishda qo'llanilishi bilan tanishish.
- Mutaxassislikka doir fanlardan dars berish tajribasini o'rganish.

¹⁷ Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar. T., -----

- «Pedagogika» va «Dars berish metodikasi» fanlaridan davlat attestatsiyasiga amaliy tayyorgarlik ko'rish.
- O'quvchilar psixologiyasini o'rganish tajribasini oshirish.

Pedagogik amaliyotning asosiy vazifalari.

1. Sinf o'quv rahbari tarbiyaviy ishlarining shakli va uslublari bilan keng tanishish, o'quv sinflarida turli tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish tajribasining yig'ilishi.
2. Zamonaviy pedagogika va uslubiyotning yutuqlarini qo'llangan holda turli xil o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishga doir boshlang'ich ko'nikma va malakalarini hosil qilish .
3. Ilmiy tekshirish ishlarining ko'nikma va malakalarini shakllantirish.
4. Mavjud normativ va tavsiyanomalarga assoslangan holda turli xil o'quv - uslubiy hujjatlarni tuzish va ko'nikmalarini hosil qilish .

Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar o'qituvchining asosiy ishini bajaradilar, sinf o'quv rahbariga yordamchi bo'lib xizmat qiladilar, o'quv muassasining hamma o'quv uslubiy va tashkiliy uslubiy ishlarida to'liq qatnashadilar, psixologik-pedagogik kuzatish va tekshiruv ishlarini olib boradilar, jamoat ob'ektiv ishida qatnashadilar (amaliyot dasturi va o'quv muassasi ma'muriyatining ko'rsatmasiga asosan).

O'quv va tarbiyaviy ishlari bilan tanishtirish maqsadida amaliyotchi talaba sinflariga berkitiladi. Yordamchi o'quv rahbar sifatida har bir talabaga quyidagi mutaxassis uslubchilar berkitiladi; a) institutning o'qituvchi-uslubchisi; pedagogikadan, psixologiyadan o'qituvchi; b) fan o'qituvchisi;

v) talaba biriktiriladigan sinfning o'quv rahbari .

Pedagogik amaliyotning umumiy o'quv rahbarlari bo'lib quyidagi kishilar hisoblanadi:

- a) institut tomonidan - fakultet dekani (talabalarining qaysi maktabga borishini, ularning taqsimlanishi aniqlaydi, shuning bilan birga uslubchi va talabalarining ishlarini nazorat qilib boradi);
- b) Maktab direktori yoki uning o'rinbosari (talabalarni maktab bo'yicha sinflarga taqsimlaydi, ularga o'quv rahbarlik qiluvchi uslubshunoslarni tayinlaydi, talabalarining ish faoliyati va intizomini ko'rib boradi).

Amaliyotning birinchi haftasi talabalar uchun moslanish haftasi bo'lib hisoblanadi. Talaba o'quv yurti, uning an'analari, pedagogik jamoa bilan tanishadi. Ma'muriyat va o'qituvchilar tomonidan talabalar bajarishi kerak bo'lgan topshiriqlar va vazifalar belgilanadi.

Pedagogik amaliyot davrida tarbiyaviy ishlar.

Hozirgi vaqtda respublikamizda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»dagi asosiy vazifalardan biri barkamol shaxsni tarbiyalashdir. Tarbiyaviy ishlarni yuqori darajada olib borish uchun pedagogik sohada o'qiyotgan talabalar pedagogika fanidan mukammal bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi kerak.

Ma'ruzalarda talabalarining bilimi shakllanadi, amaliy mashg'ulotlarda pedagogika fani bo'yicha nazariy bilimlari mustahkamlanadi va pedagogik amaliyot davrida ularning tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish va uni o'tkazish, pedagogik ta'sir ko'rsatish va o'zaro harakatlarni amalga oshirish, optimal vositalarni tanlash, o'z-o'zini boshqarish, o'quvchilar shaxsining kasbiy yo'nalishini shakllantirish bo'yicha pedagogik malakalari shakllanadi

Talaba o'quv ishlari (amaliy va nazariy mashg'ulotlar)ni olib borar ekan, u tarbiyachi vazifasini ham bajaradi va tarbiyaviy ishlarda faol qatnashadi. Amaliyotchi talaba sinf o'quv rahbari sifatida siyosiy, axloqiy, mehnat, iqtisodiy, estetik, jismoniy va ekologik muammolar bo'yicha darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtiradi va tashkil qiladi, Amaliyotchi tarbiyaviy ishlarni o'quvchilar guruhining rivojlanganlik darajasi va ularning yosh va individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda olib boradi, shunga muvofiq holda turli tarbiya metodlari va ularning shakllarini qo'llaydi.

Pedagogik amaliyotning xususiyati shundan iboratki, bunda talabalar «o'qituvchi- tarbiyachi» sifatida kasbiy faoliyatning real muammolari doirasiga kiritiladi, «o'qituvchi-tarbiyachi» ishlarining real mazmuni va hajmi bilan tanishtiriladi.

Amaliyotchi-talabalarning maktabda tarbiyaviy ishlar bo'yicha asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Sinf o'quv rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasini o'rganish;
2. O'quvchilar guruhini o'rganish;
3. O'quvchilar jamoasi bilan tarbiyaviy ish masalasini aniqlash;
4. Jamoa bilan belgilangan tadbirlarni tanlash.
5. Sinf jamoasi bilan ishlash;
6. Sinf o'quv rahbari, pedagog bilan doimiy hamkorlikda bo'lish ;
7. O'quvchilarni tarbiyalashga jamoatchilikni jalb qilish ;
8. O'quvchilar ishtirokida turli tadbirlar o'tkazish (suhbat, baxs, anjuman, sinf majlisi va boshq.);
9. Sinf o'quvchilarining ota-onalari bilan ishlash:
amaliyotchi talaba tomonidan o'quvchilarning oilada tarbiyalanishining aniq shart-sharoitlarini o'rganish;
sinf ota-onalar majlisini o'tkazish;
ota-onalar o'quvini o'tkazish.

Hisobotga quyidagi tarbiyaviy ishlar kiritilishi lozim:

1. Ikkita tarbiyaviy soat ssenariysi;
2. Bitta guruh yig'ilish bayoni;
3. Bir yillik tarbiyaviy ishlar rejasi (pedagog, sinf o'quv rahbarining 6 oylik ish rejasidan ko'chirib olinishi kerak);
4. pedagog tomonidan tasdiqlangan kundalik;
5. Ikkita tarbiyaviy soat tahlili
6. Albom (unda amaliyot davrida qilingan ishlar natijalari o'z aksini topishi shart),

Tarbiyaviy ishlar bo'yicha maksimal reyting 80 balni tashkil etadi.

Bundan: 68,7 dan 80 gacha «a'lo»;
56,8 dan 68 gacha «yaxshi»;
44,8 dan 56 gacha «o'rta » baxo qo'yiladi.

VI-Mavzu . Maktab pedagogikasini o'qitish

R e j a:

1. Hozirgi kunda o'qituvchi-murabbiy shaxsiga qo'yilgan talablar.
2. O'qituvchining axloqiy fazilatlar.
3. O'qituvchining pedagogik qobiliyati va texnikasi.
4. O'qituvchining talabalar bilan munosabati, jamoa bilan ishlay bilishi

Asosiy tushunchalar

Hozirgi kunda o'qituvchi-murabbiy shaxsiga qo'yilgan talablar, o'qituvchining axloqiy fazilatlar, o'qituvchining pedagogik qobiliyati va texnikasi, o'qituvchining talabalar bilan munosabati, jamoa bilan ishlay bilishi

Ta'lim to'g'risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan masad va vazifalarni amalga oshirish, ta'lim-tarbiya sohasini tubdan isloh qilish va har tomonlama komil insonni tarbiyalab etishtirish avvalambor, o'qituvchi zimmasiga yuklatilgandir. Xalqimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligi, fidoiyligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

O'qituvchilik sharafl, lekin juda ma'suliyatli va murakkab kasbdir. Yaxshi o'qituvchi bulish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'zigina etarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, umumlashtirilgan usuliy g'oyalar bayon etiladi. O'quvchilarning yosh individual xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi. Maktab hayoti, amaliy pedagogik jarayon esa xilma xildir. Pedagogik nazariyaga mos

kelmaydigan vaziyatlar uchray turadi. Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi.

Hozirgi kunda yuqoridagilarni hisobga olib o'qituvchiga qator talablar qo'yiladi, hozirgi kun o'qituvchisi:

- pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;
- milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol;
- O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvar e'tiqodli fuqaro;
- ixtisosga doir bilimlarni, psixologik, pedagogik bilim va mahoratni, shuningdek, nazariy ilmlarni mukammal egallagan;
- o'qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko'radigan, har bir o'quvchisi ulg'ayib yaxshi odam bo'lishiga chin ko'ngildan ishonadigan, ularning shaxs sifatida kamol topishiga ko'maklashadigan;
- erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odobli bo'lmog'i lozim.

O'qituvchilik ixtisosiga xos bu xususiyatlar professiogrammada o'z ifodasini topadi

O'qituvchi shaxsining xususiyatlari g'oyaviy sohada quyidagilardan iborat:

- ilmiy dunyoqarash va e'tiqod;
- ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunish;
- ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash,
- ijtimoiy-siyosiy faollik.

Pedagoglik kasbi sohasida: bolalarni va kasbini sevish, kuzatuvchanlik, pedagogik nazokat, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati, haqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik, maqsadga intilish, vazminlik, o'zini tuta bilish, kasbiy layoqatlilik.

Bilish sohasida esa o'qituvchidan keng ilmiy saviya, ma'naviy ehtiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikka intilish talab etiladi.

I.P. Podlasiy pedagog kasbiy imkoniyatining tuzilishi quyidagilardan iborat deb hisoblaydi (I.P.Podlasiy. Pedagogika. Noviy kurs. Kniga 1. M., «Vlados», st.255).



O'qituvchining pedagogik qobiliyati.

Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi pedagogik mahoratga erishish uchun o'qituvchida quyidagi qobiliyat turlari mavjud bo'lmog'i va tarbiyalab etishtirilmog'i lozim. Bilish qobiliyati, kuzatuvchanlik qobiliyati, nutq, qobiliyati, tashkilotchilik qobiliyati, obro' orttira olish qobiliyati, to'g'ri muomala qilish qobiliyati, kelajakni ko'ra bilish qobiliyati, diqqatni taqsimlay olish qobiliyati. Bu pedagogik qobiliyatlar shaxsning aqliy tomonini ham, emosional - irodaviy tomonini ham xarakterlab beradi. Bu sifatlarning hammasi bir - biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, bir - biriga ta'sir etadi va bir butunlikni hosil qiladi.

1. Bilish qobiliyati - fanning tegishli sohalariga oid qobiliyatdir. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi. Unga nihoyatda qiziqadi, tadqiqot ishlarini ham bajaradi. Ba'zan o'quvchilar orasida: "X ni professor deyaver" ko'pincha biz u o'z sohasida bilmaydigan biror narsa bormikin deb o'ylab qolamiz" kabi iboralar uchrab turadi.

2. Tushuntira olish qobiliyati - o'qituvchining o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, material yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berish, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol qiziqish uyg'otish qobiliyatidir.

Qobiliyatli o'qituvchi materialni bayon etish jarayonida turli o'quvchilarning tushuntirilayotgan materialni qanday o'zlashtirayotganlarini qator belgilar asosida to'g'ri aniqlab oladi va zarurat tug'ilgan hollarda bayon qilish usulini o'zgartiradi.

3. Kuzatuvchanlik qobiliyati o'quvchining tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy xolatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq, bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Qobiliyatli o'qituvchi uncha katta bo'lmagan tashqi ko'rinishlar asosida o'quvchining ichki holatidagi juda arzimagan o'zgarishlarini ham fahmlab oladi.

4. Nutq qobiliyati - nutq yordamida shuningdek imo - ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyatidir. Bu o'qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir. O'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan, ma'qo'llayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan, ma'qo'llayotgan yoki qoralayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qiziqayotganligi bilan ajralib turadi.

Fikrlar ifodasi o'quvchilar uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi. O'qituvchining bayoni o'quvchilar fikri va dikkatini maksimal darajada faollashtirishga qaratiladi. O'qituvchi uzundan uzoq jumlar, murakkab so'z birikmalari, qiyin, tumtoq iboralarni qo'llashdan qochadi. O'rinni yumor, hazil, engilgina istehzo nutqni o'quvchilar yaxshi qabul qiladilar.

O'qituvchining nutqi aniq, jonli obrazli, talaffuzi jihatidan erkin ifodali, xis - xayajonli bo'lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim.

5. Tashkilotchilik qobiliyati - birinchidan o'quvchilar jamoasini uyushtirish muhim vazifalarini hal etishga ruhlantirishni, ikkinchidan o'z ishini to'g'ri uyushganligini nazarda tutadi.

O'z ishini tashkil etish deganda ishni to'g'ri rejalashtira olish va uni nazorat qila bilish nazarda tutiladi. Tajribali o'qituvchilarda vaqtni o'ziga xos his etish vaqtga qarab to'g'ri taqsimlay olish, belgilangan muddatda ulgurish xususiyati hosil bo'ladi.

6. Obro' orttira olish qobiliyati - o'quvchilarga bevosita emosional irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda obro' orttira olishdir. Obro' faqat shu asosdagina emas, balki o'qituvchining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatligi va hokozolar asosida ham qozoniladi. O'quvchilar qo'pollik qilmaydigan, qo'rqitmaydigan, to'g'ri talab qo'ya oladigan o'qituvchini hurmat qiladilar.

7. Kommunikativ - to'g'ri muomala qila bilish qobiliyati. Bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan juda samarali o'zaro munosabat o'rnatish pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

8. Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati - o'z harakatlarining oqibatlarini oldindan ko'rishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishi haqidagi tasavvur bilan bog'liq bo'lgan shaxsni tarbiyalab etishtirishda, tarbiyalanuvchining qanday fazilatlarini taraqqiy etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bilan bog'liq bo'ladi.

9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati - o'qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari hajmi, ham uning kuchi, ham ko'chuvchanligi, idora qilina olishi, ham taraqqiy etgan bo'lishi muhimdir.

Qobiliyatli tajribali o'qituvchi materialni bayon qilish mazmunini va formasini o'z fikri yoki o'quvchi fikrini diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha o'quvchilarni o'z diqqat e'tiborida

tutadi, toliqish, e'tiborsizlik tushkunlik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, barcha intizom buzish hollarini e'tibordan qochirmaydi, nihoyat shaxsiy hatti harakatlarini kuzatib boradi.

Pedagogik texnika. Pedagogik texnika o'qituvchiga o'quv faoliyatida ham o'qishdan tashqari faoliyatda ham zarur bo'lgan umumiy pedagogik malakalar majmuidan tashkil topadi. Pedagogik texnika tushunchasi 2 guruh komponentlarini o'z ichiga oladi:

Birinci guruh komponentlari o'z xulqini, yurish turishini boshqarish malakalari bilan bog'liq. O'z organizmini boshqarish (mimika, pontomimika); hissiyoti, kayfiyatini boshqarish; ijtimoiy perseptiv qobiliyatlar (diqqat, kuzatuvchanlik, hayol); nutq texnikasi (nafas, ovozni qo'yilishi, diksiya, nutq tempi).

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruh komponentlari shaxsga va jamoaga ta'sir ko'rsatish malakalari bilan bog'liq bo'lib, ta'lim - tarbiya jarayonining texnologik tomonini yoritadi: didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ, qobiliyatlar; talab qo'yish, jamoaviy ijodiy ishlarni tashkil etish, pedagogik muloqotni boshqarish va boshqalar.

Tarbiyachi tashqi ko'rinishi estetik ma'no kasb etgan bo'lishi lozim. Tashqi ko'rinishga e'tiborsiz qarash va haddan tashqari e'tibor berish ham to'g'ri kelmaydi.

O'qituvchi yuzidan mehribonlik, harakatida, yurishidan bosiqlik, tabiiylik bilinib turishi kerak.

Sinfga qanday kirasiz, qanday qaraysiz, qanday salomlashasiz, stulni qanday surasiz, sinfda qanday yurasiz bular hammasi bolaga ta'sir qiladi.

Pantomimika - gavda, qo'l, oyoq harakati. O'qituvchi darsda o'quvchilar oldida to'g'ri turish monyorasini shakllangirishi kerak. Gavda, qo'l, oyoq harakati ham joyida bo'lishi kerak.

Mimika - o'z fikri, kayfiyati, sezgisini yuz muskullari harakati orqali aks ettirish san'ati. Qarash va yuz holati ba'zan o'quvchilarga so'zdan ko'ra ko'prok, ta'sir qiladi, Ayniqsa kishining ko'zi ko'proq ifoda kasb etadi.

Pedagog o'zaro ta'sir ko'rsatishda o'qituvchining o'z hissiy psixik holatini boshqarish, o'zida eng qulay hissiy (ijodiy| jiddiylik darajasini va umidbaxshlik, xayrihohlik kayfiyatini saqlash o'zining hissiy dam olishini tashkil etish mahorati muhim rol o'ynaydi, Bu mahorat pedagogning kasbiy jihatdan o'z -o'zini nazorat qilishni ta'minlaydi Ko'p yillar davomida sog'lom asab sistemasini saqlab qolish, asabiy buzilishlardan, hissiy va aqliy zerikishdan o'zini tiyishga yordam beradi. SHunday qilib, o'qituvchining pedagogik texnikasi - bu shunday bir malakalar yig'indisidirki, u pedagogga tarbiyalanuvchilar ko'rib va eshitib turgan narsalar orqali ularga o'z fikrlari va qalbini etkazish imkonini beradi.

Pedagogik texnika o'qituvchini malakalarining xuddi shunday yigindisidirki, u o'qituvchining eng yaxshi ijodiy xulq atvoriga, boshqacha qilib aytganda har qanday pedagogik vaziyatda tarbiyalanuvchilarga samarali ta'sir ko'rsatishiga yordam beradi. Pedagogik texnikani egallab olgan o'qituvchi ovozi bo'g'lgandan yoki o'zining ish bilan bog'liq bo'lmagan qandaydir kechinmalarini unutishni bilmaslikdan azoblanib yurmaydi.

Pedagogik muloqot va uni boshqarish uslublari.

Muloqot pedagogik faoliyatdagi eng muhim kasbiy qurol va pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir.

Pedagogik muloqot bu o'qituvchining o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari vaqtda eng qulay psixologik muhit yaratishga qaratilgan kasbiy munosabatdir. Noto'g'ri pedagogik muloqotdan o'quvchida qo'rquv, ishonchsizlik paydo bo'ladi, e'tibor, diqqat, ishchanlik pasayadi, nutq dinamikasi buziladi, mustaqil fikrlash pasayadi.

Pedagogik muomala deganda o'qituvchi va talabalar (o'quvchi) jamoasining o'zaro ta'sir malakasi, usuli va tizimi anglashinib uning mohiyati, o'zaro axborot almashishi, ta'limiy va tarbiyaviy ta'sir o'tkazish o'zaro tushunishga erishish va uni tashkil etish tushuniladi.

O'quv - tarbiya jarayonida pedagogik muloqotni boshqarish uslublari.

Psixologiyada o'quv rahbarlarning o'z jamosi a'zolari bilan munosabat texnikasi tahlil etilib, turli tipdagi ijtimoiy - psixologik portretlari ishlab chiqilgan. O'quv rahbarlarning muloqotni

boshqarish uslublari: avtoritar, demokratik, liberal uslub tarzida berilgan. Mana shu uslublarni pedagogik muloqotda o'qituvchi o'quv rahbarligi uslubi tarzida qurish mumkin.

Avtoritar uslub. O'qituvchi guruhning faoliyat yo'nalishini shaxsan o'zi belgilaydi, kim - kim bilan o'tiradi, kim bilan ishlaydi o'qituvchi o'zi hal qiladi. Bunday uslubda ish yurituvchi o'qituvchi o'quvchilar tashabbusiga yo'l bermaydi. Hamkorlikning asosiy shakli - buyruq, ko'rsatma, instruksiya, ogohlantirish. Hatto kamdan kam bildiriladigan minnatdorchilik ham kamsitish shaklida bo'ladi. "Sen bugun yaxshi javob berding. Sendan buni kutmoqdim" kabi.

O'quvchi xatosini ko'rsa, uni tuzatish o'rniga ustidan kuladi. U yo'g'ida ish sekinlashadi yoki butunlay tuxtab qoladi.

Demokratik uslub. O'qituvchi faoliyat maqsadini har bir o'quvchi ongiga etkazishga, ish borishini hal etishga hammani faol ishtirok etishga undaydi. O'zining vazifasini faqat nazorat va muvofiqlashtirishda emas balki tarbiyalamda deb biladi, har bir o'quvchi rag'batlantiriladi, unda o'ziga ishonch paydo bo'ladi, o'z - o'zini boshqarish rivojlanadi. Demokratik uslubda boshqaruvchi o'qituvchi bolalarning individual qobiliyat va qiziqishlarini hisobga olib vazifalarni optimal tarzda taqsimlashga undaydi. Faollikni rag'batlantiradi, tashabbusni quvvatlaydi. Muloqotning asosiy shakli -iltimos, maslahat, axborot tarzida bo'ladi.

Liberal uslub. O'qituvchi jamoa faoliyatiga aralashmaslikka harakat qiladi, faollik ko'rsatmaydi, maslahatlarga formal qaraydi, turli ta'sirlarga tez beriladi. Javobgarlikdan o'zini olib qochadi.

Eng yaxshi uslub - demokratik uslub. Miqdoriy ko'rsatkichlar avtoritar uslubdan kam bo'lishi mumkin, lekin ishlash ishtiyoqi o'quv rahbar yo'g'ida ham davom etadi. Ijodkorlik yuqori bo'ladi, javobgarlik hissi, o'z jamoasi uchun faxrlanish rivojlanadi. Eng yomon uslub - liberal uslub bo'lib, bunda ham ish kam bajariladi, ham sifat yomon bo'ladi.

Avtoritarizm o'qituvchi yetukmasligini, uning axloqiy va siyosiy tarbiyasizligini, pedagogik madaniyati pastligi bilan xarakterlanadi.

Pedagogik nazokat va pedagogik odob axloq. Yosh avlodni buyuk an'analarimizga yuksak ma'naviy qadriyatlarimizga sodiq va porloq kelajak egalari ekanligiga qat'iy ishonch ruhida tarbiyalash bevosita o'qituvchining zimmasiga yuklanadi. Bu esa avvalo, o'qituvchining o'zi ma'naviy barkamol, bilimli, odobli bo'lishini talab etadi.

O'qituvchilik kasbini sevish pedagogik odobning zarur talablaridan biri hisoblanadi. O'z kasbini sevgan kishigina butun kuch - g'ayratini qalb qo'ri va dil haroratini bu ishga bag'ishlaydi va o'z faoliyatida yaxshi natijalarga erishadi. SHuningdek, bolalarni sevish, ularga mehr - muhabbatli bo'lish, o'qituvchilik kasbi, o'qituvchi axloqiy qiyofasida juda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining bolalarga bo'lgan mehribonligi talabchanligi va qattiqqo'llikni ham taqozo etadi.

O'qituvchi halollik, rostgo'ylik, axloqiy poklik, odamiylik, kamtarlik kabi fazilatlariga ega bo'lishi pedagogik odobining muhim talab qoidasidir. Muallim deyarli har kuni o'quvchilar bilan uchrashadi, savol-javob qiladi, ularning yaxshi xulq, ezgu ishlarini ma'qo'llaydi, bilimni baholaydi, nojo'ya hatti - harkati uchun tanbeh beradi.

Xullas, yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun bo'lajak muallim yuksak pedagogik odob madaniyatini egallashi zarur. Buning uchun bulajak o'qituvchi pedagogik odobning talab va qoidalarini bilib, o'zlashtirib olishi tajribada pedagogik faoliyatda qo'llashi, o'zining dunyoqarashi va axloqiy tajribasi bilan boyitishi lozim, fikrlash va his etish turmushda sinab ko'rish natijasida pedagogik odobning talab va qoidalari o'qituvchining shaxsiy e'tiqodiga, axloqiy fazilatlariga aylanadi.

Har qanday mutaxassis odob, axloq, namunalariga ega bo'lishi tabiiy, lekin pedagogik odoblilik mutlaqo o'zgacha holdir. Chunki tabiatga, jamiyatga notanish kishilarga jism va ashyolarga o'z-o'ziga munosabatda haqiqiy mezon rolini bajaruvchi qobiliyatga ega bo'lishlik, aynan o'qituvchi shaxsiga mujassamlashadi. Pedagogik nazokat etno-psixologik his-tuyg'ulari, milliy xarakter xususiyati, xulq, faoliyat, muomala qoidalari, qonuniyatlari, hodisalari, mexanizmlari, vositalari va ko'nikmalaridan me'yoriy ravishda maqsadga muvofiq tarzda foydalanish o'z aksini topadi.

- emosional his-tuyg'ular, kechinmalar stress va affektiv holatlar xossalari, chegaralariga batamom rioya qilishda;
- xulq atvor malakalarini amaliyotda oqilona qo'llashda;
- bachkana qiliqlar, ortiqcha harakatlar qilishdan o'zini tiyishda;

- nutq madaniyatidan tashqari chiqmaslikda, shaxsiyatiga tegadigan iboralar ishlatmaslikda, qo'pol va dag'al so'zlar qo'llamaslikda;
- hissiy, aqliy bilish jarayonida muayyan me'yorlarga asoslanishda, manmanlikni namoyish etmaslikda;
- o'quvchilar va o'qituvchilar jamoalari bilach ota-onalar hamda notanish kishilar bilan munosabatga kirishda rasmiy, qat'iy ishbilarmonlik uslublariga asoslanishda va hakoza.

Pedagogik nazokat o'qituvchiga muloqotni ijobiy hissiyotlar asosida qurishga, bolalar bilan psixologik kontakt saqlashga yordam beradi. O'qituvchi pedagogik nazokat talablariga amal qilib o'zida muloqotning demokratik uslubini shakllantiradi, o'quvchilar bilan haqiqiy muloqot madaniyatiga erishadi.

Pedagogik nazokat o'qituvchiga bolalar bilan muloqotda konflikt (qarama-qarshilik)dan qochishga, o'zaro munosabatni to'g'ri qurishga yordam beradi. Pedagogik nazokat o'qituvchining kasbiy sifati, uning mahoratini bir qismi.

Pedagogik takt- bu o'qituvchining o'quvchiga maqsadga muvofiq, pedagogik ta'sir o'lchovi, muloqotning mahsuldor muloqot uslubini o'rnatish ko'nikmasi. Pedagogik takt o'quvchilar bilan muloqotda oxirgi holatga (choraga) yo'l qo'ymaydi. Hurmat erkalash, talabchanlikni ham talab etadi.

Pedagogik takt o'qituvchi xulqining moslashuvchanligi - taktikani talab etadi. Chunki o'qituvchi bolalar oldida turlicha nazokatni talab qiluvchi turli rolarda chiqadi.

Pedagogik nazokatni egallash sharoitlari. Pedagogik nazokat pedagog mahorat bilan birga tarbiyalanadi va egallanadi. O'qituvchining ma'naviy yetuklik darajasi, bolalar bilan muloqot ko'nikmalarini egallashi uchun maxsus bilimlarni egallashida o'z ustida katta mehnat natijasida erishadi.

Avvalo bu bilimlar yosh psixologiyasini va bolalarning individual xususiyatlarini bilish bilan bog'liq.

Axloq asoslarini bilish, hatti - haraktlardagi axloqiy ma'noni ko'rish ham katta ahamiyatga egadir. SHu bilan birga o'quvchiga ta'sir etish yo'llarini bilish ular qobiliyatiga aylanishi lozim:

- bolalarni sevis, o'z muhabbatini ko'rsatish;
- bolalar xulqidagi ichki tushunchalarini ko'rish va kuzatish;
- sharoitga moslashish;
- hamkorlikni maqsadga muvofiq yo'lini tanlash.

7-mavzu. O'qitishning optimal usullarini tashkil etish va uning amalga oshirish bosqichlari..

Reja:

1. Tamoyil (prinsip) tushunchasi va uning pedagogik texnologiyadagi talqini.
2. O'qitish prinsiplari va pedagogik texnologiya prinsiplarining uzviyligi va farqlari.
3. Pedagogik texnologiya tamoyillari: yaxlitlik, maqsadlilik, egiluvchanlik, yakuniylik, tugallanganlik.
4. Ta'limni samarali metodlari.

Yangi pedagogik texnologiyalarni loyihalash va ulardan ta'lim tarbiya jarayonida foydalanish ma'lum qonuniyatlarga asoslanadi. Bu asoslar pedagogik texnologiya (PT)ning o'ziga xos jihatlarni ifoda etadi va metodikadan farqli tomonlarini ko'rsatib beradi. Boshqacha aytganda, ularni PT prinsiplari deb atash mumkin.

Prinsip- yunoncha «prinsipium» so'zidan olingan bo'lib, asos, dastlabki holat, boshqaruvchi g'oya, umumlashgan talab kabi ma'nolarni anglatadi. Didaktikada olimlar prinsiplarni turlicha talqin qilishadi: pedagogik holatni yo'lga soladigan didaktik holatlar, tavsiyalar (V.I. Zagviyazinskiy, L.I. Grisenko), o'qitishning me'yoriy asoslari (M.A.Danilov), didaktik maqsadga erishish usullari (I.A.Lerner) va xokazo.


Biz pedagogik texnologiya prinsiplari deganda loyihalangan o'quv tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda yuqori natijalarga erishish uchun rioya qilinadigan umumiy me'yorlar va talabalarni tushunamiz. Demak, u yoki bu pedagogik xodisa prinsip bo'lishi mumkin, qachonki uni o'quv jarayonida hisobga olish (rioya qilish) zarur bo'lsa, ya'ni unga tayanilsa.

PT prinsiplari didaktik prinsiplardan tubdan farq qiladi va o'zida muhim sifat ko'rsatkichlarini mujassamlashtiradi.

Ta'lim prinsiplari o'quv-tarbiya jarayoniga qo'yiladigan ijtimoiy talablar, ta'limni tashkil etish va boshqarishda rioya qilinadigan qoidalar sifatida amal qilinadi.

Ta'lim prinsip (tamoyil)lari o'quv-tarbiya jarayonining barcha komponentlariga, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga, barcha o'quv predmetlarini o'qitish masalalariga daxldor umumiy talablar, qoidalaridir. Prinsiplar umumdidaktik kategoriya bo'lib, ular ta'limning barcha turlari: (individual, guruh, umumsinf), darajalari (boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus, oliy), sub'ektlari (o'qituvchi, o'quvchilar jamoasi), o'quv-tarbiya jarayonining hamma komponentlari (ta'limning maksadi, vazifasi, natijalariga) daxldor umumiy qoidalaridir.

Ta'lim prinsiplari quyidagilar:



Ta'limning tarixiy rivojlanish bosqichlarida o'quv-tarbiyaviy jarayon sifatini oshiradigan PT mavjud bo'lganmi yoki bu fenomen bugun paydo bo'ldimi? Degan savolga akademik V.P. Bepalko quyidagicha javob beradi: «PT har doim har qanday o'qitish va tarbiyalash jarayonida mavjud, biroq eng maqbul o'qitish va tarbiyalash texnologiyasini tanlash va anglagan holda boshqarish pedagogika fani va maktab amaliyoti imkoniyatlari doirasidan chetda qolayapti».

Maktab (barcha o'quv yurtlari) amaliyotida PT ning moddiy vositalari- kitoblar, texnik vositalar va o'qitish metodikalaridan ko'pdan buyon foydalanib kelinadi yoki oldindan rejalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayoni o'qituvchi faoliyati orqali amaliyotga joriy etilyapti. Shu

bilan birgalikda PT- qotib qolgan, siquvga olingan loyiha emas, balki ta'lim va tarbiya samaradorligini belgilovchi qator omillarni baholash imkonini bera oladigan ijodkorlik, yaratuvchilik, fidoyilik natijasidir.

PT prinsiplarini aniqlashda quyidagi holatlar e'tiborga olinadi: 1. Mavjud jamiyat talablariga mos keladigan ta'lim-tarbiya maqsadi. 2. Didaktik jarayonning ob'ektiv qonuniyatlari. 3. Ta'lim-tarbiya jarayoni amalga oshiriladigan shart-sharoitlar.

Yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqarish va amaliyotga joriy etish tuzilishi va mohiyati jihatidan **yaxlitlik prinsiplariga** asoslanadi. Bu prinsip loyihasi yaratilayotganda pedagogik tizimning barcha elementlari o'zaro ta'sir doirasida bo'lishini va o'zaro bog'liqligini e'tiborga olishni taqozo etadi. Ya'ni ta'lim maqsadining qat'iyani aniqlanishi (nega va nima uchun?) o'quv jarayoni mazmuni (nima?), tashkiliy shakllari (qanday?), o'qitish metodlari va vositalarini (nima yordamida?) saralash va tanlashga ko'maklashishi, shuningdek, o'qituvchining mahorat darajasiga bog'liq holda didaktik jarayon samarasini aniqlashga imkon berishi kerak.

Yaxlitlik prinsiplari PT elementlaridan birini yangilab yoki o'zgartirib, qolganlariga tegmaslikni, qayta qurmaslikni inkor etadi. Misol uchun, ta'lim maqsadini o'zgartirib, uning mazmunini yoki o'qitish jarayonini eskicha qoldirish mumkin emas. Nima uchun bugungi kunda Respublikamiz xalq ta'limi tizimida chuqur o'zgarishlar va islohatlar amalga oshirilyapti? Birinchidan, ta'lim-tarbiya maqsadi yangilandi- erkin fikrlaydigan fuqaroni, barkamol insonni, shaxsni shakllantirish zarur. Ikkinchidan, bu ijtimoiy buyurtma o'z navbatida ta'lim mazmunini tubdan qayta qurishni- yangi o'quv dasturlari va darsliklarini yaratishni keltirib chiqaradi. Uchinchidan, ta'lim-tarbiyaning yangi mazmuni- axborotlarni o'quvchi (talaba)larga ma'lum vaqt chegarasida etkazish jarayonini tezlashtiruvchi vositalarni talab etadi. Ana shu vajdan yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini yaratish Prezidentimiz tomonidan olimlarimiz oldiga vazifai qilib quyildi.

Pedagogik texnologiya **maqsadli ta'lim-tarbiya jarayonini** tavsiflaydi. Agar an'anaviy pedagogikada maqsad muammosiga nazariyachilar va amaliyotchilar kam e'tibor qaratishgan bo'lsa, PT da bu markaziy muammo hisoblanadi va uning ikki jihati amalda ajratib ko'rsatiladi: 1. Tashxislanadigan maqsadli ta'lim va o'quv materiallarini o'zlashtirish sifatini xolis nazorat qilish va baholash. 2. Umumiy holda shaxsni rivojlantirish.

PT o'quv-tarbiyaviy jarayonni oldindan loyihalash va keyingi bosqichda bu loyihani sinfda amalga oshirishni ko'zda tutadi. Shu boisdan PT ning muhim prinsiplari- bu bo'lajak o'quv-tarbiyaviy jarayonni **oldindan loyihalash prinsipidir**. Hamma ham loyiha muallifi bo'lavermaydi. O'qituvchi bu sharaflil nom- «pedagog texnolog» sohibi bo'lishi uchun didaktik masalalar va uni hal etish texnologiyalarini loyihalash qonuniyatlari bilan chuqurroq tanishgan bo'lishi kerak. Bu esa, tabiiyki o'qituvchidan ijodkor faoliyatni talab etadi. Loyihalangan texnologiya dars mavzusiga ajratilgan vaqt doirasida joriy etilishi lozim. O'quv vaqti PTni oldindan qurishda muhim ko'rsatgich hisoblanadi va o'quvchi uni hisobga olishi shart. Loyihalanayotgan didaktik jarayon sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajalariga mos kelishi, hamma uchun tushunarli bo'lishi juda muhimdir. Shundagina yakuniy natija qo'lga kiritiladi.

Yakuniy natijaning kafolatlanishi PTning yana bir muhim prinsipidir. Bu tushuncha aslida nisbiy xarakterga ega. Sababi, tuzilgan texnologiya amalga oshirilgach, yaxshimi yomonmi, har qalay ma'lum natijalar bo'lishi- o'quvchilarning o'quv materiallarini turli darajada o'zlashtirib olishlari tabiiy. Biroq, bu erda yakuniy natija tasodifiy va past ko'rsatgichga ega bo'ladi. Gap o'quv-bilish faoliyatining keyingi ikki bosqichi haqida ketayapti: nazorat qiluvchi harakat (NH) didaktik jarayonning natijaviy yakunini aniqlab beradi va tuzatish amali (Tuz) o'quvchilarning past o'zlashtirishiga sabab bo'layotgan didaktik jarayon xatolarini yo'qotish usullarini ko'rsatadi. Xo'sh, yakuniy natija qanday bo'lishi kerak?

Bu savolga PT ning muhim prinsipi- **o'qitishning tugullangalik prinsipi** javobberadi.

O'quvchilarning tajribalarni o'zlashtirish sifati o'zlashtirish koeffitsienti- $K_2 > 0,7$ bo'lsa o'qitish jarayoni yakuniga yetgan, tugallangan deb hisoblanadi $K_2 < 0,7$ bo'lsa o'quvchilar bilan yangi mavzuni o'rganish faqat «o'zlashtirmovchilar»sonini ko'paytiradi. Mamlakatimiz o'quv yurtlarida o'quvchilarning o'zlashtirish sifati- $K_2 = 0,55$ bo'lsa, ya'ni o'quv materialining 55 foizini

o'zlashtirsa, «qoniqarli» deb hisoblanyapti. Bu ko'rsatgichni ta'lim tizimini isloh qilishning dastlabki bosqichi uchun yetarli deb hisoblash mumkin. Kelajakdagi ijobiy «portlash effekti» natijasida o'quvchilarning o'zlashtirish sifati ham oshib boradi va kelajakda rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tariladi. Demak, K₂ o'zgaruvchan qiymat bo'lib, ma'lum bir davlatning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi tub o'zgarishlariga bog'liq.

PT ning prinsiplari birinchi galda, o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurishga yo'naltirilgandir.

Ta'lim usullarining samaradorligi

Verbal (og'zaki) o'quv usullaridan foydalanilganda (ma'ruza, hikoya, tushuntirish) o'quvchilar ma'lumotning 5% ini eslab qolishadi.

Kitob o'qish ma'lumotning 10% ini saqlab qolishga imkon beradi, videofilm, rasm, ko'rgazmali qurollarni ko'rish, ko'rgan ma'lumotlarni 20% ini o'zlashtirishni ta'minlaydi.

8- mavzu: Mustaqil ishlash metodlarini va uni takomillashtirish.

R E J A:

Pedagogik faoliyatda maqsadning qo'yilishi, uning izchilligi.

Mustaqil ishlashni tashkil etishda metodlarni maqsadga muvofiq tanlash.

Mustaqil ishlashni rejalashtirish. Reja shakllari, ish kunini to'g'ri tashkil etish.

*Kimki shogirdligidan chin dildan shod,
Bir kun o'zi ham bulg'usi ustod.
Ilm ila etish mumkin birodar,
Zarradan tortib to quyoshga qadar.* **Nosir Xisrav.**

Respublikamiz hukumati xalq ta'limi sohasida o'rta qo'yayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Hozirgi sharoitda ta'lim tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga etishish, o'quvchilarning xilma - xil faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish o'quvchi zimmasiga yuklatilgan xalqimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqloli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Uzluksiz pedagogik ta'lim g'oyasi amalga oshirilmoqda. SHu munosabat bilan o'qituvchilar malakasini ishirish va ularni qayta tayyorlash ishi davlat va jamoatchilik diqqat markaziga qo'yildi.

O'qituvchilik sharaflilik, lekin juda murakkab kasbdir. Yaxshi o'qituvchi bo'lishi uchun pedagogik nazariyani egallashning o'zigina etarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar umumashtirilgan, usuliy g'oyalar bayon etiladi. O'qituvchilarning yosh individula xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi.

Maktab hayoti amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi. SHuning uchun ham mustaqil O'zbekiston davlatining umumiy ta'lim maktabida ishlaydigan o'qituvchi

- pedagogik faoliyatga qobiliyatli ijodkor, ishbilarmon;
- milliy madaniyat va umuminsoniy, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan diniy ilmlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol;

- O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan e'tiqodli fuqaro;
- ixtisosga doir bilimlarni, psixologik pedagogik bilim va mahoratli shuningdek, nazariy ishlarni mukammal egallagan bo'lishi kerak.

Biror kasbning haqiqiy ustasi bo'lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma'lum jismoniy va ruhiy xislatlar jo bo'lishi kerak. Pedagogik o'qituvchilik faoliyatini yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishini samarali bajarish, ota - onalar va bolalarni izzat - hurmatiga sazovor bo'lishi uchun ham kishida qobiliyat, mahorat, qiziqish bo'lmog'i lozim.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib katta natijaga erishadi. Ijodkorlik uning hamisha hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin.

Yuksak mahoratli o'qituvchi uchun eng avvalo qobiliyatli, malakali va uddaburo bo'lishi kerak. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa iste'dod layoqat va zehn, ya'ni inson nerv tizimida anatomo fiziologik xususiyat ham bo'lishi zarur.

Mahoratli o'qituvchi dars materialini bayon etish jarayonida o'quvchilarning qator belgilar asosida payqab oladi va zarur hollarda bayon qilish usulini o'zgartiradi. SHuningdek o'qituvchi o'quvchilarni savodli o'zlashtirishlari uchun zamin tayyorlab, ularni dam olishdan ishga o'tishlari, bo'shashish, lanjlik, layoqatlariga barham berish uchun vaqt ajratish zarurligini hisobga oladi. U tegishli vaziyat yuzaga kelgunga qadar ish boshlamaydi. Masalan darsning haddan tashqari zo'riqish bilan va kuchli boshlanishi o'quvchilarg munozara qiluvchi tormozlanish deb atalmish holatga sabab bo'ladi. Miya faoliyati tumanlashadi va o'qituvchining so'zlari etarli darajada idrok qilinmaydi.

Tarbiya jarayonida pedagogik ta'sir ko'rsatish mahorati o'quvchiga u yoki bu yuksak axloqiy fazilatlarning mohiyatini anglatish jarayonida qo'llaniladigan o'qituvchining ish usullaridan biridir. Pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng samarali usullaridan ertaklar, dostonlar, she'rlar, maqollar aytishdir. Masalan: "Ota o'zining 10 yashar o'g'li bilan daladan qaytayotib, yo'l ustida tushib yotgan bir taqani ko'radi va unga deydi: - Taqani ol.

- eski taqa uchun egilib o'tiramanmi - deb gap qaytaradi o'g'li. Otasi indamasdan o'zi egilib taqani oladida, yo'lida davom etadi. Kun issiq edi. Bola chanqay boshladi. Bir oz yo'l yurgandan keyin olcha sotib o'tirgan baqqol ko'rinadi. Otasi boyagi taqani olchaga almashtirib belbog'iga tugib oladi. O'g'liga ko'z - ko'z qilib bir dona olchani og'ziga tashladi-da, bir donasini erga tashladi. O'g'li darrov egilib olchani oladi va chanqoqini bostirmoqchi bo'lib og'ziga soladi. Otasi olchani ketma - ket tashlaydi. O'g'li 10 - 15 marta egilib olchalarni terib olib egandan so'ng nihoyat otasi to'xtaydi va belbog'ida qolgan olchalarni o'g'liga uzata turib deydi: "Ko'rdingmi o'glim, sen taqani ko'tarib olish uchun birmarta egilishga eringan eding, olchalarni terib olish uchun 10-15 marta egilding, agar engil mehnat og'ir deb hisoblasang, undan battar og'iriga duch kelasan!"

Bu ertakning pedagogik ta'sirning salbiy va ijobiy ko'rinishlarini bolalarga izohlashda o'qituvchi quyidagi savollar orqali tarbiyaviy mahorat bilan aniqlanadi:

- Otaning talabi to'g'rimi yoki yo'qmi? Sababini ochib bering.
- Otaning bolaga mehnatdan bosh tortmasligi uchun tutgan ishi to'grimi?
- Bolaga dastlab o'z harakati bilan o'rnak bo'lib, so'ng xatosini tushuntiradi. Bu borada sizning fikr - mulohazalaringiz qanday?

Tarbiya jarayonida tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning quyidagi usullaridan foydalaniladi: bolaga qo'yilgan talab, pedagogik ta'sir ko'rsatish, o'quv tarbiya jarayonida o'qituvchi o'z maqsadiga erishish uchun doimo o'quvchilarga o'z talablari bilan yondoshadi. Ularni rag'batlantiradi, ogohlantiradi, tanbeh beradi.

O'qituvchining pedagogik asosda quyilgan talablarni tushuntirish nojuya harakatlardan bolalarni saqlash, ayniqsa kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini maktab va jamoada moslashguncha ketma - ket talablar quyiladi. YUqoridagi talablarning qanchalik ta'sir etishi tarbiyachining pedagogik mahorati va obruyiga bog'liqdir. talablarning qo'yilish shakllari:

- Tarbiyachi tomonidan talabni to'ppa - to'g'ri qo'yilishi. Bunday talab bolalar jamoasi bilan ishlashning dastlabki bosqichidir. ulug' pedagog A.S.Makarenko "samimiy, oshkora, ishonarli, qizg'in va qat'iy talab bo'lmasa jamoani tarbiyalashni boshlab bo'lmaydi" degan edi. Bunday talablar jamoani bir maqsad yuliga boshlash uchun;
- talabni ijobiy va bolani hatti - harakatlariga to'sqinlik qilmasligi;
- talab aniq va tushunarli bo'lishi;
- qo'yilgan talab va vazifalarni natijasini bilish;
- talab ochiq chehra, samimiy, bir ohangda berilishi,iltimos maslahat yaxshi niyatga chorlash;
- talab bolalarning yoshi, bilim saviyaiga mos bo'lishi;
- talablarda kesatish, luqma, minnat qilish bo'lmasligi va boshqalar.

Kishilik jamoasi paydo bo'lgan davrdan boshlab inson hech qachon yolg'iz yashay olmagan. Jamoani tashkil qilishi va uning tarbiyaviy ta'sirini nazariy va amaliy asoslari, mutafakkir va olimlar tomonidan o'rganib, ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Tarbiyachining navbatdagi vazifasi bolalar jamoasini tashkil qilish, tarbiyalash va jipslashtirish borasidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirib, ilg'or tajribalarga suyanib o'quvchilarni tarbiyaviy jarayonda o'rtoqlik, do'stlik, o'zaro hamkorlik, hamjihatlik, o'z - o'zini tarbiyalash mahoratini o'zlashtirishdan iborat. Ular:

sinf boshlang'ich jamosini tarbiyalash va ularda o'zaro munosabat aloqalarini yaratish;
o'quvchilar kundalik faoliyatlarini hamma qirralari jamoada jipslashtirish;
shaxsiy manfaatdan jamoa manfaatini yuqori qo'yishga o'rgatish;
jamoada bir - biriga mehr oqibatli. muruvvat va saxiylik, do'stona hamkorlik mavjud bo'lsa, u katta tarbiyaviy kuchga aylandi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilar jamoalari tashkil qilishda o'qituvchidan turli tuman vositalardan mahorat bilan foydalanish talab qilinadi.

1. O'qituvchi jamoa a'zolarini yangi sharoitga moslashuv darsida ularga ishonch, hurmat, xushmuomalalik talablarini to'g'ri qo'ya bilish bilan birga o'qituvchini tushunish va eshita bilish mahoratiga ega bo'lishi kerak.
2. O'quvchilar jamosaida etakchi kuch tayanch o'zagini tanlash.
3. Jamoa a'zolarining har birining kuchiga, qobiliyatiga qarab topshiriqlar berish.
4. Jamoada yangi an'ana, qonun qoidalarni dastlabki kurtagini yaratish va unga amal qilish.
5. Jamoa istikbolini davr talabi bilan moslashgan holda belgilash talab qilinadi.

har bir o'qituvchi pedagogik faoliyat yuritar ekan, berayotgan ta'lim - tarbiyasini yanada samarali chiqishi uchun u o'z ustida muttasil ishlashi, bilimini, mahoratini o'stirishi kerak. O'quvchilar bilan bo'ladigan munosabatlarni puxta o'ylab ularning ko'ngliga ozor etkazmasdan ish olib borishi kerak. Muomala madaniyati o'zini tuta bilishini nazorat qilishi kerak. har bir tarbiyachining dunyoqarashi uning muomalaidan namoyon bo'ladi. Muomalaning sosiy vositasi tildir. Xalqimizdan shunday naql bor: "Bola shirin so'zning gadosi". Bas shunday ekan tarbiyachi muomilasida juda ehtiyotkor bo'lishi kerak. A.Navoiy

muomala qiluvchi shaxsning mahorati haqida shunday deydi: "SHirin soʻz kungillar uchun bamiqli asaldir".

Yana bi haqda husayn Voiz Koshifiy shunday deydi: "Nasihatli shirin soʻz-u muloyimlik birla ibtido qilday, chunki bu zamonda yumshoqlik va xushruylik koʻrgazmayin nasihat korga kelmas".

Davlat taʼlim standartlarining muhim darajasi boʻlgan eksperimental tayanch oʻquv rejasi va dasturlar har tomonlama puxta oʻrganilishi zarur. Ushbu dastur va rejani yaratishda mamlakatimizdagi fan texnika ijtimoiy iqtisodiy sohalaridagi rivojlanishlar hisobga olingan. Unda avvalo oʻquvchilarni psixologik fiziologik xususiyatlariga muhim oʻrin berilgan.

Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirliklari umumtaʼlim maktablari oliy va oʻrta maxsus oʻquv yurtlarida taʼlim - tarbiya mazmunini qaytadan mukammal ishlab chiqishlari lozim.

- taʼlim tarbiya shakllari usuli vositalarini jahon andozasi talablariga mos holda rivojlantirish;
- taʼlim madaniy - maʼrifiy muassasalarini yangi texnika va texnologiya asosida zamonaviy jihozlash;
- oʻqituvchi murabbiylar ijodkorligini taʼminlash kasb mahoratlarini oshirishning samarali yoʻllarini topish;
- oila, mahalla, maktabda taʼlim - tarbiya mazmunini mukammal ishlab chiqish amaliyotiga keng tadbiiq etish.

Shunday qilib oʻqituvchining mehnatini ilmiy tashkil etish, davlatning bu haqdagi gʻamxoʻrligi, barkamol avlodni tarbiyalashdek muqaddas vazifasini yorugʻ yuz bilan ado etish uchun kuchli turtki boʻladi

8-Mavzu: Dars jarayonlarini nazorat qilish metodlari.

Reja:

1. Sinf rahbari oʻquvchilarning birinchi tarbiyachisi va murabbiysi.
2. Darsdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.
3. Tarbiyaviy ish faoliyatini tashkil etish yoʻllari.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Barkamol avlod-Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori.T. 1997 y
2. Oʻzbekistonning milliy istiqlol mafkurasi. T.1993y.
3. Oʻquvchilar maʼnaviyatini shakllantirish. J.Yoʻldoshev tahriri ostida. T.2000 y.
4. Musurmonova O. Oʻquvchilar maʼnaviy madaniyatini shakllantirish. T.1993 y.
5. Hakimov N.H. Shaxsning siyosiy madaniyati.

Maktab oʻquv tarbiyaviy jarayonga rahbarlik qilishda sinf rahbarining faoliyati alohida oʻrin egallaydi. Buning sababi shundaki sinf rahbari bir tomondan sinfga umumiy pedagogik rahbarlikni amalga oshiradi, boshqa oʻqituvchilar (fan oʻqituvchilari) bilan birgalikda sinf oʻquvchilari orasida tarbiyaviy ishni olib boradi. Ikkinchi tomondan oʻquvchilar faolligini oshirish mustaqillikni, ularning yakka tartibdagi xususiyatlari va qiziqishlari asosida oʻqishga masʼuliyat bilan qarash, mehnatsevarlikni shakllantirish, oʻquvchilarning unumli mehnatini oqilona tashkil etishda yordam koʻrsatish uning vazifasidir.

Bugungi maktab oldiga shaxsning har tomonlama birinchi holda sinf rahbarining faolligini maktab direktori hamda ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari uyushtiradilar va nazorat qiladilar. Sinf rahbari faoliyatining ikkinchi tomonini ko'proq o'quv tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari tashkil etadi va nazorat qiladi.

Maktabning bu boradagi asosiy vaziflari davlatimizning maktab va ta'lim to'g'risidagi hujjatlarida ochib berilgan.

"Umumta'lim maktabining asosiy maqsadi, - deyiladi o'rta maktab Nizomida, o'quvchilarni har tomonlama rivojlangan, madaniyatli shaxs sifatida shakllantirish, shuningdek jamiyatda o'zlarining mustaqil o'rnini topish. ongli ravishda ta'lim va kasblar bo'yicha dasturlarni tanlash ularni o'zlashtirish uchun asos yartish, jamiyat, oila, davlat oldida o'z mas'uliyatlarini his qila oladigan shaxslarni tarbiyalashdan iborat".

Maktabdagi tarbiyaviy ishlar umumiy tizimida sinf tarbiya jarayonini yo'lga qo'yuvchi sinf rahbarining o'rnini beqiyosdir. Sinf rahbarlari avvalo "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasining umumta'lim maktabi to'g'risidagi Nizom, O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalari. Sinf rahbari to'g'risida Nizom va boshqa pedagogik hujjatlarda belgilab berilgan yosh avlodni mustaqillik ruhida tarbiyalashning umumiy vazifalaridan kelib chiqib, o'z tarbiyaviy ish faoliyatlarini aniqlab oladilar.

Sinf rahbarlari o'quvchilarda mustaqil davlatimiz ichki va tashqi hayotida sodir bo'layotgan voqealarga qiziqish uyg'otib, uni kasb -korga bog'lab olib borish mumkin. Sinf rahbarining o'quvchilarga ko'rsatadigan tarbiyaviy ta'sir kuchi ko'p jihatdan uning ma'naviy kamolatiga bog'liq. O'ning shaxsi va ma'naviy qiyofasi o'quvchilar ongi va xulq - atvorining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buni boshqa biror - bir tarbiyaviy vosita bilan almashtirib bo'lmaydi.

Sinf rahbari o'z shogirdlariga singdirishga harakat qiladigan yuksak ma'naviy hislatlarni, chunonchi donolik, ilmlilik, bolalarga muhabbat, odillik, to'g'rilik, poklik, qat'iylik, g'amxo'rlik, sezgirlik, qiziquvchanlik, ijodkorlik, orastalik birinchi navbatda o'zi egallab olishi lozim bo'ladi. Tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak.

Sinf rahbari ish faoliyatining muvafaqqiyatli bo'lishi kun jihatdan uning pedagogik tayyorgarligi va mahoritiga bog'liqdir. Pedagogik mahorat o'z-o'zidan kelmaydi. Pedagogik mahorat o'z malakalarini oshirish g'oyaviy hamda madaniy dunyoqarashlarini kengaytirish orqali muntazam tarzda ish olib borishlari natijasida vujudga keladi. Pedagogik mahoratni o'stirish va takomillashtirishda tarbiyaviy ish tajribasi shaxsiy pedagogik tajriba ham muhimdir.

O'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish samaradorligi ko'p jihatdan sinf bilan to'g'ri munosabat o'rnatishga bog'liqdir. Buning uchun sinf rahbari eng avvalo sinf jamoasini o'ziga jalb qila bilishi kerak.

Tarbiyaviy ishda ko'pgina qiyinchiliklar ham uchraydi. Maktab hayotida hamma narsani uchratish mumkin, kutilgan va kutilmagan vaziyatlarga duch kelinadi. Sinf rahbari bularning hammasiga tayyor turishi barcha muammolarni echishda o'zining etuk bilimi boy tajribasini ishga solish zarur.

Sinf rahbarining xizmat vazifalarini aniqlab olish muhim masaladir.

Ishning hajmi, kulami, faoliyatining rang-barangligi jihatidan sinf rahbarini maktabdagi boshqa biror - bir xodimga tenglashtirib bo'lmaydi. U o'quvchilar, sinf faollari, bolalar tashkilotlari, fan o'qituvchilari, to'garak rahbarlari, maktab ma'muriyati, ota-onalar hamda keng jamoatchilik bilan bevosita ish olib boradi. Sinf rahbari o'z maqsadini xalq ta'limi to'g'risidagi davlat hujjatlariga muvofiq tarzda belgilab oladi. Maqsad sinf rahbari ishining vazifalarida oydinlashtirib olinadi.

Sinf rahbarining vazifalari quyidagilar.

1. Har tamonlama barkamol shaxsni tarbiyalash buyicha rejali ish olib boradi.
2. O'quvchilar umumiy sonini saqlab qolish uchun amaliy choralar ko'radi.
3. Sinf jurnallarining va boshqa zaruriy hujjatlarining to'g'ri yuritilishini ta'minlaydi.
4. O'qishga ongli munosabat, ma'suliyat, fan, texnika, madaniyat va san'atga qiziqish o'yg'otadi.
5. Maktab mulkini ko'z qorachig'iday saqlash ruhida tarbiyalaydi.
6. Davlat ishiga va xalqimizning jangovar hamda mehnat an'analariga sodiq qilib tarbiyalaydi.
7. O'z mustaqil Vataniga muhabbat hissini shakllantiradi.
8. Bolalarni mehnatda va o'zbek xalqining mustaqil davlat qurishdagi bunyodkorlik ishlarida ishtirokini ta'minlaydi.
9. O'quvchilarda ijtimoiy faollik va tashabbuskorlik, mustaqillik, onglilik va intizomlilik, rostgo'ylik fazilatlaritni tarbiyalaydi.
10. Sinf jamoasini tashkil qiladi va jipslashtiradi.
11. O'quvchilarning talab va qiziqishlarini, ularning ijtimoiy hayotini har tomonlama o'rganadi.
12. O'quvchilarni sharqona odob - axloq ruhida tarbiyalaydi.
13. O'quvchilarning ota - onalari bilan muntazam ravishda aloqada bo'ladi, ularning tarbiyaviy imkoniyatlari, ijtimoiy shart - sharoitlarini o'rganadi.
14. O'quvchilarning o'zlashtirmaslik sababalarini aniqlaydi va uni bartaraf etish uchun chora - tabdirlarni belgiladi.
15. Sinfda dars beradigan o'qituvchilar bilan hamkorlikda ish olib boradi.
16. O'quvchilarning darsdan tashqari tugarak ishlaridagi faol ishtirokini ta'minlaydi.
17. O'quvchilar o'zlashtirishini yuqori darajaga ko'tarish, intizomini yaxshilash, ular tomonidan maktab ustavi va ichki tartib - qoidalariga amal qilish bo'yicha sinf majlislarini o'tkazadi.
18. Bolalar yetakchisi va sinf faollari bilan hamkorlikda ish olib boradi.
19. Sinf rahbari o'zining nazariy bilimi va pedagogik malakasini hamda mahoratini muntazam ravishda oshirib boradi.

Sinf rahbari o'z sinfidagi o'quvchilarning bevosita ta'lim - tarbiya jarayoni, ya'ni darslar davomida hamda darsdan tshqari faoliyatini nazorat qilishga mas'uldirlar. Sinfdagi barcha o'quvchilarni qobiliyatiga qarab tugaraklarga jalb etish kerak. O'quvchilarning nechta bo'lishidan qat'iy nazar o'quvchilarga ma'naviyat daftarini to'liq tuttirish kerak. Haftada bir marta o'tkaziladigan ma'naviyat soatlarini to'g'ri tashkil etib, unga haqqoniy yondoshish shartdir. Tarbiyachi qanday sharoitda ishlamasin, u qanday sinfdan rahbarlik qilmasin o'quvchi shaxsini kamol toptirishi

kerak. Sinf rahbarligi odatda sinfni va alohida - alohida ishlashni amalga oshirishi, o'quvchilarga o'z ta'siri, metodlarini mohirlik bilan qo'llashi kerak.

Agar sinf rahbari o'quvchilar faolligini yanada oshirishga harakat qilsa, ota - onalar bilan aloqani mustahkamlashi lozim bo'ladi.

O'zbekistonimizning "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunini o'quvchilar, ota - onalar o'rtasida o'rganib ishlab chiqish kerak.

Sinf rahbari o'z o'quvchisini doimo o'rganib borish uchun faqat o'quvchilar bilangina emas, balki o'qituvchilar bilan o'quvchilarning ota - onalari bilan ham ish olib borishi kerak.

Maktabda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar tizimi to'g'ri va bevosita sinfning o'zlashtirishini ko'tarishga ta'sir etadi. Sinf rahbari o'qituvchilar bilan hamkorlikda bolalarni o'qishga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatadi, o'quvchilarning o'qishlarini nazorat qiladi.

Sinf rahbarining o'quvchilar bilan hamkorligi eng avvalo, o'sib kelayotgan yoshlarga bo'lgan munosabatdir. Sinf rahbarining o'quvchilar bilan yaqinlashuvida hech qanday holat, samimiyat va e'tibor bilan munosabatda bo'lishga teng kela olmaydi.

Ma'lumki, insonning barkamolligini tashqi ko'rinishiga qarab emas, balki ko'proq uning ma'naviy dunyosiga qarab belgilanadi. Jamiyatning ravnaqi va kelajagi ana shu jamiyatda yashovchilarning ham ma'naviy, ham moddiy kamolotiga bog'liq. Insoniyat ma'naviy qashshoq ekan, risoladagiday kelajagi porloq jamiyat qurib bo'lmasligi hayot haqiqati ekanligi ma'lum bo'lib qoldi. Bunday insonni tarbiyalash muayyan darajada maktab zimmasiga yuklatiladi. Demak, kelajagimiz, or - nomusimiz, ishonchimiz, butun borlig'imiz ana shu ilm maskani bilan bog'liq. SHunday ekan butun kuch - g'ayratimizni, qalb qurimizni maktabda olib boriladigan ta'lim - tarbiya ishiga qaratmog'imiz lozim.

Bu esa tarbiyachi - murabbiyga uning olib borayotgan arbiyasining samaradorligiga, sinf tarbiyaviy soatlarning hamda sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning nechog'lik mahorat ila tashkil eta bilishiga bog'liq. Odamlar o'rtasida mehr - oqibat, haqiqiy insoniy munosabatlar nihoyatda zarur bo'lib qolgan vaziyatda tarbiyaviy sinf soatlari - xushaxloqlik tarbiyasi saboqlarining ahamiyati yanada oshadi.

Yaxshi tarbiya kishining bebaho boyligidir. Bu boylik bilan yosh avlodni sinf tarbiyaviy soatlari va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning uyg'un tashkil qilgandagina ta'minlash mumkin.

Sinf tarbiyaviy soatlari o'qituvchi, tarbiyachi - murabbiylarning ijodiy izlanish va pedagogik mahoratining namoyishi desak, mubolag'a bo'lmas. Unda demokratik qoidalar asosida o'quvchilarning o'z - o'zini boshqarishini o'rganishga, tarbiyaviy - tashkiliy ishlarni demoakratiyalash, insonparvarlashtirish, o'qituvchi - o'quvchi - ota - onalar erkin muloqotiga keng yo'l berilgan.

Maktabdagi o'quv - tarbiya jaryoniga rahbarlik qilishda sinf rahbarlarining tarbiyaviy faoliyati alohida o'rin tutadi. Sinf tarbiyaviy ishinig asosiy ish yurituvchisi sifatida har bir o'quvchi bilan shaxsning kamol topishiga faol ta'sir etadigan muhit yaratadi. Sinf o'quvchilarining axloqini nazorat qiladi, ayrim o'quvchilarning xatti - harakat va faoliyatlari doirasida jamoatchilikning fikrini shakllantiradi.

Sinf rahbari shuni unutmasligi kerakki, sinfda ta'lim - tarbiya ishlarini tashkil etish va rahbarlik qilishda asosiy yetakchilik vazifasini uning o'zi o'taydi. Sinf rahbari o'quvchilar jamoasini tashkil etish va ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyasi sifatiga javobgar shaxsdir. SHuning uchun ham u sinfni obdon o'rganishi, sinf to'g'risida to'liq va aniq ma'lumotlarga ega bo'lishi, maktab direktorining har bir ko'rsatmasiga tayyor turishi, atroflicha ma'lumotlar va axborotlar bera olishi lozim.

Sinf rahbarining ishi keng ko'lamli bo'lishiga qaramasdan u maktab jamoasining kichik bo'lagi - sinf faoliyati bilan bevosita bog'langanligini nazardan qochirmalik kerak.

Sinf jamoasini bayram namoyishlarida, kechalarda, sport musobaqalarida, mehnat jarayonida, olimpiada harakatidagi ishtiroki maktab ma'muriyati nazaridan chetda qolishi mumkin emas.

Sinf rahbarining oila va jamoatchilik olib boradigan ishlari bolalarning har tomonlama uyg'un rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Oilaviy tarbiya pedagogika fanida hali to'liq o'rganib chiqilmagan. CHunki har bir oila boshqasiga o'xshamaydigan o'ziga xoslik bor. Bu sinf rahbari oldiga yangi muammolarni keltirib qo'yadi. Maktab esa oilaga nisbatan uyushgan, rejali, tizimli ish olib boradigan maxsus tarbiyaviy maskandir. SHu sababdan ham har bir oilaga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish maktabning muhim vazifalaridan bittasidir. Bu degani oilaviy tarbiyaning mazmunini tashkil etishini maktab belgilaydi, uni takomillashtiruviga, samaradorligini oshirishga maktab rahbarlik qiladi.

Sinf va maktab ota - onalar yig'ilishlari, ota - onalar bilan yozishmalar, oilalarga ham nazorat, ham amaliy maqsadlarda chiqishi, yaxshi oilalar ishini ommalashtirish maktab va oila hamkorligini ta'minlaydigan omillardan hisoblanadi.

Sinf rahbari sinfni qabul qilib olar ekan, eng avvalo u sinfdagi ishlar bilan tanishadi, o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini, sinfning uyushqoqligi, o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi, shundan so'ng sinf o'qituvchilari oldiga aniq tarbiyaviy vaziflarni qo'yadi, birgalikda harakat qilishga chaqiradi.

Sinf rahbari, birinchi navbatda sinf jamoasining birligiga o'z e'tiborini qaratishi lozim. Sinfdagi barcha o'qituvchilar bir tanu, bir jon bo'lib, bir maqsad, mushtarak niyat bilan har bir jamoaga birlashgan bo'lishlari lozim. Biri ikkinchisini ruhlantirib, ilhomlantirib ishga kirishgan holdagina tarbiyaviy jarayon kutilgan samaralarni bera olishi mumkin.

Sinf rahbari ishni sinf o'quvchilarini dastlabki maslahat kengashiga chaqirishdan boshlashi kerak: xuddi shu erda, sinfning yillik tarbiyaviy ish rejasi, tarbiyaviy tadbirlar, kim qanday harakat qilishi lozimligi, muammolarni echish yo'llari, o'zaro yordam, pedagogik kuzatishlar natijalarni ayriboshlash va hokazolar kelishib olinadi.

O'quvchilarni har tomonlama o'rganish sinf rahbarining birinchi galdagi vazifasidir. U bolalarning shaxsiy xususiyatlarini aniqlab chiqqach, shu sinfda ishlovchi o'qituvchilar oldiga sinfdagi o'quvchilarning umumiy harakati bilan hal qilinishi zarur bo'lgan aniq tarbiyaviy vaziflarni qo'yadi. Masalan, yetakchi tarbiyaviy vazifa sifatida o'quvchilarda bilimlarga o'qishga qiziqishni shakllantirish

ko'rsatilishi mumkin. Keyin sinf rahbari navbatdagi tarbiyaviy maqsadni olg'a suradi va yana ko'pchilik bo'lib uni amalga oshirishga kirishadi.

Shuningdek, sinf rahbari o'quvchilarning o'quv faoliyatini chuqur nazorat qiladi, darslarga kiradi, kuzatadi va o'z sinfidagi o'quvchilar bilan birgalikda sinf ta'lim - tarbiya ishlari sifatini oshirish bo'yicha chora -tadbirlar ishlab chiqadi.

Sinf xonasining jihozi va ko'rinishi o'quvchilarning estetik tarbiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun o'quvchilarga sinf burchagini qanday jihozlash kerakligini aytib borishi kerak. Sinf rahbari ko'rgazmali qurollardan samarali foydalanish, o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqlaridan unumli foydalanish va bolalar ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda ularni har tomonlama kamol toptirishga yordam beradi. Darsdan tashqari vaqtda o'quvchilarning jamoat topshiriqlarini bajrinishini, tugaraklarda ishtirok etishini nazorat qilish kerak.

Sinf rahbari fan o'qituvchilari harakatining taxminiy rejasini tuzib olishi ham maqsadga muvofiqdir. Unda darsda ruhiy ko'tarinkilik muhitini yaratish, o'quvchilarning o'z faniga qiziqtirish va rag'batlantirish, dars jarayoniga qiziqarli yangi talqinlar olib kirish, yoshlarning ijodiy ishlari tizimini yaratish, o'quv mehnatini tashkil etish, sinfdan tashqari o'qishni yo'lga qo'yish, o'quvchilarning ijodiy ishlarini namoyish qilish, darsdan tashqari vaqtda devoriy gazetalar chiqarish, olimpiadalar tashkil qilish, maqsadli sayohatlar uyushtirish kabi rang barang ishlar o'z mazmunini topishi kerak.

Sinf rahbari o'ziningyillik ish rejasini "Sinf o'qituvchilari bilan ishlash" bo'limini aniq va puxta qilib tuzib olishi muhimdir. Unda o'quvchilarda nutq madaniyatini tarbiyalash, ularni mustaqil bilim olish ko'nikmalari bilan qurollantirish, bilim olishga o'rgatish, o'qitish jarayonida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash, ularni o'quv vositalari orqali tarbiyalash masalalari o'z ifodasini topadi.

14. XORIJIY MANBALAR

1. А.К.Бондаренко, Л.В.Позняк, В.И.Сщкатулла «Заведующей дошкольных учреждений», Москва 1984 г.
2. А.В.Позняк, А.К.Бондаренко, Семинарские практические и лабораторные занятия по курсу «Организация и руководство дошкольным воспитанием». Москва 1993 г.
3. Фролова О.А. «Инспектирование детского сада». Москва 1994 г.
4. В.Беспалько. Слагаемые педагогической технологии. -М.: Педагогика, 2000 .
5. В.Беспалько. Персонифицированное образование //Педагогика, 1998. №2.-с.12-
6. Волжский А. Методика воспитательной работы с молодежью. – М. 2003.
7. Котов В. Воспитательная работа в школе: опыт и проблемы. – СПб: Сев.сияние 2003.
8. Колеченко А. К. Энциклопедия педагогических технологий – СПб.: КАРО, 2005
9. Монахов В.М. Аксиоматический подход к проектированию пед. технологии, - М.:Педагогика. 1997г.
10. Новый педагогические и информационные технологии в системе образования. М. «Академия», 2002
11. Педагогика В.А.Сластенин, И.Ф.Исаев, А.И.Михенко, Е.Н.Шиянов. Москва. «Школьная пресса». 2004
12. Педагогические технологии / Под. ред. Кукушина В. С. – М.: 2006.
13. Подласый И. П. Педагогика В 2 кн. – М.: ВЛАДОС, 2003.
14. Юзвявичене П.А. Теория и практика модульного обучения. Каунас 1989.
15. Нуркова Н. Е. Педагогическая технология. М. “Педагогическое общество России”. 2002
16. Kurt Meredis . Osnovi kriticheskogo mishleniya. Univers. Nord Ajova, 2002, 48 p.
17. Charlz Templ. Osnovnie pedagogicheskie priemi kriticheskogo mishleniya.-М., «Logos», 2003, str. 108-129.
